



F. BAHROMOV, S. BURXONOV, O'. XUDOYOROV

MAKTAB  
KUTUBXONASI

# MING BIR BOSHQOTIRMA




\* 01 \* | 19  
| 200 \*

## **MING BIR BOSHQOTIRMA**

**10–15 yoshli o‘quvchilar uchun  
qo‘sishimcha o‘quv qo‘llanma**

*Uchinchi nashr*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2014

UO'K: 398.61  
KBK 74.100.58 B 43

*Mas'ul muharrir:*  
**Akbar BAHROMOV**, fizika-matematika  
fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

**U.Dalaboyev**, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi;  
**F.Tolipova**, Respublika ta'lif markazining bosh metodisti;  
**N.Hakimova**, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 56-mak-  
tabning matematika va informatika o'qituvchisi.

**B 43 Bahromov F. va boshq.**

Ming bir boshqotirma: 10–15 yoshli o'quvchilar  
uchun qo'simcha o'quv qo'llanma / F.Bahromov,  
S.Burxonov, O'.Xudoyorov; mas'ul muharrir  
A.Bahromov – T.: «Sharq», 2014. – 224 b.

«Ming bir boshqotirma» kitobida 10–15 yoshli o'quvchilar  
uchun 1001 ta matematik boshqotirma jamlangan bo'lib, undagi  
boshqotirmalar o'quvchilarni topqirlikka o'rgatish, mantiqiy fikrlash  
texnikasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu kitobdan o'quvchilar  
aqllarini charxlash uchun qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida  
foydalaniishlari mumkin.

Ushbu kitobdagagi boshqotirmalarning yechimlarini katta  
yoshdagilar ham qiziqib topishlari va topqirliklarini sinashlari  
mumkin.

**ISBN 978-9943-26-103-7**

**UO'K: 398.61**

**KBK 74.100.58 B 43**

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturi uchun ajratilgan  
Davlat budgeti mablag'lari hisobidan nashr etildi.

© Bahromov F., Burxonov S., Xudoyorov O', 2014  
© «Sharq» NMAK Bosh tahriri, 2014

## So‘zboshi

Boshqotirma oddiy masaladan farqli shunday ajoyib topshiriqki, uni yechishdan zavqlanasiz va rohatlanasiz. Boshqotirmamaning javobi har doim ham sizni ajablantravermashgi mumkin, ammo javobini topgach: «Juda oson olan ku, nega uni darrov topa olmadim-a» – deb yuborishingiz amiq.

Boshqotirmalar odatda oddiy hayotiy voqealardan olinib, uning yechimini topish uchun keng ommaga ma’lum bo’lgan ma’limotlami bilish kifoya qiladi va «qulfni ochish uchun unga to’p’ni keladigan yagona kalitni topish» talab etiladi. Boshqotirmalar bizni ziyrak va topqir bo’lishga o’rgatib, doppatni bu joyga jamlashni, keng fikrlashni, ko’p sonli faktlarni bu biri bilan solishtirib, ulardan kerakligini ajratib olish kabi lazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy matematika kitobi miloddan avvalgi XVII asrda Misrda yashagan Arximes tomonidan yaratilgan. Kitobning har bir varag’i 5 metrdan uzuinioq bo’lgan papirusga yozilgan. Shuning uchun bu kitob «Arximes papirusi» deb ataladi. Bu kitobdagi masalalar matematik boshqotirmalardan iborat bo’lgan. Kitobdan o’sha davrdagi davlat kotiblari mакtabida darslar uchun «Arximes papirusi»dagi boshqotirmalar juda qiziqarli bo’lib, ulardan ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Keyinchalik qadimgi yunonlar (masalan, Yevklid) odatiy matematikani teorema va tushunchalar bilan boyitib borishgan.

Qadimgi vavilonlar tomonidan tuzilgan yuzga yaqin matematik jadvalchalar», ya’ni matematik boshqotirmalar ham bizgacha yetib kelgan. Yunon sivilizasiyasining oxirlarida

donishmand Diofant boshqotirmalarni yig‘ib, «Arifmetika» kitobini yozgan. Qadimgi Xitoy va Hindistonda yozilgan matematika kitoblari boshqotirmalar to‘plamidan iborat bo‘lgan. Arab imlosida bitilgan hisob-kitobga oid qadimiy kitoblarda ham ko‘blab boshqotirmalar o‘rin olgan.

Hozirgi davrda matematika fani son-sanoqsiz hisob-kitoblarni, teorema, qoida va tushunchalarni o‘z ichiga olgan. Boshqotirmalar esa matematika darsliklaridan deyarli siqib chiqarilgan. Boshqotirmalar mакtabdan tashqari mashg‘ulotlarda, matematik to‘garaklarda shug‘ullanadigan bo‘lib qoldi.

Boshqotirmalarni matematika fanidan ajratib bo‘lmaydi. Bas, shunday ekan, boshqotirmalar bilan ko‘proq shug‘ullanib, aqlingizni charxlab boring. Shu tariqa topqirlikni o‘rganing, aqliy zakovatingizni oshirib boring.

Kelishib olaylik. Avval boshqotirmani javobiga qaramasdan yechishga harakat qiling. Chunki meva mazasini sezish uchun uni o‘zimiz chaynashimiz kerak. Javobni darrov topa olmasligingiz tabiiy. Har xil variantlarni qo‘yib ko‘rib, eng to‘g‘ri keladiganini tanlab olish uchun ancha vaqt kerak bo‘lishi mumkin. Javobini o‘zingiz topa olganingizdagи rohatbaxsh onlarga, qalbingizda uyg‘ongan mag‘rurlik hissiga nima yetsin.

## 117. JAVOB BERISHGA SHOSHILMANG

1. Ovchdaraxtdagi 12 ta qushdan 3 tasini urib tushirsa, daraxtda nechta qush qoladi?
2. Stolda 7 ta pashsha bor edi. Bir urib 2 ta pashsha o‘ldiriba, stolda nechta pashsha qoladi?
3. Nomadagi 7 ta shamdan 3 tasi o‘chirib qo‘yilsa, nechta shum qoladi?
4. Buyl qovun tarvuz bo‘ladimi?
5. Io q qizni to‘qqiz soat bo‘s sh xonaga berkitib qo‘yilsa, nima bo‘ladi?
6. Daraxt shoxida *A* va *B* o‘tirgan edi. *A* uchib ketdi, *B* uchib turdi. Daraxtda nima qoldi?
7. Nemis sartaroshlari bir nafar ispanning sochini olishdan ko‘rnakki nalar portugalning sochini olishni yoqtirishadi. Nima uchun?
8. Hasan, Husan va Salim 6 km ga yugurib borishdi. Ularning har biri necha kilometrdan yugurishgan?
9. Qachon bo‘linma bo‘linuvchiga teng bo‘ladi?
10. Soat 5 da yomg‘ir yog‘a boshladi va 6 soatdan keyin yomg‘ir to‘xtab, bulutlar tarqab ketdi. Lekin quyosh chiqmadidi. Nima uchun?
11. Xonaning 4 ta burchagida bittadan mushuk bor. Har biri mushuk qarshisida 3 tadan mushuk bor. Har bir mushukning dumida bittadan mushuk o‘tiribdi. Hammasi bo‘lib xonada nechta mushuk bor?
12. Savatdagi 5 ta olma 5 ta bolaga bittadan bo‘lib berildi, lekin bitta olma savatda qoldi. Shunday bo‘lishi mumkinmi?

- 13.** Qafasdagi 4 ta qush 4 ta bolaga bittadan berilsa, 1 ta qush o'sha qafasda qolishi mumkinmi?
- 14.** Hech qanday arifmetik amallarni bajarmay 66 sonini 1,5 marta oshiring.
- 15.** Tikuvchi har kuni gazlamani 2 metrli bo'lakdan qirqib olsa, 18 metrli gazlamaning oxirgi bo'lagini nechanchi kuni qirqadi?
- 16.** Har 5 minutda yarim metrli g'o'la arralayotgan kishi 14 metrli yog'ochni qancha vaqtda kesib bo'ladi?
- 17.** Uch o'rtoq bozorga ketayotib, 3 ta tanga topib olishdi. Agar o'rtoqlardan bittasi o'zi bozorga ketayotgan bo'lisa, nechta tanga topgan bo'lardi?
- 18.** Toshkentga kelayotgan bir kishi 3 nafar tanishini uchratib qoldi. Har bir tanishining yonida bittadan bolasi ham bor edi. Hammasi bolib Toshkentga kelayotganlar necha nafar edi?
- 19.** Qushlar galasi uchib kelayotgan edi. Oldida bitta qush, orqasida ikkita qush. Orqada bitta qush, oldida ikkita qush. O'rtada bitta qush, oldida bitta qush va orqasida bitta qush. Qushlar galasida hammasi bo'lib nechta qush bor edi?
- 20.** Birdan yuzgacha bo'lgan sonlar ichida qaysilarining oyog'ini osmonga qilib aylantirilsa ham qiymatlari o'zgarmaydi?
- 21.** Uchta yog'ochning nechta uchi bor? Beshta yog'ochning-chi? Besh yarimta yog'ochning-chi?
- 22.** 188 ni ikkiga bo'lib, 100 hosil qila olasizmi?
- 23.** 3 ta cho'p stol ustiga qator qilib terilgan. O'rtadagi cho'pga tegmasdan, uni o'rtadan yo'qotish mumkinmi?
- 24.** Stol ustida ikkita cho'p bor. Sindirmasdan ular yordamida kvadrat hosil qila olasizmi?
- 25.** Stol ustida bitta cho'p bor. Sindirmasdan uning yordamida uchburchak hosil qilish mumkinmi?

16. Ikkalik avtomobil Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘yicha 300 km yo‘l bosdi. Agar ikkala avtomobilning tezligi tonda 60 km bo‘lsa, ularning har biri necha kilometr yo‘l yurgan?
17. 1 kg paxta og‘irmi, 1 kg temirmi?
18. Qachon 12 m ko‘rib 24 deymiz?
19. Ikkalik ota o‘z o‘g‘illariga pul berishdi. Birinchi ota o‘z o‘g‘illi 10 tanga, ikkinchi ota o‘z o‘g‘liga 5 tanga berdi. Lekin o‘sillor pullarini birgalikda sanashsa, 10 tanga chiqdi. Shu to‘p’ummi?
20. Olti yoqlig qalamda nechta yoq bor?
21. Birinchi terakda 9 ta, ikkinchisida esa undan 5 ta ko‘p olma bor edi. Ikkala daraxtda nechta olma bor?
22. Samiyot‘ochning birinchi simida 4 ta, ikkinchisida 3 ta quyon bor edi. Hamma quyonlar nechta?
23. Suratlari maxrajidan kichik bo‘lgan kasr suratlari maxrajidan kichik bo‘yan kasrga teng bo‘lishi mumkinmi?
24. 10 metli zanjirga bog‘langan it bir yo‘nalish bo‘yicha 100 metri manotaga yugurib borishi mumkinmi?
25. Turv ostida turib gugurt yoqish mumkinmi?
26. 10 metrburchakning bir burchagini to‘g‘ri chiziq bo‘ylab hamborishdi, shakl nechta burchakli bo‘lib qoladi?
27. 15 metrburchakning bir burchagini to‘g‘ri chiziq bo‘ylab hamborishdi, shakl nechta burchakli bo‘lib qoladi?
28. 40 ta deraza oynasini yuvishga 6 soat vaqt sarflansa, shundan shunday o‘lchamdagagi 10 ta ko‘zgu oynasini yuvishga qancha vaqt sarflanadi?
29. 4 ta tosh olib sinf xonasining o‘rtasida turing va bo‘r yordamida o‘zingiz sig‘adigan qilib aylana chizing. Shu aylana o‘sidiham chiqmasdan xona burchaklariga bittadan tosh rotmasdan) qo‘yib chiqa olasizmi?
30. Toshbaqa ertalab 17 metrli qumli chuqurlikka tushib keldi. U har gal kunduzi 5 metr tepaga ko‘tarilib, kechasi

2 metr pastga sirg‘alib tushadi. Toshbaqa necha kundan keyin chuqurlikdan chiqib oladi?

**41.** 1-qavatdan 3-qavatga chiqish uchun 36 ta zina bosib o‘tildi. 6-qavatgacha yana nechta zinaga ko‘tarilishi kerak?

**42.** 12 metrli arqonni teng ravishda uch joyidan kesilsa, har bir bo‘lagining uzunligi qanchadan bo‘ladi?

**43.** Zinapoya bo‘ylab 1-qavatdan 9-qavatgacha bo‘lgan masofa 1-qavatdan 3-qavatgacha bo‘lgan masofadan necha marta uzun?

**44.** 2 nafar ishchi 2 soatda 2 ta o‘yinchoq yasadi. 4 nafar ishchi 4 soatda nechta shunday o‘yinchoq yasaydi?

**45.** 2 nafar ishchi 2 soatda 2 ta o‘yinchoq yasadi. 6 nafar ishchi 6 soatda nechta shunday o‘yinchoq yasaydi?

**46.** Choyga solingan shakarni qaysi qo‘lda aralashtirish oson?

**47.** Zamira 7 yoshda, akasi Botir undan 4 yosh katta. 3 yildan keyin Botir Zamiradan necha yosh katta bo‘ladi?

**48.** Ota bozordan 12 ta olma sotib oldi. Ularni ikki o‘g‘li va bir qiziga teng bo‘lib berdi. Ota har bir o‘g‘li va qiziga nechtadan nok bergen?

**49.** 2 ta tovuq 2 kunda 2 ta tuxum qilsa, 100 ta tovuq 100 ta tuxumni necha kunda qilishi mumkin?

**50.** Sinfdag‘i 30 nafar o‘quvchidan faqat 15 nafari yomg‘irda ho‘l bo‘lmaslik uchun maktabga zontigini olib kelishdi. Lekin maktabdan uylariga yetib borguncha hech kim ho‘l bo‘lmadi. Nima uchun?

**51.** 5 dan 2 ni ayirsa, 0 qolishi mumkinmi?

**52.** 7 dan 2 ni ayirsa, 2 qolishi ham mumkinmi?

**53.** 12 dan 2 ni ayirsa, 2 qolishi ham mumkinmi?

**54.** 12 sonini 2 ga bo‘lib, 7 sonini hosil qiling.

**55.** 20 dan 22 ni ayirib, 88 sonini hosil qiling.

**56.** 9 ta cho‘pdan 3 tasining har biri 3 bo‘lakka bo‘linsa, jami cho‘plar nechta bo‘ladi?

**57.** 3 ta mushuk 3 ta sichqonni tutishga 3 minut sarflasa, 10 ta mushuk 30 ta sichqonni tutish uchun qancha vaqt surʼaydi?

**58.** Ikkidan katta, lekin uchdan kichik son hosil qilish uchun 2 va 3 orasiga qanday belgi qoʼyish kerak?

**59.** Qanday idishdan ovqat yeb boʼlmaydi?

**60.** Shokir amaki ishga shoshilib, soyabon va bosh kiyimini uyda qoldirib ketdi. Birdan kuchli yomgʼir yogʼib, hamma kiyimi jiqlqa hoʼl boʼldi. Ammo boshidagi bitta ham sochi hoʼl boʼlmadi. Nima uchun?

**61.** 8 ni ikkiga boʼlib, 4 dan boshqa sonni hosil qila olasizmi?

**62.** Soatlarning faqat ikkitasi vaqtini toʼgʼri koʼrsatmoqda. Qolpan soatlar yoki oldinda, yoki orqada qolmoqda. Ularning koʼratishi quyidagicha: 9:25, 6:15, 9:30, 4:10, 18:15, 10:10, 19:15, 11:25, 12:30. Hozir soat necha boʼldi?

## CHO·PLAR BILAN MASHQLAR

**63.** Sindirmasdan 2 ta cho‘pdan 5 sonini hosil qila olasizmi? 10 sonini-chi? (Ushbu va keyingi mashqlarda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan cho‘plar olinadi.)

**64.** Sindirmasdan 3 ta cho‘pdan 4 sonini hosil qila olasizmi? 6, 9 va 11 sonlarini-chi?

**65.** Sindirmasdan 4 ta cho‘pdan 7 sonini hosil qila olasizmi? 12, 15 va 20 sonlarini-chi?

**66.** 5 ta cho‘pdan qaysi sonlarni yoza olasiz?

**67.** Menda 3 ta cho‘p bor (1-rasm). Ularga yana ikkita cho‘p qo‘shsam, sakkiz bo‘ladi. Bu mumkinmi?



1-rasm.



2-rasm.

**68.** 5 ta cho‘p bor (2-rasm). Ularga yana 4 ta cho‘p qo‘shsam 100 bo‘ladi. Bu mumkinmi?

**69.** 5 ta cho‘p bor (3-rasm). Ularga yana 5 ta cho‘p qo‘shsam 100 bo‘ladi. Bu mumkinmi?



3-rasm.

4-rasm.

**70.** Cho‘plarga tegmasdan va ularni bir-biriga nisbatan joyini o‘zgartirmasdan tenglikni tuzating (4-rasm).

**71.** 1 ta cho‘pning o‘mini o‘zgartirib, tenglik hosil qiling (5-rasm).



5-rasm.



6-rasm.

**72.** 1 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 1 soni hosil bo‘lsin (6-rasm).

73. 1 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, tenglik saqlansin (7- va 8-rasmlar).

$$| + || = ||| \quad ||| - || = |$$

7-rasm. . . . .      8-rasm.

74. 1 ta cho‘pning o‘mini o‘zgartirib, tenglikni tuzating (9 rasm).

$$|| + || = || \quad \text{VII} - || = ||$$

9-rasm. . . . .      10-rasm.


75. 2 ta cho‘pning joylashishini o‘zgartirib, tenglikni tuzating (10-rasm). Mashqni ikki usulda bajaring.

76. 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, liburchaklar soni 3 ta bo‘lib qolsin (11-rasm).

77. 3 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, liburchaklar soni 2 ta bo‘lib qolsin (11-rasm).



11-rasm.



12-rasm.

78. 6 ta kvadrat berilgan (12-rasm). Shunday 1 ta cho‘pni olib tashlangki, 4 ta kvadrat qolsin.

79. 6 ta kvadrat berilgan (12-rasm). Shunday 3 ta cho‘pni olib tashlangki, 3 ta bir xil kvadrat qolsin.

80. 6 ta kvadrat berilgan (12-rasm). Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, 3 ta kvadrat qolsin.

81. 5 ta kvadrat berilgan (13-rasm). Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, 4 ta kvadrat qolsin.

**82.** 5 ta kvadrat berilgan (13-rasm). Shunday 4 ta cho'pni olib tashlangki, 3 ta kvadrat qolsin.

**83.** 3 ta cho'pning o'rnini shunday o'zgartiriringki, natijada 4 ta kvadrat qolsin (13-rasm).



13-rasm.



14-rasm.

**84.** 2 ta cho'pning o'rnini o'zgartirib, 5 ta kvadratdan 4 ta kvadrat yasang (14-rasm).

**85.** 2 ta cho'pning o'rnini o'zgartirib, 6 ta kvadrat hosil qiling (14-rasm).

**86.** 2 ta cho'pni qo'shimcha qo'yib, 7 ta kvadrat hosil qiling (14-rasm).

**87.** 4 ta cho'pni qo'shimcha qo'yib, 9 ta kvadrat hosil qiling (14-rasm).

**88.** 6 ta cho'pni qo'shimcha qo'yib, 11 ta kvadrat hosil qiling (14-rasm).

**89.** 10 ta cho'pdan 3 ta kvadrat yasang.

**90.** 11 ta cho'pdan 3 ta kvadrat yasang.

**91.** 12 ta cho'pdan 3 ta kvadrat yasang.

**92.** 12 ta cho'pdan 4 ta teng tomonli uchburchak yasang.



**93.** 11 ta cho'pdan 4 ta teng tomonli uchburchak yasang

**94.** 10 ta cho'pdan 4 ta teng tomonli uchburchak yasang.

**95.** 9 ta cho'pdan 4 ta teng tomonli uchburchak yasang.

**96.** 9 ta cho'pdan 5 ta teng tomonli uchburchak yasang.

**97.** 6 ta cho'pdan 4 ta teng tomonli uchburchak yasang.


- 98.** 6 ta cho‘pdan 5 ta kvadrat yasang.
- 99.** 10 ta cho‘pdan necha xil to‘g‘ri to‘rtburchak yasash mumkin?
- 100.** 12 ta cho‘pdan necha xil to‘g‘ri to‘rtburchak yasash mumkin?
- 101.** 14 ta cho‘pdan necha xil to‘g‘ri to‘rtburchak yasash mumkin?
- 102.** 2 ta cho‘pni olib tashlab, 2 ta kvadrat qoldiring (15 rasm).
- 103.** 2 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 7 ta kvadrat hosil qiling (15-rasm).
- 104.** 2 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 9 ta kvadrat hosil qiling (15-rasm).
- 105.** 3 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 3 ta bir xil kvadrat hosil qiling (15-rasm).
- 106.** 4 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 3 ta bir xil kvadrat qolsin (15-rasm).
- 
- 15-rasm.
- 
- 16-rasm.
- 107.** 2 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 6 ta kvadrat hosil qiling (16-rasm).
- 108.** 2 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 8 ta kvadrat hosil qiling (16-rasm).
- 109.** 10 ta chopdan kalit yasalgan. 4 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 3 ta kvadrat hosil qiling (17-rasm).
- 110.** 6 ta bir xil kvadrat berilgan. Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 4 ta bir xil kvadrat qolsin (18 rasm).
- 111.** 2 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 9 ta kvadrat hosil qiling (18-rasm).



17-rasm.



18-rasm.




**112.** 4 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 11 ta kvadrat hosil qiling (18-rasm).


**113.** 6 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 14 ta kvadrat hosil qiling (18-rasm).

**114.** Shunday 4 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (19-rasm).

**115.** Shunday 6 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 4 ta kvadrat qolsin (19-rasm).



19-rasm.



20-rasm.


**116.** 11 ta kvadrat berilgan. 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 7 ta kvadrat qolsin (20-rasm).

**117.** Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada bir xil kvadratlar soni 6 ta bo‘lib qolsin (20-rasm).

**118.** 2 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 14 ta kvadrat hosil qiling (20-rasm).

**119.** 7 ta kvadrat berilgan. Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (21-rasm).

**120.** 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 11 ta kvadrat hosil bo‘lsin (21-rasm).



21-rasm.



22-rasm.

121. 1 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 10 ta kvadrat hosal qiling (21-rasm).

122. 2 ta cho‘pni qo‘sishimcha qo‘yib, 14 ta kvadrat hosal qiling (21-rasm).

123. 8 ta kvadrat berilgan. Shunday 1 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (22-rasm).

124. Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 4 ta kvadrat qolsin (22-rasm).

125. 8 ta kvadrat berilgan. Shunday 5 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 3 ta kvadrat qolsin (22-rasm).

126. 3 ta cho‘pni olib tashlab, 4 ta kvadrat qoldiring (22 rasm).

127. 4 ta cho‘pni olib tashlab, 3 ta kvadrat qoldiring (22 rasm).

128. 5 ta cho‘pni olib tashlab, 5 ta kvadrat qoldiring (22 rasm).


129. 2 ta cho‘pni olib tashlab, 6 ta kvadrat qoldiring (22 rasm).

130. 3 ta cho‘pni olib tashlab, 2 ta kvadrat qoldiring (22 rasm).


131. 5 ta bir xil kvadrat berilgan. 1 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 6 ta bo‘lib qolsin (23-rasm). Mashqni ikki usulda bajaring.

132. 3 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada bir xil kvadratlar soni 4 ta bo‘lib qolsin (23-rasm).

133. 1 ta cho‘pni olib tashlab, 1 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 6 ta bo‘lib qolsin (23-rasm).



23-rasm.



24-rasm.

**134.** 14 ta kvadrat berilgan. Shunday 4 ta cho'pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (24-rasm).

**135.** Shunday 6 ta cho'pni olib tashlangki, natijada kvadratlar soni 4 ta bo'lib qolsin (24-rasm).

**136.** Shunday 8 ta cho'pni olib tashlangki, natijada 4 ta kvadrat qolsin (ikki usulda bajaring) (24-rasm).

**137.** 8 ta cho'pni olib tashlab, 2 ta kvadrat hosil qiling (24-rasm).

**138.** Shunday 2 ta cho'pni olib tashlangki, natijada 7 ta kvadrat qolsin (24-rasm).

**139.** 11 ta kvadrat berilgan. Shunday 4 ta cho'pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (25-rasm).


**140.** 3 ta cho'pni olib tashlab, 7 ta kvadrat qoldiring (25-rasm). Mashqni ikki usulda bajaring.

**141.** Shunday 2 ta cho'pni olib tashlangki, natijada 6 ta kvadrat qolsin (25-rasm).

**142.** 4 ta cho'pni olib tashlab, 6 ta kvadrat qoldiring (25-rasm).

**143.** 4 ta cho'pni olib tashlab, 5 ta kvadrat qoldiring (25-rasm). Mashqni ikki usulda bajaring.

**144.** 4 ta cho'pni olib tashlab, 4 ta kvadrat qoldiring (25-rasm).



25-rasm.



26-rasm.

145. 7 ta kvadrat berilgan. Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 4 ta bir xil kvadrat qolsin (26-rasm).

146. Shunday 4 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 3 ta kvadrat qolsin (26-rasm).

147. 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, bir xil kvadratlar soni 5 ta bo‘lib qolsin (26-rasm).

148. 4 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 5 ta bo‘lib qolsin (26-rasm).


149. 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 5 ta bo‘lib qolsin (26-rasm). Mashqni ikki usulda bajaring.

150. 10 ta kvadrat berilgan. Shunday 4 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 5 ta kvadrat qolsin (27-rasm).


151. 4 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 6 ta bo‘lib qolsin (27-rasm).

152. Shunday 3 ta cho‘pni olib tashlangki, 4 ta kvadrat qolsin (27-rasm).

153. 3 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, qo‘sishimcha 1 ta cho‘pni shunday qo‘yingki, natijada kvadratlar soni 11 ta bo‘lib qolsin (27-rasm).



27-rasm.



28-rasm.

154. 10 ta kvadrat berilgan. Shunday 3 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 5 ta bir xil kvadrat qolsin (28 rasm).

155. Shunday 2 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 6 ta kvadrat qolsin (28-rasm).

**156.** Shunday 3 ta cho‘pni olib tashlangki, natijada 6 ta kvadrat qolsin (28-rasm)

**157.** 1 ta cho‘pni olib tashlab, 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada kvadratlar soni 11 ta bo‘lib qolsin (28-rasm).

**158.** 3 ta bir xil kvadrat berilgan (29-rasm). 5 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 2 ta kvadrat hosil bo‘lsin.

**159.** 3 ta cho‘pning joyini o‘zgartirib, 5 ta kvadrat hosil qiling (29-rasm).



29-rasm.



30-rasm.

**160.** 4 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, natijada 5 ta kvadrat hosil bo‘lsin (30-rasm).


**161.** 16 ta cho‘pdan 4 ta kvadrat yasalgan. Shu cho‘plardan 5 ta kvadrat yasay olasizmi (31-rasm)?




31-rasm.

**162.** 2 ta cho‘pning joyini o‘zgartirib, 3 ta kvadrat hosil qiling (32-rasm).


**163.** 3 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 3 ta kvadrat hosil qiling (33-rasm).



32-rasm.



33-rasm.




34-rasm.

164. Shunday 4 ta cho'pni olib tashlangki, 5 ta liburchak qolsin (34-rasm).

165. Shunday 3 ta cho'pni olib tashlangki, 6 ta liburchak qolsin (34-rasm).

166. Saroy 11 ta cho'pdan yasalgan. 2 ta cho'pning rnini shunday o'zgartiringki, 11 ta kvadrat hosil bo'lsin (35 rasm).

167. 6 ta cho'pning o'rmini o'zgartirib, uycha yasang (36 rasm).



35-rasm.



36-rasm.



37-rasm.

168. 11 ta cho'pdan uycha yasalgan. 4 ta cho'pning rnini o'zgartirib, 15 ta kvadrat hosil qiling (37-rasm).

169. 2 ta cho'pning o'rmini shunday o'zgartiringki, chap tomonga qaragan uy o'ng tomonga qarab qolsin (38 rasm).


170. 3 ta cho'pning o'rmini shunday o'zgartiringki, chap tomonga qaragan uy o'ng tomonga qarab qolsin (39 rasm).



38-rasm.



39-rasm.



40-rasm.

171. 3 ta cho'pning joyini shunday o'zgartiringki, chap tomonga ketayotgan kuchukcha o'ng tomonga ketayotgan bo'lib qolsin (40-rasm).

172. 2 ta cho'pning joyini o'zgartirib, kuchukchani orqa tomonga qarating (40-rasm).

**173.** 3 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, tepaga qarab ketayotgan qisqichbaqa pastga qarab ketayotgan bo‘lib qolsin (41-rasm).



41-rasm.




42-rasm.


**174.** 2 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, chap tomonga qarab suzayotgan baliq tepaga qarab suzsin (42-rasm).

**175.** 3 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, chap tomonga qarab suzayotgan baliq o‘ng tomonga qarab suzsin (42-rasm).

**176.** 43-rasmdagi shakl 6 ta cho‘p yordamida yasalgan. Odil 2 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, 44-rasmdagi shakllarni hosil qilmoqchi bo‘ldi. U 2 ta cho‘pning o‘rnini o‘zgartirib, keltirilgan barcha shakllarni yasay oladimi?



43-rasm.



44-rasm.


177. 45-rasmda cho'plar yordamida barcha raqamlar hosil qilingan. Ular orasidan shunday raqamni topingki, 15 ta cho'pdan hosil qilingan bu raqamning bir nechta yig'indisi eng katta bo'lsin?



45-rasm.

178. 46-rasmda keltirilgan shakldagi 1 ta cho'pning o'mini shunday o'zgartiringki, natijada 3 ta kvadrat hosil bo'lsin.

179. 46-rasmda keltirilgan shakldagi 1 ta cho'pning o'rnini shunday o'zgartiringki, natijada 6 ta kvadrat hosil bo'lsin.




46-rasm.

180. 46-rasmda keltirilgan shakldagi 6 ta cho'pning o'mini shunday o'zgartiringki, natijada 6 ta kvadrat hosil bo'lsin.

181. 46-rasmda keltirilgan shakldagi 6 ta cho'pning o'rnini o'zgartirib, 5 ta bir xil kvadratni necha xil usulda hosil qila olasiz?


182. 47-rasmdagi kvadratlar sonini 11 taga yetkazish uchun yana nechta cho'p kerak?



47-rasm.

## MANTIQIY MASHQLAR

**183.** Aziz, Fotima va Shahnoza bittadan shakl chizdilar (48-rasm). Aziz va Fotima chizgan ikkala shaklning tomonlari soni bir xil. Nodira va Shahnoza chizgan ikkala shakl teng tomonli (hamma tomonlari uzunligi bir xil). Kim qaysi shaklni chizgan?



48-rasm.

**184.** Nargiza, Nigora va Nodir do'kondan bittadan narsa sotib oldilar. Ularning olgan narsalari: bitta daftар, bitta ruchka va bitta qalam. Nargiza daftар olmagan, Nigora daftар va ruchka olmagan. Do'kondan kim nima sotib olgan?

**185.** 3 yildan keyin Baxtiyor 14 yoshda bo'ladi. 5 yil avval Baxtiyor necha yoshda bo'lgan?

**186.** 4 yil avval Anvar 7 yoshda edi. 6 yildan keyin Anvar necha yoshda bo'ladi?

**187.** Eng katta ikki xonali son eng kichik uch xonali sondan qancha kam?

**188.** O'rdak g'ozdan 3 kg yengil, tovuqdan esa 2 kg og'ir. G'oz tovuqdan necha kilogramm og'ir?

**189.** Erkin, Avaz, Shavkat va Shuhrat velosipedda sayr qildilar. Ulardagi to'rtta velosipedning jami g'ildiraklari soni 10 ta. Velosipedlardan nechtaşı ikki g'ildirakli va nechtaşı uch g'ildirakli?

**190.** Olmaxon seshanba kuni dushanba kuniga qaraganda 3 ta ko'p yong'oq keltirdi. Shu ikki kunda hammasi bo'lib 19 ta yong'oq keltirgan bo'lsa, dushanba kuni nechta yong'oqni iniga tashib keltirgan?

191. Azizada qizil va ko'k rangdagi qalamlar soni bixgalikda nechta bo'lса, yashil rangdagi qalamlar soni shuncha. Agar qizil qalamlar 3 ta, yashil qalamlar 7 ta bo'lса, ko'k qalamlar nechta?

192. Oilada 3 nafar farzand bor. Ulardan 2 nafari o'g'il, 1 nafari qiz bola. Birinchi va ikkinchi farzandlaridan biri o'g'il bola. Ikkinchi va uchinchi farzandlaridan biri ham o'g'il. Farzandlardan nechanchisi qiz bola?

193. Bobirda 15 ta daftor bor edi. U daftarlarning bir qismini singlisiga berganda, o'zida qolgan daftarlar singlisiga berigan daftarlar sonidan 3 ta ortiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Hobir singlisiga nechta daftar bergen?

194. Sherzod Bekzoddan 7 sm baland, Zafardan esa 8 sm past. Bolalardan eng balandi qaysi biri? Eng pasti-chi? Ho'yи eng baland bola eng past boladan necha santimetr baland?

195. Shohidada 1 000 so'm bor edi. U qancha sarflagan bo'lса, shuncha puli qoldi. Shohidada necha so'm qoldi?

196. Gulnoza va Gulchehraning har birida 4 tadan atirgul bor. Gulnoza va Gulnoraning har birida 3 tadan chinnigul bor. Chiylardagi jami atirgullar 10 ta, chinnigullar 11 ta bo'lса, qizlarning har birida nechta atirgul va nechta chinnigul bor?

197. Savatda jami 14 ta olma, nok va anor bor. Olmalar soni noklar sonidan 3 ta ortiq. Noklar anorlar sonidan 1 ta ortiq. Savatda nechta olma, nechta nok va nechta anor bor?

198. Uchta guldonda jami 21 ta atirgul bor. Birinchi va ikkinchi guldonda 16 ta, birinchi va uchinchi guldonda 12 ta atirgul bor. Har bir guldonda nechta atirgul bor?

199. 7 ta tovuqning oyoqlari soni 3 ta qo'yning oyoqlari sonidan nechta ortiq?

200. Do'konga konfet va pecheniy keltirildi. Konfet va pecheniyning bixgalikdagi og'irligi konfetning og'irligidan 24 kg ortiq, pecheniyning og'irligidan esa 18 kg ortiq. Bozorga niha kilogramm konfet va necha kilogramm pecheniy keltirilgan?

**201.** Sobir va uning otasi birgalikda 45 yosh, Sobir va uning onasi birgalikda 42 yosh, Sobir, otasi va onasi birgalikda esa 77 yosh. Ularning har biri necha yoshda?

**202.** Birinchi bidonda 37 litr, ikkinchisida esa 29 litr sut bor. Ulardagi sut bir xil bo‘lishi uchun birinchi bidondan necha litr olib ikkinchisiga quyish kerak?



**203.** Furqat va uning singlisida 12 tadan daftar bor edi. Furqat daftarlardan 3 tasini singlisiga berdi. Furqatdagи daftarlар singlisinikidan nechta kam bo‘lib qoldi?

**204.** Bir qatorga olma, olxo‘ri va gilos ko‘chatlari ekildi. Olma bilan olxo‘ri orasidagi masofa 6 m, olxo‘ri bilan gilos orasi esa 3 m. Olma bilan gilos orasi eng kamida necha metr bo‘lishi mumkin?

**205.** Surayyoning qo‘g‘irchog‘i uchun onasi 3 xil kofta va 2 xil yupka tikdi. Surayyo shu kofta va yupkalardan foydalanib, qo‘g‘irchog‘ini necha xil usulda kiyintirishi mumkin?

**206.** Farhod, Furqat, Shavkat va Shuhrat to‘rt qavatlар uyning turli qavatlарida yashashadi. Farhod Furqatdan yuqori qavatda, lekin Shavkatdan pastki qavatda turadi. Shuhrat esa Furqatning tepasidagi qavatda yashaydi. Bolalarning har biri qaysi qavatda yashaydi?

**207.** Qalamni qog‘ozdan uzmasdan har bir shaklning barcha chiziqlari ustidan yurgizib chiqa olasizmi (49-rasm)?



49 rasm

**208.** 6 ta vazanining har birida 2 ta qizil va 4 ta sariq olma bor. Vazalarga hammasi bo‘lib nechta olma qo‘yilgan?

**209.** 26 ta atirgul sotib olindi. Ulardan 5 tasini guldonga solib qo'yildi. Qolganlaridan 3 ta bir xil guldasta qilindi. Har bir guldastada nechtadan atirgul bor?

**210.** Savatda 20 ta nok bor edi. Ularni 2 nafar o'g'il bolaga va 3 nafar qiz bolaga bir xilda bo'lib berildi. Bolalarning har biriga nechtadan nok berilgan?

**211.** 5 ta qalamni 3 ta qalamdonga necha xil tartibda solish mumkin? Masalan, bиринчи тартиб: 1-qalamdonga – 1 ta, 2-qalamdonga – 1 ta, 3-qalamdonga – 3 ta, ya'ni: 1, 1, 3 тартибда; иккинчи тартиб: 1-qalamdonga – 1 ta, 2-qalamdonga – 3 ta, 3-qalamdonga – 1 ta, ya'ni: 1, 3, 1 тартибда.

**212.** 6 ta qalamni 3 ta qalamdonga necha xil tartibda solish mumkin?

**213.** 7 ta qalamni 3 ta qalamdonga necha xil tartibda solish mumkin?

**214.** Oilada 2 nafar ota, 2 nafar ona, 2 nafar o'g'il va 2 nafar qiz bor. Bu oilada eng kamida necha nafar kishi bo'lishi mumkin.

**215.** Dasturxonda olma, nok, anor va apelsinlar bor. Noklar soni apelsinlar sonidan ko'p, lekin olmalor sonidan kam. Apelsinlar esa anorlar sonidan ko'p. Hamma mevalar soni 10 ta bo'lsa, dasturxonga har bir meva turidan nechta qo'yilsan.

**216.** Shunday ikki xonali son topingki, uning raqamlari 10 indisi sonning o'zidan 9 marta kichik bo'lsin.

**217.** Uch dugona – Aziza, Laziza va Hafiza bir yilda, lekin biri faslda – bahor, yoz va kuzda tug'ilishgan. Aziza Lazizadan katta emas, Hafiza Azizadan katta emas. Qaysi qiz qaysi faida tug'ilgan?

**218.** 2 ta qalamni 5 ta g'aladonga necha xil usulda solish mumkin. Har bir g'aladonga solingenan qalam bittadan ortiq bo'lmasin.

**219.** *Qadimiy masala.* Podshoning ajoyib bog‘i bor ekan. Podshoni davolagan tabib xizmati evaziga bor-yo‘g‘i bog‘dagi olmalardan bir donasini olishga ruxsat so‘rabdi. Podsho ruxsat beribdi. Bog‘ uchta devor bilan o‘ralgan bo‘lib, bog‘ga kirish uchun uchta eshikdan o‘tishi kerak ekan. Tabib bog‘ga kirish uchun bиринчи eshikdan o‘tayotganda qorovul: «Bu eshikdan qaytib chiqishingda qo‘lingdagi olmalardan yarmisini menga qoldirasan», debdi.

Ikkinci va uchinchi eshikdan kirishda u yerda turgan ikkala qorovul ham bиринчи qorovul aytgan gapni qaytarishibdi.

Tabib bitta olmani qiziga olib borishi uchun u bog‘dan nechta olmani olishi kerak?

**220.** Sinfda 35 nafar o‘quvchi o‘qiydi. O‘quvchilarga matematika va ingliz tili to‘garagiga yozilish taklif etildi. Har bir to‘garakka 12 nafardan o‘quvchi yozildi. O‘quvchilardan 7 nafari ikkala to‘garakka yozilgan bo‘lsa, sinfdagi necha nafar o‘quvchi hech bir to‘garakka yozilmagan?

**221.** Daryo bo‘yiga 3 nafar dev keldi. Har bir devning 1 nafardan xizmatkori bor. Devlar va ularning xizmatkorlari qayiqda daryodan o‘tib olishlari kerak. Lekin qayiqqa ikki nafardan ortiq jonzot chiqishi mumkin emas. Bir devning xizmatkori o‘z xo‘jayinisiz boshqa devlar bilan qayiqqa chiqishi yoki qirg‘oqda qolishi mumkin emas. Chunki xizmatkorni boshqa devlar yeb qo‘yadi. Devlar va xizmatkorlarning hammasi qanday qilib eson-omon daryodan o‘tib olishlari mumkin?

**222.** Likopchada olma, nok va apelsin bor. Likopchadan ularni necha usulda olish mumkin? Mevalarni oldinma-ketin faqat bittadan olish mumkin.

**223.** Besh nafar o‘quvchi yugirish musobaqasida qatnashdilar. Finishga Yusuf Yunusdan, Ergash Yo‘ldoshdan, Rustam Yusufdan oldin keldi. Rustam finishga Yo‘ldoshdan keyin kelgan bo‘lsa, har bir o‘quvchi finishga qanday ketma-ketlikda yetib kelgan?

224. a) Qo'shiluvchilardan biri 8 ta orttirilsa, yig'indi qanday o'zgaradi?

b) Ayriluvchi 8 ta kamaytirilsa, ayirma qanday o'zgaradi?

c) Ko'payuvchi 4 marta orttirilsa, ko'paytma qanday o'zgaradi?

d) Bo'lувчи 3 marta kamaytirilsa, bo'linma qanday o'zgaradi?

225. Bunyod ko'pboshli ajdaho bilan jang qilibdi. Bunyod burchi urishida ajdahoning boshlaridan yarmisini uzibdi. Uning o'rniga 3 ta bosh o'sib chiqibdi. Ikkinchi galda 1 ta boshini olgan ekan, uning o'miga 4 ta bosh o'sib chiqibdi. Bunyod uchinchi hamlasida ajdohoning 6 ta boshini uzib, jangda g'olib bo'libdi. Ajdahoning dastlab nechta boshi bo'lgan?

226. Ra'no, Barno, Zahro, Laylo va Donoda jami 15 ta gul bor. Har bir qizdag'i gullar har xil toq sondadir. Laylodagi gullar soni Barnodagi gullar sonidan 3 marta ko'p, lekin Zahrodagi gullardan 2 ta kam. Ra'nodagi gullar soni Donodagi gullardan ko'p. Har bir qizda nechta gul bor.

227. Supermarketda mevalardan olma, nok, anor, uzum, sabzavotlardan kartoshka, pomidor va sabzi bor. 1 kg olmaning narxi 2 ming so'm. 1 kg kartoshka va 1 kg pomidor burchalikda qancha bo'lsa, 1 kg anorning narxi ham shuncha. Kartoshka va sabzi bir xil narxda. 4 kg sabzi qancha bo'lsa, 1 kg uzumning narxi shuncha. Pomidor kartoshkadan, uzum olmadan 2 marta qimmat. Mevalarning birgalikdagi narxi sabzavotlarning birgalikdagi narxidan 3 marta ortiq. Har bu meva va sabzavotning narxi qancha?

228. Bolalar futbol o'ynab, deraza oynasini sindirishdi. Uy qasi chiqib, kim sindirganini so'radi. Ali oynani Vali sindirganini, Vali esa Soli sindirganini aytdi. Soli esa deraza oynasini o'zi sindirganini aytdi. Uchala bolaning gapi yolg'on bo'lsa, oynani kim sindirgan?

**229.** Ikki ota va ikki o'g'il kioskadan bittadan gazeta sotib olishdi, lekin uyga uchta gazeta olib kelishdi. Nima uchun?

**230.** O'rmonga o't ketib, yong'in egallagan maydon har bir soatda ikki marta ortib bormoqda. Bunday yonishda 8 soatda butun o'rmon yonib bo'lishi mumkin. O'rmonning yarmisi necha soatda yonib bo'lishi mumkin?

**231.** Maktabda o'tkazilgan bayramda jami 100 kishi qatnashdi. Bayramda qatnashgan o'quvchilar soni ota-onalar sonidan ikki marta ortiq, ota-onalar soni esa o'qituvchilar sonidan uch marta ortiq. Bayramda necha nafar o'quvchi necha nafar ota-ona va necha nafar o'qituvchi qatnashgan?


**232.** Devorga rangli plitkalar quyidagi tartibda yopish-tirilmoqda: ko'k, sariq, yashil, qizil va yana boshidan ko'k, sariq, yashil, qizil va hokazo. 27-plitka qaysi rangda bo'ladi?

**233.** 0, 5 va 8 raqamlarini qo'llab, necha xil uch xonal sonni yozish mumkin?

**234.** 1 dan 8 gacha bo'lgan 8 ta sonni to'rttadan qilib ikkita qutiga solindi. Ikkala yashikdag'i sonlar yig'indisi bir-biriga teng. Agar birinchi yashikda 1 va 3 sonlari bo'lsa, shu qutidagi yana ikkita sonni toping.

**235.** 1 tadan 6 tagacha nuqtalari bo'lgan standart o'yin kubigining qarama-qarshi tomonlaridagi jami nuqtalar soni 7 ga teng. 50-rasmdagi 1-kubikning uchta tomonidagi nuqtalar sonini bilgan holda boshqa uchta tomonidagi nuqtalar sonini aniqlash mumkin. Rasmida 4 ta standart o'yin kubig'i

o'zaro bir xil tomonlari bilan qo'yilgan. 3 ta kubikning yuqoriga qaragan tomoni oq rangga bo'yab qo'yilgan. To'rttala kubikning bo'yalgan va ko'rinnmaydigan har bir tomonidagi nuqtalar sonini toping.



**236.** Qizchaning og'irligi 24 kg

U mushugi bilan birga tortilsa, tarozi 26 kg 500 g ni ko'rsatadi. Agar quyonini qo'liga olsa, qizcha 27 kg bo'lib qoladi. Mushuk bilan quyon birga necha kilogramm?

2.37. Avaz Ismatdan 2 yosh-u 2 kunga katta. Ismat 2000-yil 2 yanvarda tug‘ilgan. Avazning tug‘ilgan kunini toping.

2.38. Qo‘ylar bilan tovuqlarning soni teng. Ularning nymog‘lari soni jami nechta bo‘lishi mumkin?

- a) 14 ta; b) 20 ta; d) 28 ta; e) 42 ta; f) 56 ta.

2.39. Sarvar mактабда о‘qиyди. Uning yoshidagi raqamlar 100 almасhtirilsа, uning 40 dan katta, lekin 50 dan kichik son hosil bo‘ladi. Bu son Sarvarning otasi yoshini bildiradi. Sarvar otasidan necha yosh kichik?

2.40. Chumoli Toshbaqanining ustida 36 minut yurdi. Keyin Qо‘ng‘izning ustiga chiqib, 4 marotaba ko‘p masofani bosib o‘tdi. Qо‘ng‘iz Toshbaqadan 8 marotaba tez yurishi ma’lum bo‘la, chumoli Toshbaqa ustida necha minut yurgan?

2.41. Rashid, Fahriddin, Lola, Kumush va Anvar to‘garak moshg‘ulotiga kelishdi. Rashid Loladan, Fahriddin Kumushdan keyin keldi. Kumush ikkinchi bo‘lib keldi. O‘quvchilar qanday ketma-ketlikda kelganlarini toping.

2.42. Olmaxon 10 ta yong‘oqni ekkan edi, ikkitadan buhpu i hammasi o‘sib chiqdi. Bu yil ikkitadan tashqari yong‘oqlar mevaga kirdi. Bittadan tashqari hammasining mevasi mazali. Mazali yong‘oqlar sonini toping.

2.43. Akmal 6 ta ketma-ket keladigan juft sonlarni yozdi. Akmal diqqat bilan qarasa, birinchi yozilgan son oxirgisidan ikki marta kichik ekan. Bu sonlar qanday sonlar?

2.44. Yakshanba kuni Sherzod imtihonga tayyorgarlik bo‘lib uchun kunduzi soat  $10^{30}$  dan  $2^{15}$  gacha dars qildi. Obid esa undan 1 soat-u 45 minut ko‘proq dars qildi. Obid nechta soat dars qilgan?

2.45. Qo‘yxonada 29 ta qo‘y bor. Ularni 12 tasini shoxi bo‘lib, 18 tasini rangi qora. 3 ta qo‘yning shoxi ham yo‘q, qora ham emas. Qo‘yxonada eng kamida nechta qo‘yning ham shoxi bor, ham rangi qora?

2.46. Anvar, Bahodir va Dilshod bilimlar sinovida qatnashib, ular turlichа ball oldilar. Anvar va Bahodir olgan

ballari yig‘indisi 64 ballga, Bahodir va Dilshod olgan ballari yig‘indisi 70 ballga, Anvar va Dilshod olgan ballari yig‘indisi esa 74 ballga teng. O‘quvchilarning qay biri eng ko‘p, qay biri eng kam ball olgan?

**247.** Ilmiy kengashda 24 nafar akademik ishtirok etmoqda. Ulardan 10 nafari soqolli, 14 nafari esa mo‘ylovli. 4 nafar akademikda soqol ham, mo‘ylov ham yo‘q. Kamida necha nafar akademikda soqol ham, mo‘ylov ham bor.

**248.** Mahsulotlar yorlig‘iga qo‘yiladigan shtrix-kod 17 ta qora va oq shtrixdan iborat bo‘lib, ular navbatma-navbat joylashgan. Ikki cheti qora shtrix bilan chegaralangan. Qoralari tor va keng shtrixlardan tashkil topgan. Oq shtrixlar soni qora keng shtrixlar sonidan 3 ta ortiq. Tor qora shtrixlar nechta?

**249.** Feruza uch xil konfet sotib oldi: qizil, sariq va ko‘k. Bitta qizil konfet – 4 tanga, sariq konfet – 2 tanga, ko‘k konfet – 1 tanga turadi. U 10 ta konfet sotib olib, 16 tanga to‘ladi. Feruza har bir rangdagi konfetdan nechtadan sotib olgan?

**250.** Davron elektron (raqamli) soat ko‘rsatayotgan vaqtning raqamlar yig‘indisini hisoblashni yaxshi ko‘radi. Masalan, soat 12:47 ni ko‘rsatayotgan bo‘lsa, raqamlar yig‘indisi  $1 + 2 + 4 + 7 = 14$  bo‘ladi. Soat necha bo‘lganda Davron hisoblagan yig‘indi eng katta songa teng bo‘ladi? Bu qanday son?

**251.** Kitobchaning betlarini qo‘yib chiqish uchun 51 ta raqamdan foydalanildi. Bu kitobcha necha betli? Kitobchaning 1- va 2-betlariga, shuningdek, oxirgi betiga raqamlar qo‘yilmasligini e’tiborga oling.

**252.** Uch xonali son ketma-ket ikki marta yozilsa, bu son necha marta ortadi?

**253.** Yoqib Nasibadan 30 kunga, Nasiba esa Halimadan 30 kunga katta. Lekin uchalasi oyning turli sanalarida, ya’ni Yoqib oyning 18-sanasida, Nasiba 17-sanada, Halima esa

16 sanada tug‘ilgan. O‘quvchilarning tug‘ilgan yili bir xil bo‘lsa, ularning har biri qaysi oyda tug‘ilgan?

**254.** 4 nafar qiz qo'shiq kuylab, raqs tushmoqdalar.  
Nuvbatma-navbat qizlardan biri raqs tushadi, boshqa 3 nafar  
qiz jo'r bo'lib, bitta to'rtlik qo'shiq aytishadi. So'ngra qo'shiq  
aytgan qizlardan biri navbati bo'yicha raqs tushadi, boshqa  
qizlar bitta to'rtlik qo'shiq aytishadi va hokazo. Qizlardan biri  
19 marta, boshqa qizlar esa 8 martadan qo'shiq aytishgan  
bo'lsa, qizlar jami nechta to'rtlik qo'shiq aytishgan.

**255.** Guldastadagi gullarning 2 tasidan tashqari hammasi qızıl chinnigul, 2 tasidan tashqari hammasi oq chinnigul, 1 tasidan tashqari hammasi pushti chinnigul. Guldasta nechta chinnigul bor?

256. Lift 1-qavatdan 3-qavatga ko'tarilganda 8 m masofani bosib o'tdi. 1-qavatdan 9-qavatga ko'tarilganda lift niha metr masofani bosib o'tadi?

**257.** Tarozining bir pallasida 12 ta shaftoli, ikkinchi pallasida esa 2 ta bir xil handalak bor. Shaftolilar turgan pallaga yana bitta shunday handalakni qo'ysak, tarozi pallalari tenglashadi. Bitta handalakning massasi nechta shaftolining massasiga teng?

258. Agar bir songa 7 ni qo'shib, yig'indini 7 ga bo'lib, limmadan 7 ni ayirib, ayirma 7 ga ko'paytirilsa, natija liqadi. Bu qanday son?

259. 9 ta jo‘janing oyoqchalari soni 4 ta otning tuyoqlari sonidan nechta ortiq?

**260.** Aka va ukada jami 100 dona yong‘oq bor edi. Aka ukasiga 15 dona yong‘oq berganidan keyin aka va ukadagi yong‘oqlar soni bir xil bo‘lib qoldi. Aka ukasiga bermasdan oldin ularning har birida nechtadan yong‘oq bor edi?

**261.** Bittadan 1, 3 va 5 kg li toshlar bor. Shu toshlardan toydalanib pallali tarozida 500 g, 2 kg, 7 kg guruchni qanday qilib tortish mumkin?

**262.** O‘g‘li tug‘ilganda otasi 24 yoshda edi. Hozir o‘g‘lining yoshi otasidan ikki marta kichik. Hozir o‘g‘li necha yoshda?

**263.** Ikki va uch g‘ildirakli velosipedlarning umumiy soni 5 ta, g‘ildiraklari soni esa 12 ta. Ikki va uch g‘ildirakli velosipedlarning har biri nechta?

**264.** Ikki yarimta yog‘ochning nechta uchi bo‘ladi?

**265.** Anvar singlisi Umidadan 7 yosh katta. 4 yil oldin Anvar Umidadan ikki marta katta edi. 7 yildan keyin Anvar va Umida necha yoshda bo‘lishini toping.

**266.** Bahodirning otasi 3 yildan keyin o‘g‘lidan 4 marta katta bo‘ladi. Agar otasi hozir 37 yoshda bo‘lsa, Bahodir necha yoshda?

**267.** Agar Nigora do‘kondan 4 ta daftar sotib olsa, 100 so‘m ortib qoladi. Agar 5 ta sotib olsa, 100 so‘m yetmaydi. Daftar necha so‘m turadi? Nigorada necha so‘m bor?

**268.** Qutichadagi qo‘ng‘iz va o‘rgimchaklar oyoqlarining umumiy soni 34 ta bo‘lsa, qutichada nechta qo‘ng‘iz va nechta o‘rgimchak bor? Bitta qo‘ng‘izda 6 ta, bitta o‘rgimchakda 8 ta oyoq bo‘lishini hisobga oling.

**269.** 24 ta shashka donasini 6 qator qilib shunday qo‘yingki, har bir qatorda 5 tadan shashka donasi bo‘lsin.

**270.** 0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarning har biridan faqat bir marta foydalaniib, qo‘sishga oid uchta ifoda tuza olasizmi? Ulardan biri quyidagicha:  $3 + 5 = 8$

**271.** Soat bir kunda 5 minutga kech qoladigan bo‘lsa, necha kundan keyin 1 soatga kech qoladi?

**272.** Soat millari 8 dan 35 minut o‘tganini ko‘rsatmoqda. Soat mili bilan minut milining o‘rinlari almashtirib qo‘yilsa, soat nechani ko‘rsatadi?

**273.** Bilimlar sinovida qatnashgan Anvar, Bahodir va Dilshodning olgan ballari yig‘indisi 100 ga teng chiqdi. Anvar va Bahodirning olgan ballari yig‘indisi 64 ga, Bahodir va Dilshodning olgan ballari yig‘indisi esa 70 ga teng bo‘ldi. Ularning har biri bilimlar sinovida necha ball olgan?

274. Olmaxon birinchi kuni 3 ta yong‘oq topib, iniga olib keldi. Ertasi kuni esa 4 ta yong‘oq topdi. Shu tarzda keyingi hui bir kuni oldingi kundagidan 1 ta ortiq yong‘oq topib, iniga olib keldi. Olmaxon 7 kunda iniga nechta yong‘oq tashib kelgan?

275. Asror sport musobaqasida 4 kun ishtirok etib, har bu keyingi kun oldingi kunlari olgan jami ballga teng ball to‘pladi. Agar Asror 4 kunda jami 192 ball to‘plagan bo‘lsa, birinchi kuni necha ball olgan?

276. O‘g‘li tug‘ilganda ota 30 yoshda edi. Hozir ota o‘g‘lidan to‘rt marta katta. Ota va o‘g‘ilning yoshini toping.

277. Shunday sonni topingki, uni 7 ga ko‘paytirib, chiqqan sondan 1 ni ayirsa, 90 hosil bo‘lsin.

278. Savatdagи shaftolilarning yarmini Shuhrat, qolgan shaftolilarning yarmini Umida oldi. Shundan keyin savatda Idona shaftoli qoldi. Dastlab savatda necha dona shaftoli bo‘edi?

279. 3 ta sayohatchining har birida bittadan osma qulf va hui bir qulf uchun bittadan kalit bor. Bitta eshikni har bir sayohatchi xohlagan vaqtida kelib ochishi uchun qulflarni qanday osishlari kerak?

280. Qirg‘oqda pichan, qo‘y va bo‘ri bor. Qayiq qayiqchi bulan birga ulardan faqat bittasini ko‘taradi. Qayiqchi qay tarida ularga ziyon yetkazmasdan daryoning boshqa qurup og‘iga o‘tkazishi kerak? Agar bo‘rini olib o‘tsa, qo‘y po‘hamni, agar pichanni olib ketsa, bo‘ri qo‘yni yeb qo‘yadi. Agar avval qo‘yni, keyin pichanni o‘tkazib qo‘ysa, qo‘y pichanni yeb qo‘yadi. Agar avval qo‘yni, keyin bo‘rini o‘tkazsa, bo‘ri qo‘yni yeb qo‘yadi.

281. Ikki oshiq shahzoda malikaning oldiga kelib, bimuzni tanla deyishibdi. Malika ularga quyidagi shartni qo‘yibdi: «Falon qishloqqa borib, mening oldimga otda lo‘blizlar. Kimning oti keyin kelsa, o‘sha g‘olib bo‘ladi» – deb Shahzodalar qishloqqa borib, biri «sen oldin bor», shunchisi «o‘zing oldin bor» deb tortishib qolishibdi. Bu holni

ko'rgan donishmand ularga bir maslahat beribdi. Shundan so'ng ular otlarga qamchi urib, malikaning oldiga ot choptirib ketishibdi. Donishmand qanday maslahat bergen?

**282.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydon eni bir xil bo'lgan chuqurlik bilan o'ralgan. Maydonga o'tish uchun shu chuqurlik eniga teng bo'lgan uzunlikdagi ikkita taxta berilgan. Shu maydonga qanday o'tsa bo'ladi?


**283.** Daryo qиро'гида yetib kelgan askarlar qayiqda suzib yurgan ikkita bolani ko'rib qolishdi. Ammo qayiq kichkina bo'lib, faqat bitta askarni yoki ikkita bolani ko'tara olar ekan. Lekin yo'lini topib, askarlar qayiqda boshqa qиро'оqqa o'tиb olishdi. Bolalar esa qayiqlariga o'tirib, suzishni davom ettirdilar. Askarlar qayiqda qanday qilib boshqa qиро'оqqa o'tиb olishgan?

**284.** Stansiyaga kirib kelgan yuk poyezdiga uni orqasidan kelgan tez yurar poyezd yetib oldi. Endi uni oldinga o'tkazib yuborish kerak. Stansiyada asosiy temir yo'ldan tashqari bitta qo'shimcha yo'lakcha bor. Lekin yo'lakchaning uzunligi juda qisqa bo'lib, hamma yuk vagonlar unga sig'maydi. Qanday qilib tez yurar poyezdni oldinga o'tkazib yuborish mumkin?

**285.** Daryoda suzib kelayotgan uchta kemaga qaramaqarshi suzib kelayotgan uchta kema to'qnash kelib qoldi. Daryo shunchalik torki, unga yonma-yon ikkita kema sig'maydi, lekin bitta kema sig'adigan ko'rfa zcha bor. Qanday qilib bu kemalar o'z yo'llarini davom ettira oladilar?

**286.** Kapitan 16 ta soqchini qal'a devorlariga 51-rasmida ko'rsatilganidek joylashtirib chiqdi. Mayor kelib,

har bir devorga 6 tadan joylashtirish kerakligini buyurdi. So'ngra polkovnik kelib, har bir devorga 7 tadan joylashtirish kerakligini buyurdi. Kapitan jami soqchilar sonini oshirmsandan avval mayor buyrug'ini, keyin polkovnik buyrug'ini bajarib, ikki holda soqchilarni qanday joylashtirgan?



**287.** Soatning sonlar yozilgan sirtini shunday 6 bo‘lakka  
ingki, har bir bo‘lakdagi sonlar yig‘indisi bir xil bo‘lsin.

**288.** 24 ta stulni har qatorda 5 tadan qilib, 6 qatorga  
laysizmi?

**289.** Soat millari 12 dan 20 minut o‘tganini ko‘rsatmoqda.  
Va minut millarining o‘rni almashtirilsa, soat nechani  
kelayotgan bo‘ladi?

**290.** Alpinist, ya’ni tog‘ning cho‘qqisiga chiqish bilan  
ullanadigan sportchi 100 metrli tekis qoyaning tepasidan  
tnshmoqchi. Qoyaning qoq o‘rtasida baquvvat daraxt  
Alpinist 75 metrli arqon va pichoq yordamida pastga  
oladimi?

**291.** Bir qizg‘anchiq bola faqat 9 gacha sanashni bilar  
Shuning uchun u o‘zining oyinchoqlarini boshqa  
halalarga bermaslik uchun qutiga 52-rasmida ko‘rsatilganidek  
olibdi va har bir qatorda 9 tadan o‘yinchoq  
ligini eslab qolibdi. Hisobni yaxshi  
o‘rtoqlari esa har gal bildirmasdan  
1 tadan o‘yinchoqni olib, har bir qatorda  
1 tadan o‘yinchoqni qo‘yishibdi. Ular  
hammasi bo‘lib necha marta va nechta  
o‘yinchoq olishgan?

1	7	1
7		7
1	7	1

52-rasm.

**292.** Bemor berilgan savollarga ko‘zi bilan faqat «yo‘q»  
yoki «ha» deb ishora bilan javob bera oladi. Ikkita savol  
berish bilan uning to‘rt qavatli binoning qaysi qavatida  
yashini bilib olish kerak. Bu ikkita savol qanday bo‘lishi  
kerak?

**293.** Har kuni ertalab soat 9<sup>00</sup> da Yevropa portidan  
Amerika porti tomon bitta kema yo‘lga chiqadi. Har kuni  
shu vaqtda Amerikadan Yevropa tomon bitta kema  
yo‘lga chiqadi. Kemalar qarama-qarshi yo‘nalishda harakat  
qilib, okeanni roppa-rosa 7 sutkada suzib o‘tadi. Amerikadan  
yo‘lga chiqqan kema yo‘lda Yevropadan kelayotgan nechta  
kemani uchratadi?

**294.** Usta shogirdiga hech qanday idish, ip va yog‘ochlardan foydalanmasdan bochkadagi to‘la suvning qoq yarmisini to‘kib tashlashni topshirdi. Shogirdi nima qilishi kerak?

**295.** Bir shahar atrofiga soqchilar qo‘yilib, ularga: «Kim shaharga kirmoqchi bo‘lib yolg‘on gapirsa, dorga osinglar, rost gapirsa, suvgaga cho‘ktiringlar» deb topshiriq berilibdi. Hech kim shaharga kirish imkoniyatini topa olmay turganda, bir donishmand: «Men shaharga kira olaman» debdi. U soqchilarga bir nima deb gapirsa, soqchilar uni rost gapirdimi, yolg‘on gapirdimi, bila olmay, shaharga kiritib yuborishibdi. Donishmand soqchilarga nima degan?

**296.** 5 ta zanjir bo‘lagini bir-biriga ulab, butun zanjir hosil qilish uchun eng kamida nechta halqani ochib ulash kerak (53-rasm)?



53-rasm.

**297.** Qanday qilib pichoq bilan 3 marta kesib, tortni 8 bo‘lakka bo‘lish mumkin?

**298.** Matematikada «+», «-», «·», «:», «=», «>», «<» belgilaridan qaysi biri eng ko‘p ishlatalidi?

**299.** 9 ta tilla tangadan bittasi soxta bo‘lib, u faqat og‘irligi bilan haqiqiy tangalardan farq qiladi. Ikki pallali oddiy tarozi yordamida 2 marta o‘lhash orqali qanday qilib soxta tangani topish mumkin?

**300.** 27 ta tilla tangadan bittasi soxta bo‘lib, u faqat og‘irligi bilan haqiqiy tangalardan farq qiladi. Ikki pallali oddiy tarozi yordamida uch marta o‘lhash orqali qanday qilib soxta tangani topish mumkin?

**301.** 10 ta qopda ko‘rinishi bir xil tangalar bor. Ammo shu qoplardan birining ichidagi tangalar soxta. Haqiqiy tangalar 10 grammidan, soxta tangalar 9 grammidanligi ma’lum.

I gramm aniqlikda o'lchaydigan qirozida bir marta o'lchash orqali qaysi qoppla soxta tangalar borligini qanday aniqlash mumkin?

**302.** Gilamda 7 ta gul bor. Uchta to'g'ri chiziq yordamida gilamni har bir bo'lakida bittadan guli bo'lgan 7 ta bo'lakka bo'la olasizmi (54-rasm)?

**303.** 12 ta stulni uch qatorga joylashtiring. Har bir qatorda 5 tadan stul bo'lsin.

**304.** 12 ta stulni uch qatorga shunday joylashtiringki, bir qatorda 6 ta, qolgan ikkita qatorda 4 tadan stul bo'lsin.

**305.** 12 ta stulni to'rt qatorga shunday joylashtiringki, har bir qatorda 4 tadan stul bo'lsin.

**306.** 10 ta stulni xonaning to'rt tomoniga joylashtiring. Har bir tomonagi stullar soni bir xil bo'lsin.

**307.** Qanday qilib 3 va 5 litrli idishlar yordamida hovuzdan 1 litr suv olish mumkin?


**308.** Qanday qilib 2 va 5 litrli idishlar yordamida hovuzdan 1 litr suv olish mumkin?

**309.** 7 ta bankada to'la asal, 7 ta bankada yarmisigacha nol va 7 ta bo'sh banka bor. Qanday qilib uch kishi ularni teng bo'lib olishlari mumkin? Asalni boshqa bankaga quyish mumkin emas.

**310.** Ikki kishi bochkadagi 8 litr kvasni teng bo'lib olishmoqchi. Ularda 3 va 5 litrli idishlar bor. Shu uchta idish yordamida kvasni teng ikkiga bo'lish mumkinmi?

**311.** 3 va 5 litrli idishlar yordamida qanday qilib hovuzdan 1 litr suv olish mumkin?

**312.** Ikki kishi bochkadagi 16 litr kvasni teng bo'lib olishmoqchi bo'lishdi. Ularda 11 va 6 litrli idishlar bor. Shu uchta idish yordamida kvasni teng ikkiga bo'lish mumkinmi?



54-rasm:

**313.** 3, 6 va 7 litrli idishlar bor. Shu uchta idish yordamida qanday qilib hovuzdan 5 litr suv olish mumkin?

**314.** 6 litrli idishda 4 litr, 7 litrli idishda 6 litr kvas bor, uchinchi 3 litrli idish esa bo'sh. Shu uchta idish yordamida idishlardagi 10 litr kvasni teng ikkiga bo'lish mumkinmi?

**315.** 5 va 9 litrli chelaklar yordamida hovuzdan qanday qilib 3 litr suv olish mumkin?

**316.** 5 va 7 litrli idishlardan foydalanib, qanday qilib 12 litrli idishdagи 12 litr sutni teng ikkiga bo'lish mumkin?

**317.** 11 va 13 litrli idishlar yordamida hovuzdan qanday qilib 12 litr suv olish mumkin?

**318.** Zamburug'lardan bir turi 1 minutda ikkiga bo'linib ko'payadi. Bir idishga shu zamburug'dan 1 tasi solinsa, 4 soatdan keyin idish limmo-lim to'lishi aniqlandi. Idishning yarmi qancha vaqtida to'ladi?

**319.** Zamburug'lardan bir turi 1 minutda ikkiga bo'linib ko'payadi. Biror idishga shu zamburug'dan 1 ta solinsa, 1 soatdan keyin idish to'lishi aniqlandi. Agar o'sha idishga 2 ta zamburug' solinsa, idish qancha vaqtida to'ladi? 4 ta solinsa-chi?

**320.** Sayohat uchun kelgan Sayyora mehmonxonaning 4-qavatidagi dengizga qaragan xonalardan biriga joylashdi. U yangi tanishgan dugonasi Dilbar bilan ovqatlanishga borish uchun tayyorgarlik ko'rib, yuvinish xonasidagi oyna oldiga keldi. Shu vaqt eshik taqillab qoldi. «Dilbar kelgan bo'lsa kerak», deb oylab, Sayyora sumkachasini olib xonaga chiqdi va notanish odam kirib kelganini ko'rди. Xonani tomosha qilayotgan notanish odam Sayyorani ko'rib: «Kechirasiz, men xonani adashtirib qo'yibman. Men qo'shni xonada yashayman», deb chiqib ketdi. Sayyora darhol qorovullarni chaqirdi va notanish odamni tutib olishdi. U qidiruvdagи o'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Notanish odamni aldayotganligini Sayyora qayerdan bildi?

**321.** Ushbu va keyingi boshqotirmalarda haqiqat kataklarini to'ldirish orqali jumboqlarni yeching. Haqiqat kataklarini to'ldirish uchun keltirilgan ma'lumot to'g'ri bo'lsa kutakka 1, noto'g'ri bo'lsa 0 yoziladi.

Yozgi ta'tilda Lola, Nodir, Oysha, Kozim va Aziz o'z otchalari bilan turli yo'nalishda va turli transportda sayohatga bo'lishdi. Quyidagi ma'lumotlar asosida haqiqat kataklarini to'ldirish orqali sayohatga kim qanday transportda borganini toping:

Oysha ketayotgan transport 6 tadan ko'p yo'lovchi tashiydi;

Kozimning otasi transportni o'zi boshqargan;  
qizlar kemaga chiqishmagan;

Nodirning onasi samolyot va kemani yoqtirmaydi;

Lola o'tirgan transporti uch o'rinni.

	matiz	motosikl	avtobus	samolyot	kema
Lola					
Nodir					
Oysha					
Kozim					
Aziz					

**322.** Nargiza, Nabijon, G'ayrat, Aziza va Olim bilimlar muroidan keyin ovqatlanish uchun oshxonaga kirishdi. Ular o'zlarini yoqtiradigan ovqatlardan birini tanlab, 5 xil ovqat – palov, qovurilgan kartoshka, tovuq, baliq va shashlikka buyurtma berishdi. Quyidagi ma'lumotlar asosida haqiqat jadvalini tuzing, uni to'ldirish orqali kim qanday ovqat buyurtiganini toping:

baliq qizlardan birining yoqimli taomi;

Nargiza tovuq va palovni yoqtiradi;

Nabijon baliq, tovuq va shashlikni yoqtiradi;

G'ayrat qovurilgan kartoshkani, tovuqni va baliqni yoqtiradi;

Olim palov va baliqni yoqtiradi.

**323.** Alisher, Nigora, Erkin, Yulduz va Nozim 5 xil sport to‘garagiga – shaxmat, velosiped, futbol, stol tennisi va badminton to‘garagiga qatnashadilar. Quyidagi ma’lumotlar asosida haqiqat jadvalini tuzing, uni to‘ldirish orqali kim qanday sport to‘garagiga qatnashishini toping:

- qizlarga o‘zlarining sevimli sport turi bilan shug‘ul-anishlari uchun koptok kerak emas;
- Alisher har yili stol tennisi musobaqasiga qatnashadi;
- qizlardan biri har kuni velosipedda uchadi;
- Erkin futbol o‘ynashni yoqtirmaydi;
- Nozim badminton bilan shug‘illanmaydi;
- Nigora velosiped uchishni bilmaydi.

**324.** Shahnoza Po‘latdan kichik, Komil Po‘latdan yosh, Tohir Shahnozadan kichik, lekin eng kichigi emas. Ularning ismini yoshiga qarab, kattadan kichik tartibida yozib chiqing.

**325.** Feruza, Fozil, Shoira, Sherzod va Salima dam olish kuni madaniy hordiq chiqarishga borishibdi. Ulardan biri teatrga, ikkinchisi kinoga, uchinchisi sirkka, to‘rtinchisi hayvonot bog‘iga, beshinchisi muzeyga onasi, xolasi, otasi, akasi yoki opasi bilan birga boribdi. Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib kim qayerga kim bilan borganini aniqlang:

- qizlardan biri hayvonot bog‘iga bormoqchi;
- Fozilning akasi birga boramiz deb so‘z bergan;
- Kim opasi bilan borsa, u muzeyni ko‘rib kelmoqchi;
- Feruza kinoga bormaydi;
- Shoira onasi bilan bormaydi;
- Salimaning xolasi teatrni yoqtiradi;
- Sherzod otasi bilan sirkka bormaydi.

Javoblarni quyidagi jadvalga yozing:

	qayerga	kim bilan
Feruza		
Fozil		
Shoira		
Sherzod		
Salima		

126. Stol atrofida 3 nafar qiz va 3 nafar o‘g‘il bola o‘tirishibdi (55 rasm). Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib, kim qaysi shudla o‘tirganligini toping:

Malika Mahmudning sonida o‘tiribdi;

Saodat ikki o‘g‘il bola omada o‘tiribdi;

Anvar Mahmudning qarshidada o‘tiribdi;

Malika Zilonaning o‘ng yonida o‘tiribdi;

bugun Zilonaning tug‘ilgan kuni;


Po‘lat Mahmudning yonida o‘tiribdi.

127. Qadimiy tangalar yig‘ishga qiziquvchi sayyoq qadimiy huyumlar sotadigan do‘konda «Miloddan avvalgi 130-yilda ishlab chiqarilgan» deb yozilgan tangani ko‘rdi. Lekin tanga orzon bo‘lishiga qaramay sayyoq tangani sotib olmadi. Nima uchun?

128. Qorovul ertalab o‘z xo‘jayinini kutib olibdi va unga -Hujun tunda yomon tush ko‘rdim. Siz uchmoqchi bo‘lgan samolyot halokatga uchragan mish. Shuning uchun bu samolyotda uchmang», debdi. Xo‘jayin qorovulning aytganini qilib, o‘sha samolyotda uchmapdi. O‘sha samolyotning halokatga uchraganini eshitgan xo‘jayin qorovulga katta pul mukofot beribdi, lekin uni ishdan bo‘shatib yuboribdi. Nima uchun?

129. Men ikki kun avval 10 yoshda edim. Kelasi yil esa men 13 yoshga kiraman. Shunaqa bo‘lishi mumkinmi?

130. To‘rt do‘st Aziz, Bobir, Davron va Ergash arqon tortish o‘ynashdi. Bobir va Ergash birgalikda Aziz va Davronni osongina yutishdi. Lekin Aziz va Bobir birgalikda Davron va Ergashni juda qiyinchilik bilan yengishdi. Bobir va Davron birgalikda bo‘lganda Aziz va Ergashni enga



55-rasm.

olishmadi, kuchlar teng bo'ldi. Do'stlar kuchi bo'yicha qanday o'rinda ekanligini aniqlang.

**331.** To'rt dugona – Salima, Hakima, Nozima va Xalima birgalikda qo'shiq aytishdi. Har bir qo'shiqni uchtadan bo'lib aytishdi. Salima eng ko'p – 8 ta, Hakima eng kam – 5 ta qo'shiqni aytishda ishtirok etishdi. Nozima va Xalima nechtadan qo'shiq aytishgan? Hammasi bo'lib nechta qo'shiq aytilgan?

**332.** Ergash amaki odatda uyidan dalahovliga velosipedda borar edi. Do'sti uni yo'lning to'rtdan uch qismigacha avtomobilda velosipeddan 4 marta katta tezlikda olib borishni taklif qildi. Bu holda qolgan yo'lni u piyoda velosipeddan 4 marta kichik tezlikda yurib dalahovliga yetib boradi. Ergash amaki qaysi holda dalahovliga tezroq yetib boradi, butun yo'lni velosipedda bosib o'tgandami yoki avval avtomobilda keyin piyoda yurgandami?

**333.** 3 ta oq va 2 ta qora qalpoq bor. Uch donishmandning ikkisiga qora, biriga oq qalpoq kiydirib qo'yishdi. Hech bir donishmand o'zining boshiga qanday qalpoq kiygizishayotganini bilmaydi.

Ulardan qaysi biri boshida qanday qalpoq borligini birinchi bo'lib aytib beradi?

**334.** 3 ta oq va 2 ta qora qalpoq bor. Uch donishmandning ikkisiga oq va biriga qora qalpoq kiydirib qo'yishdi. Donishmandlar boshida qanaqa qalpoq borligini bilishmaydi. Oq qalpoq kiygan donishmandlardan biri uning boshida oq qalpoq ekanligini biroz o'ylab turib topdi. U qanday mulohaza yuritgan?

**335.** 3 ta oq va 2 ta qora qalpoq bor. Uch donishmandning uchallasiga oq qalpoq kiydirib qo'yishdi. Donishmandlar boshida qanaqa qalpoq borligini bilishmaydi. Uzoq o'ylab turib, donishmandlardan biri uning boshida oq qalpoq ekanligini topdi. U qanday mulohaza yuritgan?

**336.** Oroldagi 100 kishidan kamida 1 tasi rostgo'y. Nohlagan juftlikni olib qaralsa, ulardan kamida 1 tasi yolg'onchi. Orolda nechta rostgo'y bor?

**337.** Bir litrli va yarim litrli bonka idishlar yordamida  $\frac{3}{4}$  litr suv olish mumkinmi?

**338.** Bir idishda  $2\text{ l}$  suv, ikkinchi idishda  $2\text{ l}$  sut bor. Birinchi idishdan  $0,5\text{ l}$  suv olib, ikkinchi idishdagi sut ustiga quyib birlashtirildi. Ikkinci idishda hosil bo'lgan sut va suv birlashtimasidan  $0,5\text{ l}$  olib, birinchi idishdagi suv ustiga quyildi. Birinchi idishda sut ko'pmi yoki ikkinchi idishda suv ko'pmi? Hoshqotirmani yechishda ikkinchi idishdan sof sut emas, balki suv aralashgan sut olib, birinchi idishga quyilganini e'tiborga oling.


**339.** 63 ta halqali zanjir bor. Uni shunday bo'laklarga qutitingki, bu bo'laklardan 1 dan 63 gacha har bir natural son halqali, ya'ni 1 ta, 2 ta, 3 ta, 4 ta, 5 ta, ... 63 ta halqali bo'laklarni yig'ish mumkin bo'lsin.

**340.** Uch sportchi Abror, Bahodir va Sarvar yugurish murobaqasiga qatnashib, bir necha marta yugurishdi. Natijalarini tekshirib ko'rileganida Abror Bahodirdan, Bahodir Sarvardan, Sarvar esa Abrordan tezroq yugurgani ma'lum bo'ldi. Shunday bo'lishi mumkinmi?

**341.** Uchta uy va uchta quduq bor. To'g'ri tekis yo'l orqali uylarni bir-biri bilan, quduqlarni bir-biri bilan va har bir uyni uchtadan quduq bilan birlashtirish mumkinmi? Bunda yo'llar bir-biri bilan kesishmasligi kerak.

**342.** Uchta uy va uchta quduq bor. To'g'ri tekis yo'l bilan uylarni bir-biri bilan va har bir uyni uchtadan quduq bilan birlashtirish mumkinmi?

**343.** A, B, D va E uylar o'zlarining a, b, d va e quduqlari bilan kesishuvchi yo'llar orqali birlashtirilgan (56-rasm). Kesma va siniq chiziqlardan



56-rasm.

foydalaniб, bu to'rtta yo'lни bir-biri bilan kesishmaydigan qilib o'tkazing. Bunda yo'llar eng qisqa bo'lsin.

**344.** Sirti to'g'ri to'rtburchakli stol ustida turgan g'lshtning katta diagonalini chizg'ich yordamida qanday qilib o'lchash mumkin?

**345.** 5 nafar askar ovqatlanib o'tirishgan edi. To'satdan harbiy mashqlar boshlangani haqida xabar keldi. Askarlari shoshilinch ravishda qoziqdagi bosh kiyimlarni olib yugurib ketishdi. Shoshilinchda kim kimning bosh kiyimini olganligi noma'lum. 4 nafar askar o'z bosh kiyimini bir-biri bilan adashtirgan bo'lsa, beshinchi askarning o'z bosh kiyimini olishda adashganligi ehtimolligi qancha?

**346.** 7 va 11 minutli qum soatlari yordamida chorak soatni o'lchash mumkinmi?

**347.** Birinchi yashikda 2 ta qora, ikkinchi yashikda 2 ta oq, uchinchisida 1 ta oq va 1 ta qora shar bor. Yashiklar ustiga quyidagi yozuvlari bo'lgan uchta yorliq tayyorlandi: «2 ta qora», «2 ta oq», «1 ta oq va 1 ta qora». Yorliqlarni yopishtirishda adashtirib yuborildi. Natijada hech bir yorliq to'g'ri yopishtirilmadi. Yorliqlar noto'g'riliгini bilgan holda yashiklardan biridan 1 ta sharni olib, har bir yashikda qanday sharlar borligini aytib berish mumkinmi?

**348.** Ikkalamizdagи pul miqdori teng. Men sizga necha so'm bersam sizning pulingiz menikidan 100 so'm ko'p bo'lib qoladi?

**349.** Ajnaviy savdogar bir buyumni 11 tangaga sotib olib, uni 12 tangaga sotdi. Keyin xuddi o'sha buyumni 13 tangaga sotib olib, 14 tangaga sotib yubordi. U qancha foyda ko'rgan?

**350.** Birinchi akvariumda ikkinchisiga qaraganda 14 ta baliq ko'p. Birinchi akvariumdan ikkinchisiga nechta baliq o'tkazilsa, ikkalasidagi baliqlar teng bo'lib qoladi?

**351.** Oq, kulrang va qora quyonni birgalikda taroziga qo'yishgan edi, oq quyon tarozidan sakrab tushib qoldi. Shu

Vaqtda tarozi 7 kg ni ko'rsatdi. Keyingi safar uchlasini qo'yishganida kulrang quyon tushib qoldi. Bunda tarozi 6 kg ni ko'rsatdi. Uchinchi gal uchlasini taroziga qo'yishgan edi, qora quyon tushib qoldi. Bunda tarozi 5 kg ni ko'rsatdi. Olyonlar tarozidan tushib qolmaganida, tarozi necha kilogramni ko'rsatar edi? Har bir quyonning og'irligi qancha?


352. G'ayratning bo'yli Botirnikidan baland, ammo Adhamnikidan pastroq. Zokir Dilshoddan baland, lekin o'ayratdan past. Bolalar ichida eng balandini toping.

353. Malika 4 ni qo'shishni, Botir 5 ni ayirishni, Dildora 6 ni 3 ga ko'paytirishni eng yaxshi ko'rishadi. Doskaga 100 zovib qo'yilgan. Bu o'quvchilar oldinma-keyin doskaga chiqib, 1 ning yoniga o'zлari eng yaxshi ko'rgan bitta amal qilishni yozib chiqishi kerak. 1 bilan boshlanadigan ifoda matnasi 2 chiqishi uchun o'quvchilarni qaysi tartibda doskaga chiqarish kerak?

354. Futbol bo'yicha musobaqaning uch uchrashuvida komandamiz 3 ta gol urib, 1 ta to'p o'tkazib yuborishdi. Har bu yutuq uchun 3, durrang uchun 1, yutqazilsa 0 ochko boliladi. Shu uch o'yinda komandamiz quyidagi ochkolardan qaydilarini olishi mumkin emas?


a) 3; b) 4; c) 5; d) 6; e) 7; f) 8.

355. Faraz qilaylik, sizda oqni qora, qorani oq qilib ko'shatadigan ko'zoynak bor. Bunday ko'zoynak orqali 57-rasmdagi shaklga qarasangiz, 58-rasmdagi qaysi shaklni ko'manday bo'lasiz?



58-rasm.

**356.** 59-rasmda ko‘rsatilgan kataklar ichidagi quyonlar yonidagi katakka sakrab o‘tishi mumkin. Har bir gorizontal, vertikal va diagonallardagi kataklarda ikkitadan quyon bo‘lishi uchun ulardan qaysinisi qaysi katakka sakrab o‘tishi kerak? Eng kamida nechta quyon sakrashi kerak? Har bir quyon bittadan ortiq sakrashi mumkin emas.




59-rasm.



60-rasm.

**357.** 60-rasmda ko‘rsatilgan kataklar ichidagi quyonlar yonidagi katakka sakrab o‘tishi mumkin. Har bir gorizontal, vertikal va diagonallardagi kataklarda uchtadan quyon bo‘lishi uchun ulardan qaysinisi qaysi katakka sakrab o‘tishi kerak? Eng kamida nechta quyon sakrashi kerak? Har bir quyon bittadan ortiq sakrashi mumkin emas.

**358.** Nodir har gal strelkani soat millari yo‘nalishida 61-rasmda ko‘rsatilgani kabi aylantirmoqda. 19-gal aylantirgandan so‘ng strelka qaysi tomonga yo‘nalgan bo‘ladi?



61-rasm.

**359.** Omborda 3 ta sandiq bor. Har bir sandiq ichida 3 tadan quti, har bir quti ichida 7 tadan tilla tanga bor. Omborxonada eshigiga, barcha sandiq va qutilarga qulf osilgan. Omborxonaga kirib 34 ta tanga olib chiqish uchun nechta qulfnini ochish kerak?

460. Hovlida ikkita it va ikkita mushuk bor. Mosh ismli mushuk ikkala itdan ham qo‘rqadi. Tosh ismli mushuk Olapar ismli itdan qo‘rqadi, Qoplon ismli it bilan esa do‘sit. Quyidagi yoplardan qaysi biri noto‘g‘ri?

- a) ikkala mushuk qaysidir itdan qo‘rqadi;
- b) bitta itdan qo‘rqmaydigan mushuk ham bor;
- c) ikkala mushuk qo‘rqadigan it bor;
- d) ikkala mushuk qo‘rqmaydigan it bor;
- e) ikkala it qaysidir mushukga qo‘rqinch soladi.

461. O‘tgan kuni Asadning tug‘ilgan kuni bo‘ldi. Indinga shonba. Asadning tug‘ilgan kuni haftanining qaysi kuni bo‘lgan?

462. Omon va Shavkat ko‘l atrofidagi daraxtlarni bir yonalishda yurib sanashmoqda. Lekin ular o‘z hisoblarini turli daraxtlardan boshlashdi. Shu sababli Omon uchun yigirma to‘rtinch daraxt, Shavkat uchun oltinchi daraxt bo‘ldi. Omon u minchi deb sanagan daraxtni Shavkat uchun ellik to‘rtinchi bo‘ldi. Ko‘l atrofida nechta daraxt bor?

463. Daraxt ostida yxlab yotgan kiyik xursand bo‘lib yondi va o‘ynab har tomonga sakray boshladidi. U har sakraganida 2 m, 4 m yoki 7 m masofaga sakradi. Kiyik 10 marta sakraganida quyida keltirilganlardan necha metr woxlikda bo‘la olmaydi?

- a) 3 m; b) 13 m; d) 49 m ; e) 62 m; f) 63 m.


464. Uchta olmaxon Salli, Halli va Valli birgalikda 1 ta yong‘oq topib oldi. Ularning har biri bitta bo‘lsa ham yong‘oq topdi, lekin har birining topgan yong‘oqlari soni har ul bo‘ldi. Salli eng kam, Valli esa eng ko‘p yong‘oq topdi. Valli nechta yong‘oq topdi?

465. Ozoda bilan Zokirning uylari anhor bo‘yida joylashgan. Ozodaning uyidan chap tomonda 47 ta, o‘ng tomonida 23 ta uy bor. Zokirning chap va o‘ng tomonida uylari soni bir-biriga teng. Ozoda va Zokirning uylari orasida nechta uy bor?

**366.** Qizil, havorang, sariq va oq gul yonma-yon ochilih turibdi. Asalari har bir qulga faqat bir martadan qo‘nishni mumkin. U qo‘nishni qizil guldan boshlab, hamma gullarni necha usulda aylanib chiqishi mumkin? Asalari sariq guldan oqiga o‘tishi mumkin emas.

**367.** Qadimiq qasrga sehrgar kirganida kechasi soat 3<sup>44</sup> edi. To‘g‘ri ishlab turgan katta osma soat teskari tomonga yura boshladidi. Sehxrgar soat 4<sup>45</sup> da ketdi. Shu vaqtida osma soat nechanini ko‘rsatayotgan bo‘ladi?

**368.** 62-rasmdagi shakllardan qaysi biri ortiqcha?



62-rasm.

**369.** Jumavoy 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni yozganida bittasini tushirib qoldirdi. Jumavoy yozgan har bir sonni boshqasi bilan juft qilib olinsa, ulardan biri ikkinchisiga qoldiqsiz bo‘linishini Robinzon Kruzo sezib qoldi. Jumavoy qaysi sonni tushirib qoldirgan?


**370.** Uydagi xonalardan ular orasidagi eshiklar sonidan bittadan ko‘p emas. Xonalar soni har bir uydan tashqariga chiqadigan eshiklar sonidan ham bittadan ko‘p emas. Uyda hammasi bo‘lib 12 ta eshik bor. Bu uyda eng kamida nechta xona bor? Xonalarning taxminiy joylashuvini chizib ko‘rsating.

**371.** Sinfda 35 nafar o‘quvchi bor. 8-mart bilan tabriklab, o‘g‘il bolalar 55 ta gulni qiz bolalarga teng bo‘lib berishganida 1 ta gul ortib qoldi. Sinfda necha nafar o‘g‘il bola bor? Sinfdagisi o‘g‘il bola soni qiz bolalar soniga yaqin.


**372.** 2013 sonidagi raqamlar yordamida hosil qilish mumkin bo‘lgan hamma to‘rt xonali sonlarni o‘sish tartibida yozib chiqing.

373. To'rt bolaning har biri doimo yoki rost, yoki yolg'on nafiradi. Asad Nosirni yolg'onchi deydi. Nosir esa Murodni yolg'onchi deydi. Murod Nosirni yolg'onchi deydi. Tohir esa Abdni yolg'onchi deydi. Ularning necha nafari yolg'onchi?

374. Sakkizburchakning har bir uchiga 1, 2, 3 yoki 4 raqamlardan birini yozish kerak (63-rasm). Uchta raqam hissida yozilgan. Burchaklarni birlashtiruvchi kesma uchlarida tuli raqamlar bo'lishi uchun 4 raqamini eng ko'pi bilan necha marta yozish mumkin?



63-rasm.



64-rasm.

375. 8 ta qishloq orasida avtobus qatnovi yo'lga qo yilgan. 64-rasmida har qishloq orasidagi yo'lkira so'm keltirilgan. A shahardan B shaharga borish uchun eng kamida necha so'm to'lash kerak bo'ladi?

376. Baroq, Mosh va Mittivoy ovqatlanishga o'tirishdi. Baroq Moshdan, Mosh esa Mittivoydan ikki baravar tez ovqatlanadi. Mittivoya 6 ta baliqcha, Baroq va Moshga 12 tadan ana shunday baliqcha berishdi. Baroqvoy o'z ovqatini 1 minutda yeb bo'ldi va Moshga yordamga keldi. Ular ovqatlanib bo'lishgach Mittivoyni qachon ovqatlanib bo'lishini kutishdi. Baroq va Mosh qancha vaqt kutishgan?


377. Yilning ba'zi oyalarida 5 ta shanba va 5 ta yakshanba, lekin 4 ta juma va 4 ta dushanba bo'ladi. Keyingi oyda hafftaning qaysi kuni 5 marta bo'ladi?

**378.** 20513 sonidagi 5 raqamini o‘chirib 2013 sonini hosil qilish mumkin. Bitta raqami o‘chirilib 2013 sonini hosil qilish mumkin bo‘lgan besh xonali sonlar nechta?

**379.** Uchta kartochkadagi raqamlardan uch xonali sonlar hosil qilish mumkin. Masalan, 689, 986. Hammasi bo‘lib nechta uch xonali sonni hosil qilish mumkin?

**380.** Xonada 12 ta kuchuk bor. Tishlog‘ichi 8 ta, to‘polonchisi 9 ta. Ulardan nechtasi ham to‘polonchi, ham tishlog‘ich?

**381.** Olmaxon 1 ta kirish eshigi va 5 ta chiqish eshigi bo‘lgan qafasga kirib qoldi (65-rasm). U faqat qafasning uchburchakli xonalari orqali o‘tib, qafasdan chiqib ketdi. Quyon qafasning qaysi raqamli eshididan chiqib ketgan?



65-rasm.

**382.** Ikki daraxt orasidagi masofani bolalar o‘z qadamlari bilan o‘lchashdi. Anvarda 17 qadam, Ahmadda 15 qadam, Shuhratda 14 qadam va Rustamda 18 qadam chiqdi. Kimning qadami eng uzun?

**383.** To‘rt do‘sit A, B, C va D arqon tortish o‘ynashdi. B va D birgalikda A va C ni osongina yutishdi. Lekin A va B birgalikda C va D ni juda qiyinchilik bilan yengishdi. B va C birgalikda bo‘lganda A va D ni yenga olishmadi, kuchlar teng bo‘ldi. Do‘sitar kuchi bo‘yicha qanday o‘rinda ekanligini aniqlang.

384. Birinchi savatda olma, behi va nok, ikkinchi savatda mandarin va xurmo, uchinchisida esa uzum va shaftoli bor. Hun bir savatdan bittadan meva olish usullarini yozib chiqing.

385. Ikkita ota va ikki o‘g‘il ovga chiqishdi. Ular teng miqdorda quyon ovalashdi. Agar 12 ta quyon ovlangan bo‘lsa, ularning har biri nechtadan quyon ovalgan?

386. Oilada 5 o‘g‘il bo‘lib, har birining bittadan singlisi bo‘lgan. Oilada necha nafar farzand bor?

387. Oilada 5 o‘g‘il bo‘lib, uchtasining ikkitadan, ikkitasining bittadan singlisi bor. Oilada nechta farzand bor?

388. Bir aka, bir uka, ikki o‘g‘il va ikki jiyan baliq oviga tushibdi. Akasi «men sizlarga baliq tutushni o‘rgataman» deb, 18 ta baliq tutubdi. Qolganlarning qarmog‘iga bir xil miqdorda baliq tushibdi. Jami baliqlar soni 78 ta bo‘lsa, qolganlar nechtadan baliq tutishgan?

389. Qurt daraxtning tagidan ko‘tarilib, uning uchiga chiqmoqchi bo‘libdi. U kechasi 2 m balandlikka chiqar, kunduzi esa 1 m pastga tushar ekan. 9-kechada u daraxtning noliga chiqib olibdi. Daraxtning balandligi necha metr?

390. Laziz buvisidan so‘rabdi:

Buvijon, kichik nabirangiz necha yoshga to‘ldi?

Mening yoshim nechada bo‘lsa, nabiram shuncha oylik.

Buvijon, sizning yoshingiz nechada?

Nabiram yoshi bilan mening yoshimni qo‘shsang, 65 niqadi. Nabiram yoshini o‘zing topaqol.

391. Qachon 3 ni ko‘rib 15 deymiz?

392. 5 va 9 litrli chelaklar yordamida hovuzdan 3 litr suyni qanday qilib olish mumkin?

393. Tep-tekis yerda donlab yurgan uch kaptar «gur» etib amonga ko‘tarildi. Ayting-chi ular qachon yana bir tekislikda bo‘lishadi?

394. Bir sartaroshni oldiga mijoz kelib sochini oldirgach, sartaroshni pul turadigan qutisidagi pul qancha bo‘lsa, shuncha pul tashlab, qutidan 4000 so‘m olib ketibdi. Ikkinchi mijoz

ham kelib huddi shunday qilibdi, ya’ni qutida qancha pul bo‘lsa shuncha tashlab, qutidan 4000 so‘m olib ketibdi. Uchinchisi ham yuqoridagi voqeani takrorlagan ekan, sartaroshning qutisida hech narsa qolmabdi. Birinchi mijoz kelganida sartarosh qutisida qancha pul bo‘lgan?

**395.** Soat 5 sekundda 6 marta bong uradi. Soat 12 marta bong urishi uchun qancha vaqt ketadi?

**396.** 66-rasmni diqqat bilan ko‘rib chiqib, javob bering:

- a) Rasmda necha xil harf bor?
- b) Qaysi qatorlardagi harflar bir xil?
- c) Qaysi harf bir marta ishtirok etgan?
- d) Qaysi harf eng ko‘p ishtirok etgan?
- e) Qaysi qatorda hamma harflar ishtirok etgan?

T	I	T	B	K	A	B	Q
K	B	I	B	Q	K	T	X
X	T	Q	K	B	A	T	I
K	B	I	H	A	Q	X	T
X	T	K	B	Q	T	I	T
T	I	T	T	B	K	A	Q
K	B	A	I	T	I	Q	X
K	B	I	B	Q	K	T	X

66-rasm.

B	M	S	B	S	15
Q	K	Q	K	S	16
K	Q	B	M	Q	16
S	S	S	S	S	10
M	Q	B	B	Q	16
15	13	17	17	11	

67-rasm.

**397.** 67-rasmdagi har bir katakdagi o‘yinchoqning o‘z narxi bor. Har bir qatordagi o‘yinchoqlar narxlarining yig‘indisi o‘sha kataklar eni va bo‘yiga yozib qo‘yilgan. Har bir oyinchoq narxini toping. Bunda B – bayroq, M – mashina, S – samolyot, K – koptok, Q – qo‘g‘irchoq.

**398.** Eski soat har bir soatda 20 sekundga orqada qolmoqda. U soat 12.00 da to‘g‘rilab qo‘yilgan bo‘lsa, bir sutkadan keyin nechan ni ko‘rsatadi?

**399.** Shashka bo‘yicha musobaqada 108 ta partiya o‘ynaldi. Har bir qatnashchi 3 partiya o‘ynagan bo‘lsa, necha nafar o‘quvchi musobaqada qatnashgan?

**400.** Ko‘paytirish jadvalida quyidagi sonlardan qaysi biri  
•<sup>119</sup> ko‘p uchraydi: 42; 56; 72; 36; 64?

**401.** 400 ta musbat butun sonning yig‘indisi 401 ga teng.  
Bu sonlarning ko‘paytmasi nechaga teng?

**402.** Istirohat bog‘idagi tomosha aylanasidagi kabinalarga  
tartib raqamlari 1, 2, 3, ... yozib chiqilgan. 25-kabina eng  
tepada bo‘lganida, 8-kabina eng pastda bo‘ladi. Tomosha  
aylanasida nechta kabina bor?

**403.** O‘yin kubigining istalgan qarama-qarshi tomoni-  
<sup>120</sup> nuqtalar soni yig‘indisi 7 ga teng. Ikkita kubik bir-biriga  
bunktirib qo‘yildi. Qolgan tomonlaridagi nuqtalar soni eng  
kamida nechta bo‘lishi mumkin?

**404.** O‘yin kubigining istalgan qarama-qarshi tomoni-  
<sup>121</sup> nuqtalar soni yig‘indisi 7 ga teng. Ikkita kubik bir-biriga  
bunktirib qo‘yildi. Qolgan tomonlaridagi nuqtalar soni eng ko‘pi  
bilan nechta bo‘lishi mumkin?

**405.** O‘yin kubigining istalgan qarama-qarshi tomoni-  
<sup>122</sup> nuqtalar soni yig‘indisi 7 ga teng. Oltita kubik bir-biriga  
bunktirib qo‘yildi. Qolgan tomonlaridagi nuqtalar soni eng  
ko‘pi bilan nechta bo‘lishi mumkin?

**406.** O‘yin kubigining istalgan qarama-qarshi tomoni-  
<sup>123</sup> nuqtalar soni yig‘indisi 7 ga teng. Oltita kubik bir-biriga  
bunktirib qo‘yildi. Qolgan tomonlaridagi nuqtalar soni eng  
kamida nechta bo‘lishi mumkin?

**407.** Tokio bilan Toshkent vaqtлari orasidagi farq 4 soatga  
temp. Toshkent bilan N’yu-York orasidagi vaqtlar farqi 12  
<sup>124</sup> soatga teng. Tokioda soat 14.00, Toshkentda 1-yanvar  
danligi ma’lum bo‘lsa, N’yu-Yorkdagi vaqtini toping?

**408.** 8 nafar basketbolchining o‘rtacha bo‘yi 2 m 1 sm.  
Bu zi basketbolchilarining bo‘yi 1 m 98 sm dan past. “Bo‘yi  
past” basketbolchilar eng ko‘pi bilan necha nafar bo‘lishi  
mumkin?

**409.** 1, 2, 3, 4, 5 va 6 yozilgan oltita kartochka bor.  
Ulug‘ning yordamida ikkita uch xonali son hosil qilsa bo‘ladi.  
Misalan, 642 va 153. Ulug‘bek bu raqamlardan ayirmasi eng

kichik bo‘ladigan ikkita son hosil qildi. Ulug‘bek hosil qilgan sonlarni toping.

**410.** Suvga sakrash musobaqasida har bir ishtirokchi 5 martadan sakradi. Natijani hakamlar 1 dan 20 gacha bo‘lgan balllar bilan baholadi. Eng kam ball tashlab yuborilib, jami to‘rtta eng yaxshi sakrash natijalari inobatga olindi. Botir 5 ta sakrash natijasida 82 ball to‘pladi. U eng kamida necha ball natija olgan bo‘lishi mumkin?


**411.** Shogird devorning chorak qismini bo‘yadi. Keyin usta shogirdidan ikki marta tezroq harakat qilib, 15 minut ishladi. Katta ustoz kelib, shogirddan uch marta tezroq harakat qilib, qolgan ishni 5 minutda yakunladi. Ular jami qancha vaqt ishlashgan?

**412.** 202 ta butun sonlar ko‘paytmasi 105 ga, ularning yig‘indisi esa 222 ga teng. Butun sonlar orasida eng katta son nechaga teng?

**413.** Bolalar kubiklardan oldidan qaralganda 68-rasm, chapdan qaralganda 69-rasm bo‘lib ko‘rinadigan uychalar yasashdi. Bu uychalarni qurish uchun eng kamida va eng ko‘pi bilan nechta kubiklar kerak?




68-rasm.



69-rasm.

**414.** Odil o‘z oilasining shajarasini ko‘rib chiqmoqda(70-rasm). Shajarada otadan o‘g‘illarga bo‘lgan yo‘nalish ko‘rsatilgan. Odilning otasi, shu otaning akasi, shu akaning bobosi, shu boboning akasi, shu akaning o‘g‘lini aniqlab borib, shu o‘g‘ilning ismini ayting.



**415.** 2 nafar ishchi 2 soatda 2 metr ariq qazidi. 3 nafar ishchi 3 soatda necha metr ariqni qaziydi?

**416.** 5-A sinf o‘quvchisi Farhod va uning 8 nafar maktabdorlari o‘rtog‘lari sayohatga chiqishdi. Ular orasida har qanday to‘tta sayyoh orasida kamida bir juft sinfdosh, har qanday beshta sayyoh ichida ko‘pi bilan uchta sinfdosh topilishi muqandi. 5-A sinfdan necha nafar o‘quvchi sayohatga borgan?

**417.** Beshta billiard shari qutida 71-rasmida ko‘rsatilgandek joylashgan. Bir yurishda xohlagan ikkita sharning o‘rnini o‘zaro almashtirish mumkin. Sharlarni 1 dan 5 gacha tartibda joylashtirish uchun necha marta yurish qilish kerak?

1 5 1 3 2

71-rasm.

4 3 7 6 1 5 2

72-rasm.

**418.** Yettita billiard shari qutida 72-rasmida ko‘rsatilgandek joylashgan. Bir yurishda xohlagan ikkita sharning o‘rnini o‘zaro almashtirish mumkin. Sharlarni 1 dan 7 gacha tartibda joylashtirish uchun necha marta yurish qilish kerak?

**419.** 73-rasmdagi labirintda 16 ta olma joylashgan. Tipratikan har bir yo‘lak va chorrahadan bir marta o‘tish mumkin. Tipratikan bu labirintga kirib o‘ng yoki chap tomonidan chiqquncha eng ko‘pi bilan nechta olma yig‘ishi mumkin?




73-rasm.


**420.** Uchta kubik (qarama-qarshi tomonadagi jami nuqtalar soni 7 ga teng) biri-biri ustiga shunday qo‘yildiki, bir-

biriga tegib turgan tomonlaridagi nuqtalar soni 5 ga teng bo'ldi. Kubiklarning yon tomonlari bo'yab qo'yilgan (74-rasm). Eng pastdagi kubikning ostki tomonida nechta nuqta bor?


**421.** 75-rasmda 1 ta standart o'yin kubigi (qarama-qarshi tomonidagi jami nuqtalar soni 7 ga teng) ko'rsatilgan. Shunday kubiklardan 3 tasi bir-birining ustiga shunday qo'yildiki, bir-biriga tegib turgan tomonlaridagi nuqtalar soni o'zaro teng bo'ldi. Kubiklarning oldingi tomonidagi nuqtalar soni 28-rasmda ko'rsatilganlarning qaysi biriga to'g'ri keladi?




75-rasm.



a




b



76-rasm.

d




e



74-rasm.

**422.** Sehrli labirintning har bir xonasida bittadan pishloq bor (77-rasm). Sichqoncha labirintga kirib, pishloqlarni yeb chiqmoqchi. U eng ko'pi bilan nechta pishloqni yeishi mumkin? Bitta xonaga ikki marta kirish mumkin emas.



77-rasm.

**423.** Har bir viktorina qatnashchisiga avvaldan 10 ball beriladi.

Ular 10 ta savolga javob berishlari kerak. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi, noto'g'risi uchun 1 ball olinadi. Maximud 14 ball olgan bo'lsa, u nechta savolga to'g'ri javob bergen?

## III SOBLASHGA DOIR MASHQLAR

424. 1 dan 50 gacha bo‘lgan sonlarni yozish uchun nechta raqam ishlataladi?

425. 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni yozish uchun nechta raqam ishlataladi?

426. 1 dan 100 gacha sonlarni yozish uchun 7 raqamidan nechta marta foydalaniladi?

427. Kompyuterda 1 dan 1000 gacha sonlar yozilganda qisqamlili tugmasi necha marta bosiladi.

428. Sonlar ketma-ketligini davom ettirib, yulduzchalar o‘rniga kerakli sonlarni qo‘ying:

- a) 1, 18, 35, +, +, +, ...
- b) 80, 67, 54, \*, \*, \*, ...
- c) 1, 4, 12, \*, \*, \*, ...
- d) 81, 27, 9, \*, \*, ...

429. Sonlar ketma-ketligida yulduzchalar o‘rnida qanday sonlar yetishmaydi?

- a) \*, 13, 25, 37, \*, 61, \*, \*, \*, ...
- b) \*, \*, \*, 67, 56, \*, 34, +, +, +, ...
- c) \*, 6, 18, \*, 162, \*, ...
- d) \*, \*, 64, 32, \*, 8, \*, \*, \*, ...

430. Sonlar ketma-ketligini davom ettirib, yulduzchalar o‘rniga kerakli sonlarni qo‘ying:

- a) 1, 2, 4, 7, 11, \*, \*, \*, ...
- b) 1, 3, 7, 13, \*, \*, \*, ...

431. Qo‘shiluvchilar yozilgan kartochkalar o‘mini almashish orqali tengliklarni to‘g‘rilang (78-rasm).

$$\boxed{1} \boxed{3} + \boxed{2} \boxed{5} = 47$$

78-rasm.

**432.** Kamayuvchi va ayriluvchi yozilgan kartochkal o'mini almashtirish orqali tengliklarni to'g'rilang (79-rasm)

$$\boxed{8} \ \boxed{4} - \boxed{5} \ \boxed{6} = \boxed{2} \ \boxed{3}$$

79-rasm.

**433.** Qanday ikki sonning yig'indisi ularni ko'paytmasiga teng?

**434.** Qanday ikki sonning yig'indisi ularning ayirmasiga teng?

**435.** Qanday ikki sonning ko'paytmasi ularning bo'linmasiga teng?

**436.** Bir yil 365 kundan iborat bo'lgan yilda 53 kundan dushanba bo'lsa, shu yilning 31-dekabri haftanining qaysi kuniga to'g'ri keladi?

**437.** 2013-yil 1-yanvar seshanba kuni bo'lgan. 2014 yilning 1-yanvari haftanining qaysi kuniga to'g'ri keladi? 2015 yilning 1-yanvari-chi?

**438.** Qarg'a 100 yil, sigir undan 5 marta kam, qo'y esigirdan 10 yil kam yashaydi. Agar sichqon qo'ydan 5 marta kam yashasa, sichqon necha yil umr ko'radi?

**439.** Sichqon 8 ta bug'doy boshog'ini topib oldi. Har bir boshqoda 50 tadan don bor. Bitta kulcha yopishga 40 ta don sarflanadi. Sichqon topgan boshqolaridan nechta kulcha yopishi mumkin?

**440.** Farruxdagi telefonning 1-raqami 4-raqamidan 3 marta katta, 2-raqami 1- va 4-raqamlari yig'indisining yarmisiga, 2-raqamini 4-raqamiga bo'linganiga, 5-raqami 3-raqamining yarmisiga, 6-raqami 3- va 5-raqamlari ko'paytmasiga, 7-raqami 3- va 6-raqamlari ayirmasiga teng. Agar 7-raqami 0 ga teng bo'lsa, Farruxning telefoni raqamlarini aytib ber olasizmi?

**441.** Jahongir onasining tug'ilgan kuniga guldasta sovg'i qildi. Guldastada 2 ta lola, 3 ta chinnigul va 4 ta atirgul bor

Ishonqir guldasta uchun necha so‘m sarflagan? Bunda 2 ta shumigulning narxi qancha bo‘lsa, 1 ta lola va 1 ta atirgulning narxi ham shuncha, 1 ta atirgulning narxi 3 ta lolaning narxiga teng ekan. 2 ta lolaning narxi esa 1000 so‘mligi ma’lum.

442. 2013-yil yozilgan sondagi raqamlar yig‘indisi 6 ga teng Yana necha yildan keyin raqamlar yig‘indisi 6 ga teng bo‘lgan yil keladi?

443. Odatda bir oyda yakshanba kuni 4 marta bo‘ladi. Lakin ba’zi oylarda yakshanba kuni 5 marta ham keladi. Bir yilda 5 martali oylar nechta bo‘lishi mumkin?

444. Ikkita traktor birga ishlasa, yer maydonini 1 soatda haydab bo‘ladi. Agar uchta traktor birga ishlasa, shu maydonni qancha vaqtida haydab bo‘ladi?

445. 2, 3, 4, 5 va 6 sonlarining barchasiga bo‘linadigan kichik son qanday?

446. 12, 24, 36, 42 va 54 sonlarining barchasiga bo‘linadigan eng katta sonni toping.

447. Arifmetik amallardan foydalanib, 3 ta 5 raqami bilan bo‘linadigan eng katta sonni toping.

448. Arifmetik amallardan foydalanib, 3 ta 5 raqami bilan bo‘linadigan eng katta sonni toping.

449. 60 50 40 30 20 10 sonlari orasiga tegishli shoralarни shunday qo‘yingki, natija 70 chiqsin.

450. Maydonni to‘rtburchak shaklida o‘rash uchun eni dan bo‘lgan 36 ta panjara keltirldi. Panjara bilan bo‘linadigan maydonning tomonlari qanday bo‘lsa, uning yuzi eng katta bo‘ladi? Bunda maydonning yuzi necha kvadrat metrni teng bo‘ladi?

451. Uch o‘rtoq 100 m ga yugurish bo‘yicha musobaqada qutlashdi. Ulardan biri bu masofani 19 sekundda, ikkinchisi 20 sekundda, uchinchisi esa 18 sekundda bosib o‘tdi. Agar Azim Salimdan, Olim Azimdan tez yugurgan bo‘lsa, ularning bu masofani qancha vaqtida bosib o‘tgan?

**452.** Shunday to'rtta sonni topingki, bu sonlardan bittin 4 ga bo'linganda, ikkinchisi 4 ga ko'paytirilganda, uchinchisiga 4 qo'shilganda, to'rtinchisidan 4 ayirliganda javob bir xil - 4 bo'lishi kerak. Bu qanday sonlar?

**453.** Shunday ikki xonali sonni topingki, uni 7 ga ko'paytirib, chiqqan sondan 1 ayirliganda 90 hosil bo'lsin. Bu qanday son?

**454.** Shunday 4 ta turli sonlarni topingki, ularni ketma-ket ko'paytirganda 70 soni hosil bo'lsin.

**455.** Uy tomiga 35 ta kaptar kelib qo'ndi. Birozdan keyin ulardan 17 tasi uchib ketdi. Shundan so'ng 8 ta kaptar qaytihib keldi. So'ngra 14 ta kaptar uchib ketib, 7 tasi qaytihib keldi. Tomda nechta kaptar qoldi?

**456.** 4 ta 3 raqamidan 30 sonini hosil qila olasizmi?

**457.** 6 ta 3 raqamidan 31 sonini hosil qiling.

**458.** Nodira akasidan 6 yosh kichik. Akasi 3 yil avval 8 yoshda edi. Hozir Nodira necha yoshda?

**459.** Qanday 4 ta har xil sonni ketma-ket ko'paytirib, 40 sonini hosil qilish mumkin?

**460.** Bir sutka davomida soatning minut mili soat mili bilan necha marta ustma-ust tushadi? Bir sutkada ular necha marfin o'zaro to'g'ri burchak hosil qiladi?

**461.** Sonlar orasiga tegishli amal ishoralari va qavslarni qo'yib, tenglikni hosil qiling:  $2 \ 2 \ 2 \ 2 \ 2 = 7$ .

**462.** 3 ta 2 raqamidan 24 sonini hosil qila olasizmi? 20 sonini-chi?

**463.** 9 ga bo'lganda qoldiqda 7 chiqadigan eng kichik sonni toping.

**464.** Sobir 1 dona konfet sotib olsa, unda 200 so'm ortib qoladi. Agar 2 dona olsa, 100 so'm yetmaydi. Konfet nechun so'm turadi? Sobirda necha so'm bor?

**465.** 5 ta 1 raqamidan 21 sonini hosil qila olasizmi? 23 sonini-chi?

466. 3 ta 5 raqamidan 2 sonini hosil qila olasizmi? 20 va 10 sonlarini-chi?

467. 2 ga bo‘linganda 1 qoldiq, 3 ga bo‘linganda 2 qoldiq, 4 ga bo‘linganda 3 qoldiq, 7 ga esa butun hmadigan sonni toping.

468. 5 ta 5 yordamida 31 sonini qanday hosil qilishni olasizmi?

469. Sinfdagisi o‘quvchilarning uchdan bir qismi musiqa to‘ragiga, choragi tasviriy san‘at to‘garagiga qatnashadi. Qolgan 15 nafar o‘quvchi hech qaysi to‘garakka qumishmaydi. Sinfda necha nafar o‘quvchi bor?

470. a) 4 ta 2 raqamidan 6 sonini hosil qiling.

b) 4 ta 2 raqamidan 9 sonini hosil qiling.

c) 4 ta 2 raqamidan 10 sonini hosil qiling.

d) 4 ta 2 raqamidan 12 sonini hosil qiling.

471. 4 ta bir xil sondan 100 sonini qanday hosil qilish mumkin?

472. a) 4 ta 4 raqamidan 12 sonini hosil qiling.

b) 5 ta 1 raqamidan 14 sonini hosil qiling.

c) 4 ta 3 raqamidan 8 sonini hosil qiling.

473. 4 ta 5 raqamidan foydalanib 3 sonini hosil qila olasizmi?

474. a) 3 ta 2 raqamidan 20 sonini hosil qiling.

b) 3 ta 5 raqamidan 11 sonini hosil qiling.

475. 5 ta 2 soni orasiga to‘rt amal ishorasining har biridan foydalan shunday qo‘yingki, natijada 2 soni hosil bo‘lsin.

476. 5 ta 2 soni orasiga to‘rt amal ishorasining har biridan foydalan shunday qo‘yingki, natijada 3 soni hosil bo‘lsin.

477. 5 ta 2 soni orasiga to‘rt amal ishorasining har biridan foydalan shunday qo‘yingki, natijada 5 soni hosil bo‘lsin.

478. 5 ta 5 raqamidan 49 sonini hosil qila olasizmi?

479. 5 ta 2 orasiga «+» va «:» belgilarini qo‘yib, 7 sonini beral qiling.

480. 3 ta 3 raqamidan foydalanib 30 sonini hosil qila olasizmi? 3 ta 3 raqamidan 0, 2, 6 va 11 sonlarini ham hosil qilishga harakat qiling.

**481.** 3 ta 6 raqamidan foydalanib 5 sonini hosil qili olasizmi? 11 va 30 sonlarini-chi?

**482.** 123456789\* sonidagi yulduzcha o‘rniga qanday raqam qo‘yilsa, bu son 2, 3, 5 va 9 sonlariga bo‘linadi. Bu son 4 ga bo‘linishi uchun yulduzcha o‘rniga qaysi raqamni qo‘yish kerak?

**483.** Agar bitta daftар 400 so‘m, ruchka 300 so‘m, qalam 200 so‘m tursa, 4 000 so‘mga jami 14 dona o‘quv qurolli olish uchun ularning har biridan nechta olish kerak?

**484.** Bir sutkaning chorak qismi uyquga sarflansa, qanchi vaqt uxlagan bo‘linadi? Uchdan biri sarflansa-chi?

**485.** Qopdagи 40 kg shakar 2 kg va 3 kg qiliб xaltachalarga solindi. Agar 2 kg li va 3 kg li xaltachalar soni teng bo‘lsa, shakar solingan hamma xaltachalar nechta?

**486.** Sotuvchi ikki pallali tarozida 1 kg li tosh yordamida xaridorga yarim kilogramm guruchni qanday o‘lchab berishi mumkin?

**487.** Ikki pallali tarozi yordamida 1 kg dan 13 kg gacha bo‘lgan har bir kilogrammli yukni o‘lhash uchun eng kamidi nechta tarozi toshlari kerak? Bu toshlar necha kilogrammli bo‘lishi kerak?

**488.** Ikki pallali tarozida 1 kg va 5 kg li toshlar yordamida 4 kg mahsulotni qanday o‘lhash mumkin?

**489.** Ikki pallali tarozi va 1 kg, 2 kg, 3 kg, 5 kg li toshlarning har biridan bittadan bor. Shu toshlar yordamida 4 kg, 6 kg, 7 kg, 8 kg, 9 kg, 10 kg, 11 kg li mahsulotlarni tortish uchun qaysi toshlarni qo‘yish kerak?

**490.** Sotuvchida ikki pallali tarozi hamda tarozining 1 kg, 2 kg, 5 kg li toshlari bor. Shu toshlar yordamida qanday og‘irliliklardagi mahsulotni o‘lhash mumkin?

**491.** Yutqazgan chiqib ketadi sharti bilan o‘tkazilgan shaxmat musobaqasida 15 nafar o‘quvchi qatnashdi. Birinchi kuni 5 ta, ikkinchi kuni 6 ta o‘yin o‘tkazildi. Uchinchi kuni musobaqa tugadi. Uchinchi kuni nechta o‘yin o‘ynalgan?

492. Palov tayyorlash uchun guruch va sabzi baravar miqdorda bo‘lishi kerak. Go‘sht guruchdan 2 marta kam, yog‘ guruchdan 4 marta kam, piyoz esa guruchdan 8 marta kam solinadi. 8 kg guruch solib, palov damlash uchun qancha sabzi, qancha go‘sht, qancha yog‘ va qancha piyoz kerak?

493. Uch to‘plamda sonlar keltirilgan. Ikkita to‘plamdan toydalanib, uchinchi to‘plamdagagi yulduzcha o‘rnida qanday son bolishi kerakligini toping: (6, 11, 7) : 4

(8, 4, 12) : 3

(10, 55, 15) : \*

494. Ko‘p qavatli binoda yashovchi ikki qo‘sning biri qavatdagagi 81-xonadonda, ikkinchisi boshqa yo‘lakka bo‘y়ili 3-qavatdagagi 168-xonadonda istiqomat qiladi. Agar bu bu yo‘lakning har bir qavatida ikkitadan xonadon bo‘lsa, bu necha qavatli bino?

495. Har bir kulcha nonni teng 6 bo‘lakka bo‘lmasdan, ta kulchani 6 ta bolaga bo‘lib bering.

496. Har bir kulcha nonni teng 10 bo‘lakka bo‘lmasdan, ta kulchani 10 ta bolaga bo‘lib bering.

497. Har bir kulcha nonni teng 10 bo‘lakka bo‘lmasdan, ta kulchani 10 ta bolaga bo‘lib bering.

498. Har bir kulchani teng 10 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 10 ta bolaga bo‘lib bering.

499. Har bir kulcha nonni teng 10 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 10 ta bolaga bo‘lib bering.

500. Har bir kulcha nonni teng 12 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 12 ta bolaga bo‘lib bering.

501. Har bir kulcha nonni teng 12 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 12 ta bolaga bo‘lib bering.

502. Har bir kulcha nonni teng 12 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 12 ta bolaga bo‘lib bering.

503. Har bir kulcha nonni teng 14 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 14 ta bolaga bo‘lib bering.

504. Har bir kulcha nonni teng 14 bo‘lakka bo‘lmasdan, 11 ta kulchani 14 ta bolaga bo‘lib bering.

**505.** Har bir kulcha nonni teng 14 bo'lakka bo'lmasdani, 13 ta kulchani 14 ta bolaga bo'lib bering.


**506.** Raqamlar yig'indisi 2 ga teng bo'lgan nechta son bor?

**507.** Xonada ko'pgina mushuk va kuchuklar bor. Mushuklar oyoqchalari soni kuchuklar burunlari sonidan ikki marta ko'p. Xonadagi kuchuklar soni mushuklar sonidan necha marta ko'p?

**508.** Alisherning opalari nechta bo'lsa, akalari ham shuncha. Katta opasining ukalari soni singillari sonidan 2 marta ko'p. Bu oilada nechta o'g'il bola va nechta qiz bola bor?

**509.** Jamshidning opalari nechta bo'lsa, akalari ham shuncha. Katta opasining ukalari soni singillari sonidan 3 marta ko'p. Bu oilada nechta o'g'il bola va nechta qiz bola bor?


**510.** Ovqatlanish uchun kirgan 12 ta sayyoh 4 tadan uchta stolga o'tirib, to'rtinchini stolga oshxona xo'jayini joylashdi (80-rasm). Ovqat yeb bo'lishgach, ular shunday kelishib olishdi: soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylantirib sanalgandani har yettinchi o'midan turib ketadi va boshqa sanashda ishtirok etmaydi. Oxirida qolgan xo'randa hamma uchun pul to'laydi. Sayyoohlар shunday sanashdiki, oshxona xo'jayini pul to'ladи. Ular hisobni qaysi xo'rrandadan boshlashgan?



80-rasm.

**511.** Ovqatlanish uchun kirgan 21 ta sayyoh 7 tadan uchta stolga o'tirib, to'rtinchini stolga oshxona xo'jayini joylashdi (81-rasm). Ovqat yeb bo'lishgach, ular shunday kelishib olishdi: soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylantirib sanalgandani har yettinchi o'midan turib ketadi va boshqa sanashda ishtirok etmaydi. Oxirida qolgan xo'randa hamma uchun pul to'laydi. Sayyoohlар shunday sanashdiki, oshxona xo'jayini pul to'ladи. Ular hisobni qaysi xo'rrandadan boshlashgan?

-timaydi. Oxirida qolgan hamma uchun pul to'laydi. Sayyohlar shunday sanashdiki, oshxona xo'jayini pul to'ladi. Ular hisobni qaysi sayyohdan boshlashgan?



81-rasm.

**512.** Sarvar tir nishoniga 5 marta o'q otib, 100 ochko to'pladi. U har bu o'q otganda nechtadan ochko oljan? Javob necha xil bo'lishi mumkin (82-rasm)?

**513.** 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarning har biridan faqat bir marta foydalanib, qo'shishga oid ucta tenglik tuzing.

**514.** 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlardan foydalanib, ko'paytirishga oid ikkita tenglik tuzing.

**515.**  $3 + 3 \cdot 3 = x$  bo'lsa,  $x$  ni toping.


**516.** 5; 15; 25; 35; 45; 55; 65; 75; 85; 95; 105 sonlарining kvadratlarini tez hisoblashni bilasizmi? Oxiri 5 bilan maydigan ikki xonali sonlarni kvadratga oshirish uchun o'nli raqamni undan bitta birlikka katta bo'lgan songa ko'paytirib, ko'paytma oxiriga 25 sonini yozib qo'yish kerak. Masalan:

$$35^2 = 1225,$$

$$75^2 = 5625.$$

Nima uchun shunday, tushuntirib bera olasizmi?

**517.** 1 dan boshlab ketma-ket joylashgan toq sonlar yoki ular sonining kvadratiga teng. Masalan:



82-rasm.

$$1 = 1^2$$

$$1 + 3 = 4 = 2^2$$

$$1 + 3 + 5 = 9 = 3^2$$

$$1 + 3 + 5 + 7 = 16 = 4^2$$

Bu qonuniyat formulasini qanday ifodalash mumkin.

**518.** 82 ning kvadratidan 18 ning kvadratini ayirib tashlasak, necha qoladi?

**519.** Ikki yildan keyin men sendan uch marta kattu bo‘laman. Hozir men 49 yoshda bo‘lsam, sening yoshini nechada?

**520.** Birinchi yashikka hamma olmaning  $\frac{2}{5}$  qismi, ikkinchi yashikka qolgan olmaning  $\frac{3}{4}$  qismi, uchinchi yashikka qolgan olmaning  $\frac{2}{3}$  qismi solinganda 1 kilogramm olma ortib goldi. Hamma olma necha kilogramm edi?

**521.** Yer maydonini birinchi traktor 1 soatda, ikkinchi traktor 2 soatda haydab chiqadi. Agar ular birga ishlasa, yet maydoni qancha vaqtida haydaladi?

**522.** Usta ishni 20 kunda, shogird esa 30 kunda bajaradi. Agar ular birga ishlasa ishni qancha vaqtda bajarishadi?

**523.** 20 nafar o‘quvchi avtobusda sayohatga chiqish uchun pul yig‘ishmoqchi bo‘lishdi. Ular safiga yana 10 nafar o‘quvchi qo‘shilgan edi, yo‘lkira haqi har bir o‘quvchiga 9 000 so‘mga arzonlashdi. Avtobus uchun hammasi bo‘lib necha pul yig‘ishmoqchi edi?

**524.** 112 kilogramm olma 2 va 3 kilogrammlı yashiklarnı solindi. Agar 2 kilogrammlı yashiklar soni 3 kilogrammlı yashiklardan ikki baravar ko‘p bo‘lsa, har qaysi yashiklarning sonini toping.

**525.** 20% arzonlashgan tovar narxi yana 20% kamaydi. Hammasi bo‘lib tovar narxi necha foizga kamaygan?

**526.** Mahsulotning narxi avval 10% ga, keyin 20% ga oshirildi. Mahsulotning narxi hammasi bo‘lib necha foizga ko‘tarildi?

**527.** Biror buyumning narxi 10% ga oshirilib, keyin 10% ga kamaytirilsa, buyumning narxi o‘zgaradimi?

■ 518. Suv muzlaganda uning hajmi 1/11 qismga ortadi. Muz orqanda, hosil bo‘lgan suvning hajmi muz hajmiga qanchaga kamayadi?

■ 519. Kurant soatning bonglari soat necha bo‘lsa, shuncha bong uradi. Bir sutkada necha marta bong ovozi uradi?

■ 520. Ini oldidagi yo‘lakda bir metr oralab qo‘yib chiqilgan yong‘oqni terib olish uchun olmaxon necha metr yo‘l o‘tishi kerak? Olmaxon har bir yong‘oqni uyga olib urish uchun bir martadan qatnaydi.

■ 521. Ikki sonning yig‘indisi 640 ga teng. Shu sonlardan kichigiga bo‘linsa, natijada 3 butun, qoldiqda 60 qoladi. Bu sonlarni toping.

■ 522. Birinchi mактабда 840 nafar o‘quvchi o‘qiydi. Birinchi mактабда birinchi mактабдаги o‘quvchilarga yuqaganda  $1\frac{1}{7}$  marta ko‘p, uchinchi mактабда ikkinchi mактабдаги o‘quvchilarning  $\frac{5}{6}$  qismi va to‘rtinchи mактабда hula mактабдаги o‘quvchilarning  $\frac{3}{10}$  qismi o‘qiydi. To‘rtta mактабда hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi o‘qiydi?

■ 523. 2 ga bo‘linganda 1 qoldiq, 3 ga bo‘linganda 2 qoldiq, 4 ga bo‘linganda 3 qoldiq, 5 ga bo‘linganda 4 qoldiq, 6 ga bo‘linganda 5 qoldiq va 7 ga butun bo‘linadigan sonni toping?

■ 524. Sotish uchun olib ketilayotgan savatdagi tuxumlarni bo‘yovchi turtib sindirib qo‘ydi. U hamma tuxumlarning sonini to‘lash uchun tuxumlar sonini so‘ragan edi, tuxum egasi: «Nechtaligini bilmayman, lekin savatga har gal ikkitadan, uhitadan, to‘rttadan, beshtadan yoki oltitadan taxlaganimda, hitta tuxum ortib qolar edi. Yettitadan qo‘yganimda ortib qolmas edi», – dedi. Savatda nechta tuxum bo‘lgan?

■ 525. Botir, Qahramon va bir musofir ovqatlanish uchun o‘tishdi. Botir 7 ta kabobga, Qahramon esa 5 ta kabobga pul to‘ladi. Ularning har biri 4 tadan kabob yeyishdi. Hamma bu ovqatlanib bo‘lishgach, musofir ularga 6000 so‘mni

qoldirib ketdi. Botir bilan Qahramon pulni qanday bo‘lib olishlari kerak?

**536.** Uchta musofir somsaga buyurtma berib, o‘zлari uxbol qolishdi. Birinchi musofir uyg‘onib qarasa, somsalar tayyor ekan. Somsalarning uchdan birini yeb, yana uxbol qoldi. Ikkinci musofir uyg‘onib, u ham somsalarning uchdan birini yeb uxbol qoldi. Bundan bexabar uchinchi musofir ham somsalarning uchdan birini yeb uxbol qoldi. Stolda 8 ta somsa qolgan bo‘lsa, boshida qancha somsa keltirilgan va har bu musofir yana qancha somsa yeishi kerak?

**537.** Pulini oson yo‘l bilan ko‘paytirmoqchi bo‘lgan sodda odamga sherigi: «Har gal ko‘priдан o‘tishda pulingni ikki baravar ko‘paytirib beraman va buning evaziga har gal mengu 24 000 so‘m pul berasan», – deb shart qo‘ydi. Birinchi marta o‘tganida puli ikki marta ko‘paydi va sodda odam 24 000 so‘m pul berdi. Ikkinci marta ham bu hol takrorlandi. Amma uchinchi marta o‘tganida sodda odamda faqat sherigiga beradigan 24 000 so‘m pul qoldi. Sodda odamda birinchи marta o‘tishidan oldin qancha puli bo‘lgan?

**538.** Ikki cho‘pon uchrashib qolishdi. Birinchisi ikkinchisiga: «Agar sen menga bitta qo‘yingni bersang, mening qo‘yim senikidan ikki marta ko‘p bo‘ladi», – dedi. Ikkinchisi birinchisiga: «Yaxshisi sen menga bitta qo‘yingni ber. Shunda qo‘yimiz teng bo‘ladi», – dedi. Ularda nechtadan qo‘y bo‘lgan?

**539.** Menga 8 tanga bersang, mening tangalarim senikidan ikki baravar ko‘p bo‘ladi. Agar men senga 8 tanga bersam, ikkalamizning tangalarimiz teng bo‘ladi. Ikkalamizda qanchadan tanga bor?

**540.** Bir odamning 17 tuyasi bor edi. U katta o‘g‘liga tuyalarning yarmini, o‘rtanchasiga uchdan birini va kenjasiga to‘qqizdan birini vasiyat qilib qoldirdi. O‘g‘illari tuyalarni qanday qilib bo‘lib olishni bilmay turganlarida tuya mingan donishmand kelib qoldi. Donishmand tuyalarni o‘g‘illarga bo‘lib berdi. Qanday qilib?

541. Ota 40 000 so‘m pulni to‘rtta o‘g‘liga bo‘lib berib, pul ishlab kelish uchun yubordi. Birinchi o‘g‘li 2 000 so‘m pul ishladi. Ikkinchisi 2 000 so‘m zarar ko‘rdi. Uchinchisi qancha puli bo‘lsa, yana shuncha pul ishladi. To‘rtinchisida pulining yarmisi qoldi. O‘g‘illar uyga kelib sanashsa, hammlarining puli teng bo‘lib qolibdi. Ota o‘g‘illarining har binga necha so‘mdan bergen?

542. To‘rtta ketma-ket natural sonlar ko‘paytmasi 358 000 ga teng. Shu sonlarni toping.

543. Ketma-ket joylashgan ikki natural sonning ko‘paytmasi shu ikki son kichigining kvadratidan 18 ta kam. Shu sonlarni toping.

544. Otaning yoshi o‘g‘linikidan uch marta katta. 13 yildan keyin ota o‘g‘lidan ikki marta katta bo‘ladi. Ota va o‘g‘ilning yoshini toping.

545. Aka ukasidan 7 yosh katta. 4 yil oldin u ukasidan ikki marta katta edi. 7 yildan keyin ularning birgalikdagi yoshini toping.

546. To‘rt aka-ukaning yoshi bir-biridan 4 yoshga farq qiladi. To‘ng‘ich aka kenjatoy ukasidan 3 marta katta bo‘lsa, ukalarning yoshini toping?

547. Ota 45 yoshda, uning bir o‘g‘li 15 yoshda, ikkinchisi 11 yoshda, uchinchisi 7 yoshda. Necha yildan keyin otaning uning o‘g‘illari yoshining yig‘indisiga teng bo‘lib qoladi?

548. Agar faqat sovuq suv krani ochilsa, vanna minutda, faqat issiq suv krani ochilsa, 10 minutda to‘lar edi. Po‘kak tiqin olib qo‘yilsa, to‘la vannadan suv 5 minutda oqib chiqib ketadi. Vannani to‘ldirish uchun sovuq va issiq suv krani ochildi, lekin po‘kak tiqinni qo‘yish esdan chiqib qoldi. Vanna suvgaga to‘lishi uchun qancha vaqt kerak bo‘ladi?

549. Kub shaklidagi jismning hamma tomonlari 3 marta kamaytirildi. U qanchaga yengillashdi?

**234.** 1 dan 8 gacha sonlar yig‘indisi 36 ga, uning yarmisi 18 ga teng. Birinchi yashikdagagi ma’lum bo‘lgan ikki son yig‘indisi:  $1 + 3 = 4$ . Qolgan ikki son yig‘indisi 14 ga teng bo‘lishi kerak.  $7 + 7 = 14$  bo‘lishi mumkin emas. Bu faqat 6 va 8 sonlari yig‘indisidir. Demak, birinchi yashikda yana 6 va 8 sonlari bor.

**235.** 1-kubik: orqa tomoni 5 ta nuqtali, chap tomoni 4 ta nuqtali, ostki tomoni 1 ta nuqtali.

Boshqa kubiklarning kamida ikki tomonidagi nuqtalar soni ma’lum bo‘lsa, qolgan to‘rtta tomonidagi nuqtalar sonini 1-kubikka qarab topish mumkin (328-rasm).

2-kubik: o'ng yon tomoni 4 ta nuqtali, chap yon tomoni 3 ta nuqtali, orqa tomoni 6 ta nuqtali, osti 2 ta nuqtali, yuqoriga qaragan tomoni 5 ta nuqtali.

3-kubik: old tomoni 6 ta nuqtali, o'ng yon tomoni 3 ta nuqtali, chap yon tomoni 4 ta nuqtali, orqa tomoni 1 ta nuqtali, osti 2 ta nuqtali, yuqoriga qaragan tomoni 5 ta nuqtali.

4-kubik: old tomoni 5 ta nuqtali, chap yon tomoni 3 ta nuqtali, orqa tomoni 2 ta nuqtali, osti 1 ta nuqtali, yuqoriga qaragan tomoni 6 ta nuqtali.

**236.** Mushuk bilan quyon birga 5 kg 500 g.

**237.** 1997-yil 31-dekabr.

**238.** Bitta qo'y va bitta tovuqning jami oyoqlari soni  $4 + 2 = 6$ . Qo'y va tovuqlarning soni teng bo'lgani uchun javob 6 karrali bo'lishi kerak. Demak, javob 42 ta, ya'ni e javob to'g'ri.

**239.** Sarvar 14 yoshda, otasi 41 yoshda. Sarvar otasidan 27 yosh kichik.

**240.** Chumoli Toshbaqa ustida 18 minut yurgan.

**241.** O'quvchilar quyidagi ketma-ketlikda kelishgan: Anvar, Kumush, Fahriddin, Lola, Rashid.

**242.** Mazali yong'oqlar – 5 ta.

**243.** Bu sonlar: 10, 12, 14, 16, 18, 20.

**244.** Obid 5 soat-u 30 minut dars qilgan.

**245.** 4 ta qo'yning ham shoxi bor, ham rangi qora.


**246.** Eng ko'p ballni Dilshod, eng kam ballni Bahodir olgan.

**247.** 4 nafar akademikda ham soqol, ham mo'ylov bor.

**248.** Tor qora shtrixlar – 5 ta.

**249.** Feruza 1 ta qizil, 3 ta sariq va 6 ta ko'k konfet sotib olgan.

**250.** Soat 19:59 bo'lganda raqamlar yig'indisi eng katta bo'ladi. Bu son – 24.



328-rasm.

- 251.** Kitobcha 32 betli.
- 252.** 1001 marta ortadi.
- 253.** Yoqib iyulda, Nasiba avgustda, Xalima sentabrdan tug'ilgan.
- 254.** Qizlar jami 11 ta to'rtlik qo'shiq aytishgan.
- 255.** Guldastada 3 ta gul bor: 1 ta qizil chinnigul, 1 ta oq chinnigul, 1 ta pushti chinnigul.
- 256.** Har bir qavatlar orasi – 8 m : 2 = 4 m; 1-qavatdan 9-qavatgacha – 4 m · 8 = 32 m.
- 257.** Bitta handalakning massasi 12 ta shaftolining massasiga teng.
- 258.** Bu son – 49.
- 259.** 2 ta ortiq.
- 260.** Akada 65 ta, ukada 35 ta yong'oq bor edi.
- 261.** a) tarozida tortilgan 1 kg guruch tarozining ikki pallasiga teng bo'linadi;
- b) tarozining bir pallasiga 3 kg li tosh, ikkinchi pallasiga tortilayotgan guruch bilan bиргаликда 1 kg li tosh ham qo'yiladi;
- d) tarozining bir pallasiga 3 va 5 kg li tosh, ikkinchi pallasiga tortilayotgan guruch bilan bиргаликда 1 kg li tosh ham qo'yiladi.
- 262.** Hozir o'g'li 24 yoshda.
- 263.** Ikki g'ildirakli velosipedlar – 3 ta, uch g'ildirakli velosipedlar – 2 ta.
- 264.** Yarimta yog'ochning ikkita uchi bo'ladi. Demak, ikki yarimta yog'ochning uchlari – 6 ta.
- 265.** 4 yil oldin Umida 7 yosh, Anvar 14 yosh edi. Hozir Umida 11 yoshda, akasi 18 yoshda. 7 yildan so'ng Umida 18 yoshda, Anvar 25 yoshda bo'ladi.
- 266.** Bahodirning otasi 3 yildan keyin  $37 + 3 = 40$  yoshda bo'ladi. U o'g'lidan 4 marta katta bo'lsa, o'g'li 3 yildan keyin  $40 : 4 = 10$  yosh bo'ladi. Hozir Bahodir  $10 - 3 = 7$  yoshda.

**267.** Daftar 200 so‘m turadi; Nigorada 900 so‘m bor.

**268.** Qutichada 2 ta o‘rgimchak va 3 ta qo‘ng‘iz bor.

**269.** Javob 329-rasmida keltirilgan.

**270.**  $3 + 5 = 8$ ;  $7 + 2 = 9$ ;  
 $4 + 6 = 10$ .

**271.** 12 kundan keyin.

**272.** Soat 7 dan 40 minut o‘tganini ko‘rsatadi.

**273.** Anvar 30 ball, Bahodir 34 ball, Dilshod 36 ball olgan.

**274.** 42 ta yong‘oq.

**275.** Birinchi kuni 16 ball olgan:  
 $16 + 32 + 48 + 96 = 192$ .

**276.** Ota 40 yoshda, o‘g‘li 10 yoshda.

**277.** Bu son – 13.

**278.** Savatda 16 ta shaftoli bo‘lgan.

**279.** Qulflarning halqalarini eshik halqalariga zanjir qilib 330-rasmdagidek osishlari kerak.

**280.** Avval qo‘yni olib o‘tib, qaytib keladi va bo‘rini olib o‘tadi. O‘zi bilan qo‘yni olib orqaga qaytadi. Qo‘yni qo‘yib, pichanni narigi qirg‘oqqa olib o‘tadi. Qaytib kelib, yana qo‘yni olib o‘tadi.

**281.** Malika «Kimning oti keyin kelsa...», deb shart qo‘ygani uchun donishmand «Otlaringizni almashtiringlar», deb maslahat bergen.

**282.** Taxtalarни 340-rasmdagi kabi bir-biriga perpendikular ravishda to‘rtburchak burchagiga qo‘yish kerak.

**283.** Avval ikkala bola daryoning ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tib, bolalardan biri u qirg‘oqqa qoladi. Ikkinchi bola qayiqda askarlar turgan qirg‘oqqa qaytib keladi. Keyin bola o‘rniga 1 ta askar qayiqqa o‘tirib daryodan o‘tadi. Ikkinchi qirg‘oqda



329-rasm.



330-rasm.



340-rasm.

askar tushib qoladi va u yerda qolgan bola qayiqni bu qirg‘oqqa olib keladi. Endi yana ikkala bola ikkinchi qirg‘oqqa otishadi va bitta bola o’sha qirg‘oqda qoladi. Ikkinchi bola qayiqni qaytarib askarlar tomoniga o’tadi va ikkinchi askar qayiqda ikkinchi qirg‘oqqa o’ib oladi. U yerdagi bola qayiqda bu qirg‘oqqa qaytib keladi va hokazo. Bu jarayon hamma askar o’tishiga qadar takrorlanadi.

**284.** Yuk poyezdi oldinga o’tib, qo’shimcha yo’lakka orqasi bilan kiradi. Nechta vagon sig’sa shunchasini qoldirib, yana oldinga o’tib turadi. Endi tezyurar poyezd orqasi bilan qo’shimcha yo’lakka kirib, qoldirilgan vagonlarni o’zining oxirgi vagoniga ulaydi va yana orqaga o’tib turadi. Yuk poyezdi orqasi bilan qo’shimcha yo’lakka yana kirib, nechta vagon sig’sa shunchasini qoldirib, yana oldinga o’tib turadi. Tezyurar poezd orqasiga ulangan yukli vagonlarni qoldirib, oldinga yuradi va yo’lakchaga orqasi bilan kirib, yukli vagonlarni orqasiga ulaydi. Bu jarayon yuk poyezdi vagonlari bilan orqaga to’liq o’tib olguncha davom etadi. Yuk poyezdi stansiyada qoldirilgan vagonlarini yana ulab oladi.

**285.** Kemalarning yo’nalishlarini A va B deb olaylik. Avval A yo’nalishdagi birinchi kema ko’rfazga kiradi. Barcha kemalar B yo’nalishda harakat qilib, birinchi kema ko’rfazdan chiqib, yo’lini davom etishiga imkon beriladi. Keyin B yo’nalishdagi birinchi kema ko’rfazga kirib turadi. A va B yo’nalishdagi ikkinchi va uchinchi kemalar A yo’nalishda harakat qilib, B yo’nalishdagi birinchi kema ko’rfazdan chiqib, yo’lini davom etishiga imkon beriladi. Shu tarzda harakat qilib, oxiri hamma kemalar o’z yo’nalashlari bo’yicha ketishadi.

**286.** Kapitan soqchilarni mayor buyrug‘i bo'yicha 341-rasmdagidek, polkovnik buyrug‘i bo'yicha esa 342-rasmdagidek joylashtirish kerak. Bunda devor burchaklarida turgan har bir soqchi devorning ikki tomoniga tegishli ekanini hisobga olish kerak.



341-rasm.



342-rasm.



343-rasm.


**287.** Soat sirtidagi sonlar 343-rasmida ko'rsatilgandek juftlikka ajratilsa, yig'indi har doim 13 ga teng bo'ladi:  $12+1$ ;  $11+2$ ;  $10+3$ ;  $9+4$ ;  $8+5$  va  $7+6$ . Soat sirtini ham shu tarzda bo'lib chiqiladi.

**288.** Stullarni 344-rasmdagidek jolashtirish kerak.

**289.** Soat  $4^{\text{th}}$  ni ko'rsatadi.

**290.** Arqonni  $25\text{ m}$  va  $50\text{ m}$  li qilib qirqib oladi.  $50\text{ m}$  li arqonni halqa qilib bog'lab, ikki qavatdan iborat  $25\text{ m}$  li arqon hosil qiladi. Bir qavatli  $25\text{ m}$  va ikki qavatli  $25\text{ m}$  arqonlar bir-biriga ulansa,  $50\text{ m}$  arqon hosil bo'ladi. Uchlari bog'langan arqonni qoya uchiga kirkazib, arqonga osilgan holda daraxt ustiga tushadi. So'ngra arqon kesilsa, unda  $50\text{ m}$  arqon qoladi. Shu arqon yordamida  $50\text{ m}$  pastga tushadi.

**291.** Uch marta oyinchoqlarni olishlari mumkin (345-rasm). 32 ta oyinchoqdan birinchi marta 4 tasi olinganida 28 ta qoladi (*a*). Ikkinci marta olinganida 24 ta (*b*), uchinchi marta olinganida 20 ta (*d*) o'yinchoq qolgan. Demak, hammasi bo'lib uch martada 12 ta o'yinchoq olingan.



344-rasm.

2	5	2
5		5
<i>a</i>	2	5

3	3	3
3		3
<i>b</i>	3	3

4	1	4
1		1
<i>d</i>	4	1

345-rasm.

**292.** Birinchi savol: «Siz ikkinchi qavatdan yuqorida yashaysizmi?» Bu savolga «ha» deb javob berilsa, uchinchi yoki to'rtinchi qavatda yashashi ma'lum bo'ladi. «Yo'q» desa, birinchi yoki ikkinchi qavatda yashaydi. Ikkinci savol bilan aniq qavat soni so'raladi. «Ha» desa, so'ralgan qavatda, «yo'q» desa, boshqa aniq bir qavatda yashashi ma'lum bo'ladi.

**293.** 7 kunda 7 ta kemani uchratadi deb o'yash noto'g'ri. Chunki, Amerikadan Yevropa tomon kema yo'lga chiqayotganida Yevropadan Amerika tomon kelayotgan 7 ta kema yo'lga chiqib bo'lgan edi. Yevropaga yetib borish davomida yana 7 ta kema yo'lga chiqadi. Demak, hammasi bo'lib 14 ta kemani yo'lda uchratadi.

**294.** Bochkaning bir chetidan suvni asta-sekin to'kib, tagidagi chegarasi ko'rinishi bilan to'xtatish kerak. Bochka simmetrik bo'lgani uchun, suvning yarmi to'kiladi va yarmi ichida qoladi.

**295.** Donishmand «men dorga osilmoqchiman» deydi. Agar soqchlar donishmandni dorga osamiz deyishsa, u rost gapirgan bo'ladi. Demak, suvga cho'ktirish kerak. Agar uni suvga cho'ktiramiz deyishsa, u yolg'on gapirgan bo'ladi.

**296.** Bo'laklardan birini olib, undagi uchala halqa ochiladi. Shu halqalar yordamida qolgan 4 ta bo'lakni bir-biriga ulash mumkin.

**297.** Avval tortni tepasidan 2 marta kesib, 4 bo'lakka bo'lib olamiz. Keyin uni yonidan gorizontal yo'nalishda ikkiga ajratib kesamiz. Shunda to'rt 8 bo'lakka bo'linadi.

**298.** Har xil amallar bajarilganda ko'proq uning nimaga tengligi so'raladi, ya'ni eng ko'p «=> belgisi ishlataladi. Kamdan kam holatlarda qaysi biri katta yoki kichikligini topish kerak bo'ladi.

**299.** 9 ta tangani 3 tadan uch bo'lakka bo'lamiz. Tarozini har ikkala pallasiga uchtadan tanga qo'yamiz. Qaysi palla yengil chiqsa, o'sha pallada soxta tanga bor. Agar ikkala palla

teng chiqsa, soxta tanga uchinchi bo'lakda bo'ladi. Soxta bo'lakdag'i tangalardan ikkitasini olib, tarozining ikki pallasiga qo'yamiz. Qaysi palla yengil bo'lsa, o'sha palladagi tanga soxta bo'ladi. Agar ikkala palladagi tangalar og'irliga teng chiqsa, uchinchi tanga soxta bo'ladi.

**300.** 27 ta tangani 9 tadan qilib, uch bo'lakka bo'lamiz. Tarozining ikki pallasiga ikki bo'lakdag'i tangalarni qo'yamiz. Qaysi palla yengil bo'lsa, soxta tanga o'sha bo'lakda bo'ladi. Agar ikkala palladagi tangalar og'irligi teng bo'lsa, soxta tanga uchinchi bo'lakda bo'ladi. Endi 9 ta tangani 3 tadan uch bo'lakka bo'lamiz. Tarozini har ikkala pallasiga uchtadan tanga qo'yamiz. Qaysi palla yengil chiqsa, o'sha pallada soxta tanga bor. Agar ikkala palla teng chiqsa, soxta tanga uchinchi bo'lakda bo'ladi. Soxta bo'lakdag'i tangalardan ikkitasini olib, tarozining ikki pallasiga qo'yamiz. Qaysi palla yengil bo'lsa, o'sha palladagi tanga soxta bo'ladi. Agar ikkala palladagi tangalar og'irligi teng chiqsa, uchinchi tanga soxta bo'ladi.


**301.** Buning uchun qoplarni raqamlab chiqamiz. Birinchi qopdan bitta, ikkinchi qopdan ikkita, uchinchi qopdan uchta va hokazo o'ninchi qopdan 10 ta tanga olib, taroziga qo'yamiz. Jami 55 ta haqiqiy tanga 550 gramm bo'lishi kerak. Tarozi ko'rsatkichi 550 grammidan necha gramm kam ko'r-satsa, o'sha raqamli qopdag'i tangalar soxta bo'ladi. Masa-lan, 55 ta tanga tortilganda 544 gramm chiqsin. U holda  $550 - 544 = 6$ . Demak, soxta tanga oltinchi qopda ekan.

**302.** Uchta to'g'ri chiziqnini 346-rasmida ko'rsatilgandek o'tkazish kerak.


**303.** Stullarni 347-rasmida ko'rsatilgandek joylashtirish kerak.

**304.** Stullarni 348-rasmida ko'rsatilgandek joylashtirish kerak.


**305.** Stullarni 349-rasmida ko'rsatilgandek joylashtirish kerak.




346-rasm.




347-rasm.



348-rasm.



349-rasm.



350-rasm.

**306.** Stullarni 350-rasmida ko'rsatilgandek joylashtirish kerak.

**307. 1-usul:** 3 litrli idishda ikki marta suv olib, 5 litrli idishga quyilsa, 3 litrli idishda 1 litr suv ortib qoladi.

**2-usul:** 5 litrli idishdagi suv 3 litrliga quyilsa, 2 litr ortib qoladi. Bu 2 litr svn ni yana bo'shatilgan 3 litrliga quyiladi. Hovuzdan 5 litrli idishga suv olib, 1 litrini 3 litrli idishga quyilsa, u to'ladi. 5 litrli idishda 4 litr suv qoladi. Undan bo'shatilgan 3 litrli idishga quyilsa, 5 litrli idishda 1 litr suv ortib qoladi.

**308. 1-usul:** 2 litrli idishda uch marta suv olib, 5 litrli idishga quyilsa, 3 litrli idishda 1 litr suv ortib qoladi.

**2-usul:** 5 litrli idishdagi svn ni 2 litrliga ikki marta quysak, 1 litr suv ortib qoladi.

**309.** Hammasi bo'lib o'n yarim banka asal bor. Bankalar soni – 21 ta. Har bir kishi 7 ta bankada uch yarim banka asal olishi kerak. Bu quyidagicha hal etiladi:

**1-usul:** 1-kishiga – 3 ta to'la, 1 ta yarim, 3 ta bo'sh;  
2-kishiga – 2 ta to'la, 3 ta yarim, 2 ta bo'sh;  
3-kishiga – 2 ta to'la, 3 ta yarim, 2 ta bo'sh.

**2-usul:** 1-kishiga – 3 ta to'la, 1 ta yarim, 3 ta bo'sh;  
2-kishiga – 3 ta to'la, 1 ta yarim, 3 ta bo'sh;  
3-kishiga – 1 ta to'la, 5 ta yarim, 1 ta bo'sh.

**310.** 8 litrli bochkadan 3 litrli idishda ikki marta kvas olib, 5 litrliga quysak, 3 litrli idishda 1 litr kvas qoladi. 5 litrli idishdagi kvasni bochkaga qaytarib quyib, uni bo'shatamiz. 3 litrli idishdagi 1 litr kvasni 5 litrli bo'sh idishga quyamiz. 3 litrli idishda yana kvas olib, 5 litrliga quysak, undagi kvas 4 litr bo'ladi.

**311.** 310-masala kabi yechiladi.

**312.** 16 litrli bochkadan 6 litrli idishda ikki marta kvas olib, 11 litrli idishga quysak, 6 litrli idishda 1 litr kvas ortib qoladi. 11 litrli idishdagi kvasni bochkaga to'kib, uning o'rniga 6 litrdagi 1 litr kvasni quyamiz. Yana 6 litrli idishda kvas olib, ikki marta 11 litrli idishga quyamiz. 6 litrli idishda endi 2 litr kvas ortib qoladi. Uni bo'shatilgan 11 litrli idishga quyib, yana 6 litr kvas qo'shsak, 11 litrli idishdagi kvas 8 litr bo'ladi.

16 litrli bochkadan 11 litrli idishda kvas olib, 6 litrli idishga quyish orqali ham 8 litr kvas olish mumkin.

**313.** Hovuzdan 7 litrli idishda suv olib 6 litrli idish to'ldiriladi. Qolgan 1 litr suv 3 litrli idishga quyiladi. 6 litrli idishdagi suv hovuzga quyib, idish bo'shatiladi. 7 litrli idishda yana suv olib 6 litrli idish to'ldiriladi. Qolgan 1 litr suv 3 litrli idishga quyiladi. 6 litrli idishdagi suv yana hovuzga quyib, idish bo'shatiladi. 3 litr idishdagi 2 litr suv 7 litrli idishga quyiladi. Hovuzdan 3 litrli idishda suv olib, 7 litrli idishga quyilsa, undagi suv 5 litr bo'ladi.

**314.** 6 litrli idishdagi kvasni 3 litrli idishga quysak, 6 litrli idishda 1 litr qoladi. 3 litrli idishdagi kvasni 7 litrli idishdagi 6 litr kvas ustiga quysak, 3 litrli idishda 2 litr qoladi. 7 litrli kvasni 6 litrli idishdagi 1 litr kvas ustiga quysak, 7 litrli idishda 2 litr qoladi. 6 litrli idishdagi kvasni 3 litrli idishdagi 2 litr kvas ustiga quysak, 6 litrli idishda 5 litr kvas qoladi. 3 litr idishdagi kvasni 7 litr idishdagi 2 litr kvas ustiga quysak, undagi kvas ham 5 litr bo'ladi.

**315. 1-usul:** Hovuzdan 9 litrli chelakda suv olib, 5 litrliga quyamiz va to'lgan idishni hovuzga to'kib tashlaymiz. 9 litrlidagi qolgan 4 litrni yana 5 litrliga quyamiz. 9 litrliga hovuzdan yana suv olib, 1 litrini quysak 5 litrli to'ladi. To'lgan idishni yana hovuzga to'kamiz. 9 litrli chelakda qolgan 8 litr suvning 5 litrini bo'shagan 5 litrli idishga quysak, 3 litr qoladi.

**2-usul:** 5 litrli chelakda hovuzdan 2 marta suv olib 9 litrlini to'latsak va to'lgan idishni har gal to'kib tashlasak, 5 litrlida

1 litr suv qoladi. Uni 9 litrliga quyib, yana 2 marta 5 litrlidan suv quysak, unda 2 litr qoladi. Shu ishni yana bir marta qaytarsak, 5 litrli chelakda 3 litr suv qoladi.

**316. 1-usul:** 12 litrli idishdan 5 litrli idishda 2 marta sut olib, 7 litrliga quyamiz. To'lgan idishni 12 litrli idishga bo'shatamiz. 5 litrlidagi qolgan 3 litr sutni yana 7 litrliga quyamiz. 5 litrlida yana sut olib, 4 litrini quysak 7 litrli to'ladi. 5 litrlida qolgan 1 litr sutni bo'shagan 7 litrli idishga quyib, unga yana 5 litr sutni quysak, 7 litrli idishda 6 litr sut bo'ladi.

**2-usul:** 7 litrli idishda sut olib 5 litrliga quyamiz. To'lgan idishni har 12 litrli idishga bo'shatamiz. 7 litrlida qolgan 2 litr sutni 5 litrliga quyamiz. Yana 7 litrli idishda sut olib, 3 litrini 5 litrliga quyamiz. 7 litrlida qolgan 4 litr sutni 5 litrliga quyamiz. 12 litrli idishda yana 7 litr sut olib, uning 1 litrini 5 litrliga quysak, idish to'ladi. 7 litrli idishda esa 6 litr sut qoladi.

**317.** 11 va 13 toq sonlar, ayirmasi esa juft son:  $13 - 11 = 2$ . Demak, quyidagi ketma-ketlikda 13 litrli idishda suv olib, 11 litrliga quyamiz. Har gal 11 litrli to'lganida uni hovuzga to'kib tashlaymiz. 13 litrlida qolgan suvni yana 11 litrliga quyamiz. 13 litrli idishdan 11 litrliga quylganda 13 litrli idishda birinchi galda 2 litr, ikkinchisida 4 litr, uchinchisida 6 litr, to'rtinchisida 8 litr, beshinchisida 10 litr, oltinchi galda quyishimizda 12 litr suv qoladi.

**318.** Idish 3 soat-u 59 minutda to'ladi.

**319.** Idishga 2 ta zamburug' solinsa, 59 minutda to'ladi. 4 ta solinsa, 58 minutda to'ladi.

**320.** Hech kim o'z uyiga taqillatib kirmaydi.

**321.** Haqiqat jadvali quyidagicha bo'ladi:

	Matiz	Mototsikl	Avtobus	Samolyot	Kema
Lola	0	1	0	0	0
Nodir	0	0	1	0	0
Oysha	0	0	0	1	0
Kozim	1	0	0	0	0
Aziz	0	0	0	0	1

Haqiqat jadvalidan ko‘rinadiki, sayohatga Lola mototsiklda, Nodir avtobusda, Oysha samolyotda, Kozim matizda va Aziz kemada borishgan.

**322.** Haqiqat jadvali quyidagicha bo‘ladi:

	Palov	Kartoshka	Tovuq	Baliq	Shashlik
Nargiza	0	0	1	0	0
Nabijon	0	0	0	0	1
G‘ayrat	0	1	0	0	0
Aziza	0	0	0	1	0
Olim	1	0	0	0	0

Haqiqat jadvalidan ko‘rinadiki, Nargiza tovuqqa, Nabijon shashlikka, G‘ayrat qovurilgan kartoshkaga, Aziza baliqqa, Olim palovga buyurtma bergen.

**323.** Haqiqat jadvali quyidagicha bo‘ladi:

	Futbol	Shaxmat	Velosiped	Tennis	Badminton
Alisher	0	0	0	1	0
Nigora	0	1	0	0	0
Erkin	0	0	0	0	1
Yulduz	0	0	1	0	0
Nozim	1	0	0	0	0

Haqiqat jadvalidan ko‘rinadiki, Alisher stol tennisi, Nigora shaxmat, Erkin badminton, Yulduz velosiped, Nozim futbol to‘garagiga qatnashadi.

**324.** Po‘lat, Shahnoza, Tohir, Komil.

**325.** Kim qayerga kim bilan borgani quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Qayerga	Kim bilan
Feruza	Hayvonot bog‘iga	Onasi bilan
Fozil	Sirkka	Akasi bilan
Shoira	Muzeyga	Opasi bilan
Sherzod	Kinoga	Otasi bilan
Salima	Teatrga	Xolasi bilan

**326.** 1-Malika, 2-Zilola, 3-Anvar, 4-Saodat, 5-Po'lat, 6-Maxmud.

**327.** Tanga qalbaki, chunki miloddan avvalgi davrlarda tanga ishlab chiqarilmagan, u davrda hisob yili ham bo'lmanan.

**328.** Qorovul tunda, ya'ni ish vaqtida uxlagani uchun ishdan bo'shatilgan.

**329.** Mumkin, agar men 31-dekabrdan tug'ilgan bo'lib, 1-yanvarda gapirayotgan bo'lsam. Chunki ikki kun avval (30-dekabrdan) 10 yoshda edim, 31-dekabrdan 11 yoshga kirdim, bu yil 31-dekabrdan 12 yoshga, kelasi yili 31-dekabrdan esa 13 yoshga kiraman.

**330.** Eng kuchli – Bobir, so'ng Ergash, Aziz va Davron.

**331.** Nozima va Xalima Salimadan kam, Hakimadan ko'p, ya'ni 6 ta yoki 7 ta qo'shiq aytishda ishtirok etgan bo'lishlari mumkin. Quyidagi variantlar mavjud: 6 va 6, 6 va 7, 7 va 6, 7 va 7. Jami qo'shiq aytishda ishtirok etishlar soni:  $8 + 5 + 6 + 6 = 25$ ,  $8 + 5 + 6 + 7 = 26$ ,  $8 + 5 + 7 + 6 = 26$  yoki  $8 + 5 + 7 + 7 = 27$  ta bo'lishi mumkin.

Masala shartiga ko'ra, ular uchtadan bo'lib aytishgan. Shuning uchun yig'indi uchga bo'linishi kerak. Mavjud variantlardan 7 va 7 to'g'ri keladi, chunki 27 soni 3 ga bo'linadi, bo'linma 9 ga teng chiqadi. Demak, Nozima va Xalima 7 tadan qo'shiq aytishgan, dugonalar birgalikda hammasi bo'lib 9 ta qo'shiq aytishgan.

**332.** Ergash amaki chorak yo'lni piyoda bosib o'tishga ketgan vaqt, velosipedda butun yo'lni bosib o'tishga sarflanadigan vaqt bilan bir xildir. Avtomobilda yurgan vaqt qo'shimcha vaqt bo'lган. Demak, Ergash amaki velosipedda yursa, dalahovliga tezroq yetib boradi.

**333.** Oq qalpoq kiygan donishmand, chunki ikkita qora qalpoqni ko'rib, boshqa qora qalpoq yo'qligidan bilib oladi.

**334.** Agar menda qora qalpoq bo'lганida, oq qalpoq kiygan donishmand: «Menda oq qalpoq», deb aytgan bo'lar edi. U bunday demadi. Demak, menda oq qalpoq ekan, deb mulohaza yuritgan.

**335.** Agar menda qora qalpoq bo‘lganida, qarshimdag‘i donishmandlardan biri biroz o‘ylab turib: «Menda oq qalpoq», deb aytgan bo‘lar edi. Ular birortasi bunday deyishmadi. Demak, menda oq qalpoq ekan deb mulohaza qilgan.

**336.** Orolda faqat 1 ta rostgo‘y bor. Chunki 2 ta yoki undan ortiq bo‘lganda, ularning juftligida ikkalasi ham rostgo‘y bo‘lib qolardi.

**337.** Suv to‘la bonkani bir tomonga 12-rasm ko‘rsatilgandek qiyshaytirilsa, undagi suvning yarmi to‘kilib, yarmisi qoladi. Shu tarzda bir litrli bonkada yarim litr, yarim litrli bonkada esa chorak litr suv qoldiriladi. Chorak litr suvni yarim litr suv ustiga quyilsa, bir litrli bonkada  $\frac{3}{4}$  litr suv bo‘ladi.




12-rasm.

**338.** Ikkinchchi idishga  $0,5 \text{ l}$  suv quyilganda hosil bo‘lgan aralashmaning  $\frac{4}{5}$  qismini sut,  $\frac{1}{5}$  qismini suv tashkil etadi. Ikkinchchi idishdan olingan  $0,5 \text{ l}$  aralashmada  $0,5 \cdot (\frac{4}{5}) \text{ l} = 0,4 \text{ l}$  sut,  $0,5 \cdot (\frac{1}{5}) \text{ l} = 0,1 \text{ l}$  suv bo‘ladi. U holda birinchi idishdagi aralashmada  $1,6 \text{ l}$  suv va  $0,4 \text{ l}$  sut, ikkinchi idishdagi aralashmada esa  $1,6 \text{ l}$  sut va  $0,4 \text{ l}$  sut bo‘ladi. Demak, birinchi idishdagi sut miqdori ikkinchi idishdagi suv miqdoriga teng.


**339.** Zanjirni 1 ta, 2 ta, 4 ta, 8 ta, 16 ta, 32 ta halqali 6 bo‘lakka ajratish kerak. Shu bo‘laklardan 1 dan 63 gacha har bir natural sonli halqali bo‘laklarni yig‘ish mumkin.

**340.** Shunday bo‘lishi mumkin, agar yugurish musobaqasi uch marta o‘tkazilib. natijalar quyidagicha bo‘lsa: 1) A > B > S; 2) B > S > A; 3) S > A > B.

Yugurish musobaqasi oltita, to‘qqizta va h.k. marta, ya’ni uch karrali marta o‘tkazilganda ham shunday natijalar bo‘lishi mumkin.



351-rasm.




352-rasm.

**341.** Javob 351-rasmda ko'rsatilgan.

**342.** Mumkin emas.

**343.** Javob 352-rasmda ko'rsatilgan.

**344.** G'ishtni stolning bir burchagiga taqab qo'yib, uning uzunligini stol sirtida belgilab olamiz. So'ngra g'ishtni olib, uning uzunligiga teng belgidan keyin joylashtiladi va stol qirrasidan g'ishtning qarama-qarshi uchigacha bo'lgan masofa o'lchanadi (353-rasm).



353-rasm.

**345.** Beshinchil askar o'z bosh kiyimini kim bilan adashtirishi mumkin? Boshqa 4 nafar soldat bilan adashtirgan bo'lishi mumkin emas. Demak, ehtimollik 0 ga teng.

**346.** 7 va 11 minutli qum soatlar bir vaqtida to'nnkarilib, hisob boshlanadi. 7 minutli qum soatdag'i qum tugashi bilan u yana to'nnkariladi. 11 minutli soatdag'i qum tugaganda 7 minutlida 4 minutli qum to'kilgan bo'ladi. 11 minutli qum soatdag'i qum tugashi bilan 7 minutli soat to'nnkariladi va undagi qum tugagach 15 minut bo'ladi, ya'ni:  $7+4+4=15$ .

**347.** Yashiklardan biridan 1 ta sharni olib, har bir yashikda qanday sharlar borligini aytib berish mumkin.

«1 ta oq, 1 ta qora» deb yozilgan yashikdan 1 ta shar olamiz. U oq yoki qora chiqishi mumkin:

a) Agar u oq chiqsa, ikkinchisi ham oq shar bo'ladi. «2 ta oq» deb yozilgan yashikda 2 ta qora shar, «2 ta qora» deb yozilgan yashikda esa 1 ta oq va 1 ta qora shar bor.

b) Agar u qora chiqsa, yuqoridagini aksi, yashikdag'i ikkinchi shar ham qora shar bo'ladi. «2 ta qora» deb yozilgan yashikda 2 ta oq shar, «2 ta oq» deb yozilgan yashikda 1 ta oq va 1 ta qora shar bor.

**348.** 50 so'm.

**349.** Birinchi galda olib sotganda ham, ikkinchi galda olib sotganda ham 1 tangadan foyda ko'rgan. Ajnaviy savdogar jami 2 tanga foyda ko'rgan.

**350.** 7 ta baliq.

**351.** 9 kg. Oq quyon – 2 kg, kulrang quyon – 3 kg, qora quyon – 4 kg.


**352.** Adham.

**353.**  $1 \cdot 3 + 4 - 5 = 2$ . Demak, o'quvchilar doskaga quyidagi tartibda chiqishi kerak: Dildora, Malika, Botir.


**354.** a va g javoblar.

**355.** e shakl ko'rindasi.

**356.** 3 ta quyon sakrashi kerak. Qaysi katakka sakrab o'tganligi 354-rasmida ko'rsatilgan.



354-rasm.




355-rasm.

**357.** 4 ta quyon sakrashi kerak. Qaysi katakka sakrab o'tganligi 355-rasmida ko'rsatilgan.

**358.** Yuqoriga yo'nalgan bo'ladi.

359. 8 ta qulfnı ochish kerak.
360. *e* javob to‘g‘ri.
361. Asadning tug‘ilgan kuni chorshanba kuni bo‘lgan.
362. Ko‘l atrofida 62 ta daraxt bor.
363. 63 m uzoqligidagi bo‘la olmaydi. Kiyik 2 m va 4 m ga bir martadan, 7 m ga sakkiz marta sakraganda mumkin bo‘lgan eng uzoq masofaga boradi, ya’ni:  $2 + 4 + 7 \cdot 8 = 62$  m. Demak, kiyik 63 m uzoqligidagi bo‘la olmaydi.
364. Vali 4 ta yong‘oq topdi.
365. Ozoda va Zokirning uylari orasida 11 ta uy bor?
366. Asalari hamma gullarni to‘rt usulda aylanib chiqishi mumkin: *a)* q—h—o—s; *b)* q—o—h—s; *c)* q—s—h—o; *d)* q—o—s—h.
367. Soat 1<sup>15</sup> ni ko‘rsatayotgan bo‘ladi.
368. *e* shakl ortiqcha, chunki boshqalaridan farqli ravishda bu shaklda ikki nuqta va uch nuqta bir-biriga perpendikular joylashgan.
369. Jumavoy 7 sonini tushirib qoldirgan.
370. Uyda eng kamida 5 ta xona bor (356-rasm).
371. 17 nafar o‘g‘il bola bor.
372. 1023, 1032, 1203, 1230, 1302, 1320, 2013, 2031, 2103, 2130, 2301, 2310, 3012, 3021, 3102, 3120, 3201, 3210.
373. 2 nafari yolg‘onchi.
374. 4 marta yozish mumkin.
375. 5000 so‘m.
376. 2 minut.
377. Haftaning chorshanba kuni 5 marta bo‘ladi.
378. 45 ta.
379. Eng ko‘pi bilan 6 ta sonni hosil qilish mumkin.
380. 5 tasi ham to‘polonchi, ham tishlag‘ich.
381. Quyon qafasdan 4-eshik orqali chiqib ketgan.
382. Shuhratning qadami eng uzun.
383. Eng kuchli B, song D, A va C.
384. 12 ta usul: omu, omsh, bmu, bmsh, oxu, oxsh, bxu, bxsh, nmu, nmsh, nxu, nxsh.



356-rasm.

**385.** Ota, o‘g‘il va nabira ovga chiqib, 4 tadan quyon ovlashgan.

**386.** Oilada 6 nafar farzand bor.

**387.** Oilada 7 nafar farzand bor.

**388.** Baliq oviga to‘rta baliqchi borishib, uchtasi 20 tadan baliq ovlagan.

**389.** 10 m.

**390.** Buvisi 60 yosh, nabirasi 5 yosh.

**391.** Kunduzi soat 3 da.

**392.** 5 litrdan ikki marta 9 litrga quysak, 1 litr suv ortib qoladi. Katta idishni to‘kib tashlab, 1 litr va yana ikki marta 5 litrdan suv quysak, endi 2 litr ortib qoladi. Bo‘shatilgan katta idishga endi 2 litr va yana 5 litr idishdan ikki marta suv quysak, 3 litr suv 5 litrli idishda ortib qoladi.

**393.** Uchta nuqtadan bitta tekislik o‘tkazish mumkin. Shuning uchun ular har doim bir tekislikda bo‘lishadi.

**394.** 3500 so‘m.

**395.** 11 sekund.

**396.** a) 8 xil harf bor.

b) 2- va 8-qatorlardagi harflar bir xil.

d) H harfi bir marta ishtirok etgan.

e) T harfi eng ko‘p ishtirok etgan.

f) 4-qatorda hamma harflar ishtirok etgan.

**397.** B = 5, M= 1, S=2, K= 4, Q = 3.

**398.** Soat 11.52 ni ko‘rsatadi.

**399.** 72 nafar o‘quvchi qatnashgan.

**400.** 36 soni eng ko‘p uchraydi.

**401.** 2 ga teng.

**402.** 34 ta kabina bor.

**403.** 30 ta bo‘lishi mumkin.

**404.** 40 ta bo‘lishi mumkin.

**405.** 96 ta bo‘lishi mumkin.

**406.** 86 ta bo‘lishi mumkin.

**407.** 31 dekabr soat 22.00.

**408.** 7 ta bo‘lishi mumkin.

**409.** 314 va 265 sonlarni hosil qilgan.

**410.** 58 ball olgan bo'lishi mumkin.

**411.** Yechilishi: usta va ustozga  $\frac{3}{4}$  qism ish qolgan edi. Usta qilgan ishni shogird 30 minutda, ustozning ishini 15 minutda bajarar edi. Demak, usta hamma ishning yarmini, ustoz esa choragini bajarishgan. Shogird ustaga qaraganda ikki baravar kam ishga ikki baravar ko'p vaqt sarflagan, ya'ni 15 minut. Demak, jami  $15 + 15 + 5 = 35$  minut sarflangan.

**412.** Bu sonlar 1, 7 va 15 sonlari. Javob: 15.

**413.** Eng kamida 8 ta, eng ko'pi bilan 16 ta kubik kerak.

**414.** Davron.

**415.** 4,5 metr ariqni qaziydi.

**416.** 3 nafar o'quvchi.

**417.** 3 marta yurish kerak (357-rasm).

1-y 1 2 3 4 5

2-y 3 2 1 4 5

3-y 3 3 3 3 3

357-rasm.

1-y 5 3 7 6 1 4 2

2-y 5 2 7 6 1 4 3

3-y 5 2 7 4 1 6 3

4-y 5 2 7 4 1 6 3

5-y 5 2 3 4 1 6 7

6-y 1 2 3 4 5 6 7

358-rasm.

**418.** 6 marta yurish kerak (358-rasm).


**419.** 13 ta olma yig'ishi mumkin.

**420.** 5 ta nuqta bor.

**421.** d rasmda ko'rsatilgan kubiklardagi nuqtalar soni to'g'ri.

**422.** 41 ta pishloqni yeyishi mumkin (359-rasm).

**423.** 7 ta savolga to'g'ri javob bergen.



359-rasm.

## HISOBLASHGA DOIR MASHQLAR

**424.** 1 dan 9 gacha yozish uchun 9 ta raqam kerak bo‘ladi. 10 dan 50 gacha yozish uchun ikkita raqamdan 41 ta kerak. Demak,  $9 + 41 \cdot 2 = 91$  ta raqam ishlataladi.

**425.** 1 dan 9 gacha 9 ta, 10 dan 99 gacha  $90 \cdot 2 = 180$  ta, 100 da 3 ta raqam ishlataladi. Demak, 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni yozish uchun jami 192 ta raqam ishlataladi.

**426.** 7, 17, 27, ..., 97 sonlarida 7 raqami 10 marta yoziladi. Bundan tashqari 70, 71, 72, ..., 79 sonlarida 7 raqami 10 marta yoziladi. Demak, hammasi bo‘lib 7 raqami 20 marta yoziladi.

**427.** 7 raqami 1 dan 100 gacha 20 marta ishlataladi. 1 dan 1000 gacha bunday sonlar 10 marta ko‘p bo‘lgani uchun  $20 \cdot 10 = 200$ . Undan tashqari 700 dan 799 gacha yana 100 ta 7 raqami ishlataladi. Demak, 7 raqami 1 dan 1000 gacha bo‘lgan sonlarda 300 marta ishlataladi.

**428.** Sonlar ketma-ketligida yulduzchalar o‘miga qo‘yilgan sonlar ajratib ko‘rsatilgan:

- a) 1, 18, 35, **52, 69, 86**, ...
- b) 80, 67, 54, **41, 28, 15**, ...
- c) 1, 4, 16, **64, 256, 1024**, ...
- d) 81, 27, 9, 3, 1, ...

**429.** Sonlar ketma-ketligida yulduzchalar o‘mida yetishmaydigan sonlar ajratib ko‘rsatilgan:

- a) Ixtiyoriy hadga 12 qo‘silsa, keyingi had hosil bo‘ladi:  
**1, 13, 25, 37, 49, 61, 73, 85, 97**, ...
- b) Ixtiyoriy haddan 11 ayirilsa, keyingi had kelib chiqadi:  
**100, 89, 78, 67, 56, 45, 34, 23, 12, 1**, ...
- c) Ixtiyoriy had 3 ga ko‘paytirilsa, keyingi had hosil bo‘ladi:  
**2, 6, 18, 54, 162, 486**, ...
- e) Ixtiyoriy hadni 2 ga bo‘linsa, keyingi had kelib chiqadi:  
**256, 128, 64, 32, 16, 8, 4, 2, 1**, ...

**430.** Sonlar ketma-ketligida yulduzchalar o'miga qo'yilgan sonlar ajratib ko'rsatilgan:

- 1-hadga 1, 2-hadga 2, 3-hadga 3 va hokazo qo'shilgan: 1, 2, 4, 7, 11, 16, 22, 29, ...
- 1-hadga 2, 2-hadga 4, 3-hadga 6 va hokazo qo'shilgan. Bunda qo'shiluvchi son 2 ga ortib borgan: 1, 3, 7, 13, 21, 31, 43, ...

**431.** Javob ikki variantdan iborat (360-rasm).

$$\begin{array}{|c|c|} \hline 3 & 5 \\ \hline \end{array} + \begin{array}{|c|c|} \hline 1 & 2 \\ \hline \end{array} = 47$$

$$\begin{array}{|c|c|} \hline 1 & 2 \\ \hline \end{array} + \begin{array}{|c|c|} \hline 3 & 5 \\ \hline \end{array} = 47$$

360-rasm.

**432.** Javob 361-rasmda keltirilgan.

$$\begin{array}{|c|c|} \hline 6 & 8 \\ \hline \end{array} - \begin{array}{|c|c|} \hline 4 & 5 \\ \hline \end{array} = 23$$

361-rasm.

**433.**  $2 + 2 = 2 \cdot 2$ .

**434.** Ixtiyoriy son nolga qo'shilsa va shu sondan nolni ayirsa, natija bir xil bo'ladi. Masalan:  $5 + 0 = 5 - 0$ .

**435** Har qanday sonni 1 ga ko'paytirsa yoki 1 ga bo'linsa, shu sonning o'zi chiqadi. Masalan:  $8 \cdot 1 = 8 : 1$ .

**436.** 31-dekabr dushanba kuniga to'g'ri keladi.

**437.** 2014-yilning 1-yanvari chorshanba kuniga, 2015-yilning 1-yanvari esa payshanba kuniga to'g'ri keladi.

**438.** Sichqon 2 yil umr ko'radi.

**439.** Sichqon 8 ta boshoqdan 10 ta kulcha yopish mumkin.

**440.** Farrux telefonining raqamlari: 9623120.

**441.**  $2 \cdot 500 \text{ so'm} + 3 \cdot 1000 \text{ so'm} + 4 \cdot 1500 \text{ so'm} = 10000 \text{ so'm}$ .

**442.** 9 yildan keyin, ya'ni 2022-yilda.

**443.** Bir yilda 5 marta yakshanbali oy 5 ta bo‘lishi mumkin.

**444.** 40 minutda haydaydi.

**445.** 60 soni.

**446.** 6 soni.

**447.**  $(5 + 5) : 5 = 2$ .

**448.**  $5 - 5 : 5 = 4$ .

**449.** Javoblardan biri:  $60 - 50 + 40 + 30 - 20 + 10 = 70$ .

**450.** Agar maydon kvadrat shaklida bo‘lsa, yuzi eng katta bo‘ladi. Kvadratning perimetri:  $2 \cdot 36 = 72$  (m); tomoni:  $72 : 4 = 18$  m; yuzi:  $18 \cdot 18 = 324$  kv. m.

**451.** 100 m masofani Olim 18 sekundda, Azim 19 sekundda, Salim 20 sekundda bosib o‘tadi.

**452.** Bu sonlar – 16, 1, 0, 8.

**453.** Bu son – 13.

**454.** Bu sonlar – 1, 2, 5, 7. Shunda:  $1 \cdot 2 \cdot 5 \cdot 7 = 70$ .

**455.** 19 ta kaptar qolgan:  $35 - 17 + 8 - 14 + 7 = 19$ .

**456.**  $3 \cdot 3 \cdot 3 + 3 = 30$ .

**457.**  $33 - 3 : 3 - 3 : 3 = 31$ .

**458.** Hozir akasining yoshi:  $8 + 3 = 11$  da, Nodirarning yoshi:  $11 - 6 = 5$  da.

**459.** Bu sonlar – 1, 2, 4, 5:  $1 \cdot 2 \cdot 4 \cdot 5 = 40$ .

**460.** Bir sutka davomida soatning minut mili soat mili bilan 24 marta ustma-ust tushadi. Minut mili bir marta to‘liq aylanishida soat miliga nisbatan 2 marta to‘g‘ri burchakda bo‘lgani uchun bir sutkada  $24 \cdot 2 = 48$  marta o‘zaro to‘g‘ri burchak hosil qiladi.

**461.**  $(2 + 2) \cdot 2 - 2 : 2 = 7$ .

**462.**  $22 + 2 = 24$ ;  $22 - 2 = 20$ .

**463.** Bu son – 16.

**464.** Konfet 300 so‘m turadi, Sobirda 500 so‘m bor.

**465.** Bu sonlar quyidagicha hosil qilinadi:  $11 + 11 - 1 = 21$ ,  $11 + 11 + 1 = 23$ .

**466.**  $(5 + 5) : 5 = 2$ ,  $5 \cdot 5 - 5 = 20$ ,  $5 \cdot 5 + 5 = 30$ .

**467.** Bu son – 35.

**468.**  $5 \cdot 5 + 5 + 5 : 5 = 31$ .

**469.** 36 nafar o‘quvchi.

**470.** a)  $2 + 2 + 2 - 2 = 6$ ;

b)  $22 : 2 - 2 = 9$ ;

d)  $(22 - 2) : 2 = 10$ ;

e)  $(22 + 2) : 2 = 12$ .

**471.**  $10 + 10 + 10 - 10 = 100$ .

**472.** a)  $(4 - 4 : 4) \cdot 4 = 12$ ;

b)  $11 + 1 + 1 + 1 = 14$ ;

d)  $3 \cdot 3 - 3 : 3 = 8$ .

**473.** 1-usul:  $5 - (5 + 5) : 5 = 3$ ;

2-usul:  $(5 + 5 + 5) : 5 = 3$ .

**474.** a)  $22 - 2 = 20$ ; b)  $55 : 5 = 11$ .

**475.**  $2 \cdot 2 : 2 + 2 - 2 = 2$ .

**476.**  $2 \cdot 2 - 2 + 2 : 2 = 3$ .

**477.**  $2 \cdot 2 + 2 - 2 : 2 = 5$ .

**478.** 1-usul:  $55 - 5 - (5 : 5) = 49$ ;

2-usul:  $(5 + 5) \cdot 5 - 5 : 5 = 49$ .

**479.**  $2 : 2 + 2 + 2 + 2 = 7$ .

**480.**  $33 - 3 = 30$ ;  $(3 - 3) : 3 = 0$ ;  $3 - 3 : 3 = 2$ ;

$3 \cdot 3 - 3 = 6$ ;  $33 : 3 = 11$ .

**481.**  $6 - 6 : 6 = 5$ ;  $66 : 6 = 11$ ;  $6 \cdot 6 - 6 = 30$ .

**482.** Bir vaqtida 2 va 5 ga bo‘linishi uchun 0 qo‘yilishi kerak. 1234567890 sonidagi raqamlar yig‘indisi 45 soni 3 ga ham, 9 ga ham bo‘linadi. Demak, berilgan son 2, 3, 5 va 9 ga bo‘linishi uchun yulduzcha o‘rniga 0 qo‘yish kerak. Yulduzcha o‘rniga 2 yoki 6 qo‘yilsa, 4 ga bo‘linadi, chunki 92 va 96 sonlari 4 ga bo‘linadi.

**483.** 4 ta daftар, 4 ta ruchka va 6 ta qalam olish kerak. Shunda  $4+4+6=14$  ta o‘quv quroli uchun:  $4 \cdot 400 \text{ so‘m} + 4 \cdot 300 \text{ so‘m} + 6 \cdot 200 \text{ so‘m} = 4\,000 \text{ so‘m}$  to‘lanadi.

**484.** Bir sutkaning chorak qismi  $24 : 4 = 6$  (soat); uchdan bir qismi  $24 : 3 = 8$  (soat).

485. 16 ta.

486. Avval 1 kg li tosh yordamida 1 kg guruch o'lchab olinadi. Keyin tarozining birinchi pallasidagi tosh olib, uning o'miga ikkinchi palladagi guruchning yarmisi solinadi. Tarozi pallalari muvozanatlashganda har bir palladagi guruch yarim kilogrammdan bo'ladi.

487. Eng kamida uchta: 1 kg, 3 kg va 9 kg li tarozi toshlari kerak. Masalan, 2 kg li yukni tortish uchun tarozining bir pallasiga yuk bilan birga 1 kg li tosh, ikkinchi pallasiga 3 kg li toshni qo'yish kerak. 7 kg li yukni tortish uchun tarozining bir pallasiga yuk bilan birga 3 kg li tosh, ikkinchi pallasiga 1 kg va 9 kg li toshlarni qo'yish kerak.

488. Tarozining bir pallasiga 5 kg li toshni, ikkinchi pallasiga mahsulot bilan birga 1 kg li toshni qo'yish kerak.

489. Mahsulotlarni tortish uchun ikkita yoki uchta, ba'zan to'rtta tarozi toshlaridan foydalaniladi. 1, 2, 3, va 5 raqamlaridan foydalanib, ularning yig'indisidan 4, 6, 7, 8, 9, 10 va 11 sonlarini hosil qilish kerak:

$$1 + 3 = 4; \quad 5 + 1 = 6; \quad 5 + 2 = 7;$$

$$5 + 3 = 8; \quad 5 + 3 + 1 = 9; \quad 5 + 3 + 2 = 10;$$

$$5 + 3 + 2 + 1 = 11.$$

490. 1 kg dan 8 kg gacha og'irlikdagi mahsulotlarni o'lhash mumkin.

491. G'olib bir nafar bo'ladi. Qolgan 14 nafar qatnashchi yutqizganlar. Ular 14 ta o'yinda musobaqadan chiqib ketishadi. Demak, uchinchi kuni  $14 - 5 - 6 = 3$  ta o'yin o'ynalgan.

492. 8 kg guruchdan palov tayyorlash uchun kerak:

– sabzi bilan guruch teng, ya'ni 8 kg;

– go'sht guruchdan 2 marta kam, ya'ni 4 kg;

– yog' guruchdan 4 marta kam, ya'ni 2 kg;

– piyoz guruchdan 8 marta kam, ya'ni 1 kg.

493. Qavs ichidagi uchta son qo'shilib, birinchi songa bo'linsa, bo'luvchi kelib chiqadi. Shuning uchun  $(10 + 55 + 15) : 10 = 8$ .

**494.** Bu 9 qavatl bino. Bunda birinchi qo'shni 4-yo'lakda, ikkinchi qo'shni esa 9-yo'lakda yashaydi.

**495.** 7 ta nonni 6 ta bolaga bo'lib berish uchun 3 ta nonning har biri teng ikkiga bo'linsa, 6 ta yarimta non hosil bo'ladi. 4 ta nonni har biri uch bo'lakka bo'linsa, 12 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi. 6 ta bolaning har biriga bir dona yarimta va ikki dona uchdan bir bo'lak non beriladi.

**496.** 7 ta nonni 10 ta bolaga bo'lib berish uchun 5 ta nonning har biri teng ikkiga bo'linsa, 10 ta yarimta non hosil bo'ladi. 2 ta nonni har biri besh bo'lakka bo'linsa, 10 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi. 10 ta bolaning har biriga bitta yarimta va bitta beshdan bir bo'lak non beriladi.

**497.** 9 ta nonni 10 ta bolaga bo'lib berish uchun 5 ta nonning har biri teng ikkiga bo'linsa, 10 ta yarimta non hosil bo'ladi. Qolgan 4 ta nonni har biri besh bo'lakka bo'linsa, 20 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi. 10 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va ikki dona beshdan bir bo'lak non beriladi.

**498.** 11 ta nonni 10 ta bolaga bo'lib berish uchun 5 ta nonning har biri teng ikkiga bo'linsa, 10 ta yarimta non hosil bo'ladi. Qolgan 6 ta nonni har biri besh bo'lakka bo'linsa, 30 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi. 10 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va uch dona beshdan bir bo'lak non beriladi.

**499.** 13 ta nonni 10 ta bolaga bo'lib berish uchun 5 ta nonning har biri teng ikkiga bo'linsa, 10 ta yarimta non hosil bo'ladi. Qolgan 8 ta nonni har biri besh bo'lakka bo'linsa, 40 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi. 10 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va to'rt dona beshdan bir bo'lak non beriladi.

**500.** 7 ta nonni 12 ta bolaga bo'lib berish uchun 3 ta nonning har biri to'rt bo'lakka bo'linsa, 12 ta bir xil non bo'lagi hosil bo'ladi. Qolgan 4 ta nonni har biri uch bo'lakka bo'linsa, yana 12 ta bir xil bo'lak hosil bo'ladi.

12 ta bolaning har biriga bir dona to‘rtdan bir bo‘lak va bir dona uchdan bir bo‘lak non beriladi.

**501.** 11 ta nonni 12 ta bolaga bo‘lib berish uchun 3 ta nonning har biri to‘rt bo‘lakka bo‘linsa, 12 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. Qolgan 8 ta nonni har biri uch bo‘lakka bo‘linsa, 24 ta bir xil bo‘lak hosil bo‘ladi. 12 ta bolaning har biriga bir dona to‘rtdan bir bo‘lak va ikki dona uchdan bir bo‘lak non beriladi.

**502.** 13 ta nonni 12 ta bolaga bo‘lib berish uchun 6 ta nonning har biri ikki bo‘lakka bo‘linsa, 12 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 3 ta nonning har biri to‘rt bo‘lakka bo‘linsa, 12 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. Qolgan 4 ta nonni har biri uch bo‘lakka bo‘linsa, yana 12 ta bir xil bo‘lak hosil bo‘ladi. 12 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan, bir dona to‘rtdan bir bo‘lak va bir dona uchdan bir bo‘lak non beriladi.

**503.** 9 ta nonni 14 ta bolaga bo‘lib berish uchun 7 ta nonning har biri ikki bo‘lakka bo‘linsa, 14 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 2 ta nonning har biri yetti bo‘lakka bo‘linsa, 14 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 14 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va bir dona yettidan bir bo‘lak non beriladi.

**504.** 11 ta nonni 14 ta bolaga bo‘lib berish uchun 7 ta nonning har biri ikki bo‘lakka bo‘linsa, 14 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 4 ta nonning har biri yetti bo‘lakka bo‘linsa, 28 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 14 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va ikki dona yettidan bir bo‘lak non beriladi. Demak: bo‘laklarni quyidagi tenglama  $11/14 = 7/14 + 4/14$  bilan ifodalash mumkin.

**505.** 13 ta nonni 14 ta bolaga bo‘lib berish uchun 7 ta nonning har biri ikki bo‘lakka bo‘linsa, 14 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 6 ta nonning har biri yetti bo‘lakka bo‘linsa, 42 ta bir xil non bo‘lagi hosil bo‘ladi. 14 ta bolaning har biriga bir dona yarimtadan va uch dona yettidan bir bo‘lak non beriladi.

**506.** Raqamlar yig‘indisi 2 ga teng bo‘lgan 3 ta son bor: 101, 110 va 200.

**507.** Kuchuklar soni mushuklardan 2 marta ko‘p?

**508.** Alisherning 3 ta opasi va 3 ta akasi bor. Uning katta opasini 2ta singlisi va 4 ta ukasi bor. Demak, bu oilada 4 ta o‘g‘il bola va 3 ta qiz bola bor.

**509.** Jamshidning 2 ta opasi va 2 ta akasi bor. Katta opasining 1 ta singlisi va 3 ta ukasi bor. Demak, bu oilada 3 ta o‘g‘il va 2 ta qiz bola bor.

**510.** Hisob 8-sayyohdan boshlangan.

**511.** Hisob 6-sayyohdan boshlangan.

**512.** Jami 100 ochko olish uchun Sarvarning otgan o‘qlari tegadigan nishonlar 5 variantda bo‘lishi mumkin:

$$1) \quad 10 + 10 + 10 + 30 + 40 = 100;$$

$$2) \quad 10 + 10 + 20 + 20 + 40 = 100;$$

$$3) \quad 10 + 10 + 20 + 30 + 30 = 100;$$

$$4) \quad 10 + 20 + 20 + 20 + 30 = 100;$$

$$5) \quad 20 + 20 + 20 + 20 + 20 = 100.$$

$$\text{513. } 4 + 6 = 10; 7 + 2 = 9; 3 + 5 = 8.$$

$$\text{514. } 15 \cdot 4 = 60; 29 \cdot 3 = 87.$$

**515.** Oldin ko‘paytirish, keyin qo‘sish amali bajariladi:  
 $x = 12$ .

**516.** 5 ning oldidagi raqamni  $a$  bilan belgilab,  $a^5$  sonini kvadratga oshiramiz, ya’ni  $\frac{x^5}{(5a+2)^5}$  o‘zini-o‘ziga ko‘paytiramiz:

$(a^2 + a)25$  ko‘paytmada  $a$  ni qavsdan chiqarsak,  $a(a + 1)25$  ifoda hosil bo‘ladi.

$$\text{517. } ((1 + (2n - 1))n)/2 = n^2.$$

**518.** 82 va 18 sonlarini kvadratga oshirib, keyin ularning ayirmasini topish mumkin. Ammo buni og‘zaki hisoblasha ham bo‘ladi. Buning uchun bu ikki sonning ayirmasini ularning yig‘indisiga ko‘paytirish kerak:

$$(82 - 18) \cdot (82 + 18) = 64 \cdot 100 = 6400. \text{ Bu qoida boshqa istagan sonlar kvadratlarining ayirmasi uchun ham o‘rindi.}$$

- 519.** 17 yoshda, chunki  $(49 + 2) : 3 = 17$ .
- 520.** 20 kg. Bunda birinchi yashikka 8 kg, ikkinchi yashikka 9 kg, uchinchi yashikka 2 kg olma solingan.
- 521.** Bunda quyidagicha mulohaza yuritish kerak. Agar birinchi traktor ham, ikkinchi traktor ham 1 soatda (60 minutda) haydaganda edi, ikkala traktor birgalikda shu maydonni 30 minutda haydardi. Buning matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:  $\frac{1}{60} + \frac{1}{60} = \frac{1}{30}$ , ya'ni 30 minut. Boshqotirma sharti bo'yicha birinchi traktor 60 minutda, ikkinchi traktor 120 minutda haydasa, ikkalasi birgalikda haydashi uchun ketgan vaqt quyidagicha topiladi:  $\frac{1}{60} + \frac{1}{120} = \frac{3}{120} = \frac{1}{40}$ . Demak, ikkala traktor birgalikda 40 minutda haydaydi.
- 522.** 12 kunda.
- 523.** Har bir o'quvchi uchun yo'lkira haqi  $x$  so'm bo'lsin. U holda quyidagi tenglamani hosil qilish mumkin:
- $$20x = 30(x - 9\,000), \text{ uning yechimi: } x = 27\,000.$$
- 20 nafar o'quvchi uchun jami yo'lkira haqi:
- $$20 \cdot 27\,000 \text{ so'm} = 540\,000 \text{ so'm}.$$
- 524.** 3 kg li yashiklar –  $x$  ta, 2 kg li yashiklar –  $2x$  ta deb olib, quyidagi tenglamani tuzish mumkin:  $3x + 2 \cdot 2x = 112$ . Uning yechimi:  $x = 16$ . Demak, 3 kg li yashiklar – 16 ta, 2 kg li yashiklar –  $2 \cdot 2 \cdot 16 = 332$  ta.
- 525.** Masalan, 100 so'mli tovar narxi 20% ga kamaytirilsa, uning narxi 80 so'm bo'ladi. 80 so'mli tovar narxi 20% ga kamaytirilsa, uning narxi  $80 \text{ so'm} - 80 \text{ so'm} \cdot 0,2 = 64 \text{ so'm}$ . 100 so'mli tovar hammasi bo'lib, 36 so'mga, ya'ni 36% ga arzonlashadi.
- 526.** 32%.
- 527.** 11% ga kamayadi, chunki misol uchun 100 so'mli buyumning narxi 10% ga oshsa, narxi 110 so'm bo'ib qoladi. Endi 110 so'mli buyum narxi 10% ga kamaysa, 99 so'm bo'ladi. Demak, buyum narxi 1% ga kamayadi.
- 528.** Muz qaytadan suvgaga aylanganda, uning hajmi  $1/12$  qismiga kamayadi.

**529.** 156 marta.

**530.** 10 km 100 m.

**531.** 495 va 145.

**532.** 3 510 nafar.

**533.** 119.

**534.** 301 ta.

**535.** 4 ta kabob 6000 so‘m tursa, 1 ta kabob 1500 bo‘ladi. Botir 3 ta kabobga ortiqcha to‘lagan. Shuning uchun u 4500 so‘m olishi kerak. Qolgan 1500 so‘mni Qahramon olishi kerak.

**536.** Boshida keltirilgan somsa 27 ta bo‘lgan. 1-musofir 9 ta, 2-musofir 6 ta, 3-musofir 4 ta somsa yegan. 2-musofir yana 3 ta, 3-musofir yana 5 ta somsa yeishi kerak.

**537.** 21 000 so‘m.

**538.** Birinchi cho‘ponda 7 ta, ikkinchisida 5 ta qo‘y bo‘lgan.

**539.** 40 va 56 tanga.

**540.** Donishmand o‘zini tuyasini 17 ta tuyalarga qo‘sib hisobladi. Katta o‘g‘liga 9 ta, o‘rtanchasiga 6 ta va kenjasiga 2 ta tuya bo‘lib berib, o‘zini tuyasini yana minib ketdi.

**541.** Birinchi o‘g‘liga 8 000 so‘m, ikkinchi o‘g‘liga 12 000 so‘m, uchinchi o‘g‘liga 5 000 so‘m, to‘rtinchi o‘g‘liga 20 000 so‘m bergan.

**542.** 23, 24, 25, 26.

**543.** Ota 39 yoshda, o‘g‘li 13 yoshda.

**544.** 18 va 19.

**545.** 43 yosh.

**546.** 6 yosh, 10 yosh, 14 yosh, 18 yosh.

**547.** O‘g‘illarning jami yoshi 33 yosh bo‘lib, otasini yoshidan 12 yosh kichik. Har yili yoshlarni farqi 2 yilga kamayib boradi va 6 yilda tenglashadi.

**548.** 40 minutda.

**549.** 27 marta.

**550.** Qutidagi hasharotlarning hammasi qo'ng'iz bo'lganida, ularning oyoqlari soni  $9 \cdot 6 = 54$  ta bo'lar edi.  $62 - 54 = 8$  ta oyoq o'rgimchaklarga tegishli. O'rgimchaklar oyog'i qo'ng'izlarnikidan 2 taga ko'p bo'lgani uchun qo'shimcha 8 ta oyoq 4 ta o'rgimchakka tegishli. Demak, qo'ng'izlar soni  $9 - 4 = 5$  ta.

**551.** Nabira 5 yoshda, otasi 40 yoshda va bobosi 65 yoshda.

**552.** Nabira 8 yoshda, otasi 36 yoshda va bobosi 77 yoshda.

**553.** Akasida 50 ta, ukasida 40 ta tanga bor.

**554.** 3 ta savatdagи olmalar 90 ta. Bitta savatda 30 ta olma bor.

**555.** O'g'li 24 yoshda.

**556.** Akada 54 ta, ukada 27 ta qo'y bor.

**557.** Otasi 51 yoshda, o'g'li 17 yoshda.

**558.** 18 tanga 6 ta xona ta'mirlashga berildi. Bitta xonani ta'mirlashga 3 tanga berilgan. 1-guruh 3 ta tanga, 2-guruh 6 ta tanga, 3- guruh 9 ta tanga oladi.

**559.** 4 yosh, 8 yosh va 16 yosh.

**560.** Bo'lishda quyidagi xatoga yo'l qo'yilgan: bo'linma 4 emas 5 bo'lishi kerak, chunki qoldiq 8 ga bo'linadi. Ko'paytirib tekshirishda o'nliklarni ko'rsatuvchi son (2) birliklarni ko'rsatuvchi son (8) tagiga yozilgan.

**561.** 4 ta ishchi 3 ta tanga olishgan.

**562.** Daraxtlar 6 ta, qushlar 10 ta.

**563.** Bo'sh kataklar 48 ta, shashkalar 16 ta, oq donalar 7 ta va qora donalar 9 ta.

**564.** Har bir yo'lovchi bittadan non yegan. Demak birinchi yo'lovchi o'zini nonini o'zi yegan va 5 tangani ikkita non chiqargan yo'lovchi olishi kerak.

**565.** Har bir yo'lovchi 7 tangaga ovqatlansa, uchalasi  $7 \cdot 3 = 21$  tangaga ovqatlanishgan. Bitta non  $21 : 7 = 3$  tanga turadi. Birinchi yo'lovchi  $3 \cdot 3 = 9$  tangaga non bergen va

7 tangaga non yegan. Demak, 2 tanga olishi kerak. Ikkinch yo'lovchi  $4 \cdot 3 = 12$  tangaga non bergani uchun  $12 - 7 = 5$  tanga olishi kerak.

**566.** Har bir yo'lovchi 5 tangaga ovqatlansa, to'rttalasi  $5 \cdot 4 = 20$  tangaga ovqatlanishgan. Bitta non  $20 : 5 = 4$  tanga turadi. Birinchi yo'lovchi  $2 \cdot 4 = 8$  tangaga non bergen va 5 tangaga non yegan. Demak 3 tanga olishi kerak. Ikkinch yo'lovchi  $3 \cdot 4 = 12$  tangaga non bergani uchun  $12 - 5 = 7$  tanga olishi kerak.

**567.** Akasining o'yinchog'i 40 tanga va ukasining o'yinchog'i 8 tanga.

**568.** Akasida 65 ta, ukasida 35 ta.

**569.** 35 yosh.

**570.** Qo'yning narxi 8 tanga, sigirning narxi 32 tanga, otning narxi 128 ta tanga.

**571.** Akasida 135 ta, ukasida 105 ta tanga.

**572.** 25 ta.

**573.** Hasan 24 yil va Husan 27 yil.

**574.** Ota 51 yoshda, o'g'il 17 yoshda.

**575.** 28 yildan keyin.

**576.** Birinchi kuni jami ballning 1 qismini yig'gan deylik. U holda ikkinchi kuni ham 1 qism, uchinchi kuni 2 qism va to'rtinchi kuni 4 qism, jami 8 qism ball to'plagan. 208 ballni 8 qismga bo'linsa, bir qism 26 ball ekanligi ma'lum bo'ladi. Demak, birinchi kuni 26 ball yig'gan.

**577.** 10 kunda.

**578.** 120 kunda.

**579.** 15 ta.

**580.** 5 yildan keyin.

**581.** Har doim birinchi ishchi ikkinchi ishchidan 1 tanga ko'p oladi.

**582.** 15 yoshda.

**583.** 40 yosh.

**584.** Savatda 8 ta, chelakda 4 ta olma bor.

**585.** 50 yosh.

**586.** Oilada 4 ta qiz va 3 ta o‘g‘il bor.

**587.** U 12 soat uxlagan, 8 soat o‘yin o‘ynagan va 4 soat televizor ko‘rgan. Natijada dangasa dars tayyorlamagan.

**588.**  $21 \cdot 43 = 714$ .

**589.** Ikkalasi 343 ga teng.

**590.** 28 ta.

**591.** 50 yosh va 62 yosh.

**592.** 5 yoshda.

**593.** 14 yoshda.

**594.** 9 ta.

**595.** Bir necha usullari bor. Masalan:

$$1) 60 + 50 - 40 + 30 - 20 - 10 = 70;$$

$$2) 60 - 50 + 40 + 30 - 20 + 10 = 70;$$

$$3) 60 + 50 - 40 - 30 + 20 + 10 = 70.$$

**596.** 4 ga bo‘linganida 4 chiqadigan son – 16; 4 ga ko‘paytirilganida 4 chiqadigan son – 1; 4 qo‘shilganida 4 chiqadigan son – 0; 4 ayrılganida 4 chiqadigan son – 8. Demak, bиринчи son – 16, ikkinchisi – 1, uchinchisi – 0 va то‘ртinchisi – 8.

**597.** Noma’lum sonni topish uchun masalani oxiridan boshlab boshlanish tomonga qarab, berilgan amallarga teskari amallarni bajarib chiqish kerak, ya’ni 90 ga 1 ni qo‘shib, 7 ga bo‘lamiz:  $(90 + 1) : 7 = 13$ .

**598.** Natija yana 60 chiqadi, chunki  $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 5 = 30$ . 60 ni 30 ga bo‘lib, yana 30 ga ko‘paytiriladi.

**599.** 49.

**600.** 9-qavatda.

**601.** Beshta 20 sonning yig‘indisi 100 bo‘lgani uchun har bir keyingisi oldingisidan 5 ta ortiq bo‘lgan 5 ta sonni o‘rtadagisi 20 bo‘lishi kerak:  $10 + 15 + 20 + 25 + 30 = 100$ .

**602.** Bir sutka davomida soatning minut mili soat mili bilan 24 marta ustma-ust tushadi. Minut mili bir marta to‘liq aylanishida soat miliga nisbatan 2 marta to‘g‘ri burchakda

bo‘lgani uchun, bir sutkada  $24 \cdot 2 = 48$  marta o‘zaro to‘g‘ri burchak hosil qiladi.

**603.** 16.

**604.** Bitta konfet sotib olganidan keyin ortib qolgan 200 so‘mga ikkinchi konfetni olaman desa, 100 so‘m yetmaydi. Bitta konfetning narxi  $200 + 100 = 300$  so‘m. Bitta konfet olinsa, 200 so‘m ortib qoldi. Demak, Sobirda bitta konfetning puli va  $200 \text{ so‘m}$ , ya’ni  $300 + 200 = 500$  so‘m bor. 2 ta konfetning narxi  $2 \cdot 300 = 600$  so‘m, shuning uchun Sobirda 100 so‘m yetmaydi.

**605.** 3 yildan keyin Anvar  $9 + 3 = 12$  ga kiradi. Otasi 3 yildan keyin uch marta katta bo‘lsa:  $12 \cdot 3 = 36$  yosh bo‘ladi. Hozir otasi  $36 - 3 = 33$  yoshda.

**606.** 3 ta tovuq va 3 ta qo‘y.

